ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2023/ № 12

Termiz – 2023

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2023
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2023
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2023
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Graduonimik yondashuv evfemalar o‘quv lug’atini takomillashtirish usuli sifatida 7

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH,
IBRAGIMOVA ZAMIRA YULDASHEVNA
Qoraqalpog‘iston respublikasi xo‘jayli tumani etnotoponimlari 11

RAXIMOVA UMIDA
Qofiyada ruhiy holat tasviri 14

BABADJANOV MANSURBEK,
OBIDOVA MUAZZAMXON
Tarjima asarlarda qo‘llanilgan frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari 18

TOJIYEV ALIMJON MUYDINOVICH
O‘zbek tilshunosligi va mumtoz adabiyoti tarixida sinkretizm masalasi 20

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Alisher navoiy nasriy asarlaridagi perifrazalarning sintaktik xususiyatlari 23

TESHABOYEVA GULNOZA
Ta’mning emotsional-estetik xususiyatlarini belgilashda sezgilarning shaxs ongidagi roli 27

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Совмещение архаического и современного
значений слов в произведениях М.Цветаевой 33

NURIDDINOVA SHAXNOZA KAXOROVNA
Afsonaviy qahramonlar, asar qahramonlari nomi bilan bog‘liq tibbiy eponimlar 36

ADABIYOTSHUNOSLIK

ЮЛДАШЕВ НОРМАТ ТЕМИРОВИЧ
Чўлпон шеъриятининг синтактик хусусиятлари 40

MUXTOROVA UMIDA TOLIB QIZI
Badiiy asar strukturasida miflar va ijodkor Chingiz Aytmatovning
falsafiy-ijtimoiy konsepsiyasi 43

МУНДАРИЖА

UMURZOQOV BAHRIDDIN
HASANOVA SHAFOAT
Aliy safiy hiraviy ilmiy-adabiy merosi 47

ОЧИЛОВ ОЗОДЖОН МАРДИЕВИЧ
XX аср бошлари хитой ва ўзбек шеъриятида янги парадигмаларнинг
юзага келиш сабаблари хусусида..... 51

XAITOVA YULDUZ
Detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati talqini 53

HAMDAMOV ULUG‘BEK HASAN O‘G‘LI
O‘zbek avtobiografik romanlarida tarixiylikning badiiy talqini
(“Kafansiz ko‘milganlar” romani misolida).....58

TA’LIM

SAIDOVA ZARNIGOR TOSHBOBO QIZI
Talaba yoshlarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashning mazmuni va mohiyati 61

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

GRADUONIMIK YONDASHUV EVFEMALAR O‘QUV LUG’ATINI TAKOMILLASHTIRISH USULI SIFATIDA

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Har bir lug‘at amaliy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Bu leksikografiyaning nazariy asosini belgilashda muhim. Zero, leksikografiyaning nazariy asosini lug‘atlarning yarartilish qonun-qoidalari, ularni tuzish tartiblari, lug‘atlar turlarini belgilash tashkil etadi.

Lug‘aviy birliklarning lisoniy ma’nolari xususidagi bilimlar, ularni faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish ham o‘quv lug‘atlarining asosiy masalasi doirasida qayd qilinadi. Fikrni ta’sirchan va samarali ifodalash imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi lug‘aviy birliklarni darajalanish munosabatiga asoslangan ta’limning asosiy lingvodidaktik vositalari misolida tadqiq qilish zamonaviy lug‘atchilikning nazariy va amaliy yechimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi[1].

So‘zligi ma’lum bir mezon asosida tartiblangan, o‘quv-uslubiy talabga javob beradigan, ta’lim oluvchining kommunikativ kompetensiyasini shaklantirish uchun xizmat qiladigan, ma’lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo‘ljallangan antrposentrik vositaga o‘quv lug‘ati deyiladi[2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati»ning quyidagi asosiy vazifalarini ajratish mumkin:

1. Ta’lim berish. Evfemalar o‘quv lug‘ati ta’lim oluvchining og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalari (bilim, ko‘nikma, malaka)ni shakllantirishi, ona tili va adabiyot darsliklariga oid bilimlarni o‘zlashtirshda yordamchi o‘quv vositasi bo‘lib xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

2. Ma’lumot berish. Evfemalar o‘quv lug‘ati boshqa lug‘atlardan farq qilib, o‘quvchiga ma’lm tushuncha haqida umumiy ma’lumot berish bilan birga, badiiy asarlarda, kishilar nutqida muomala madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan evfemik birliklarga oid ma’lumot va axborot berishga xizmat qiladi.

3. Me’yorlashtirish. Lug‘atlarning aksariyati adabiy til me’yorlarini belgilash vazifasini bajaradi. «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati» ham foydalanuvchining uzluksiz ta’limning qaysi bo‘g‘inida ta’lim olayotganidan kelib chiqib, tilning imlo, talaffuz bilan bog‘liq me’yorlarini soddadan murakkabga qarab darajali tarzda qamrab oladi.

Sinonimik munosabat tilning atash, nomlash va tasvirlash xususiyati, graduonimik munosabat voqelikdagi miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish jarayonini ifodalab kelar ekan, evfemik darajalanish qatorlarida ham yuqoridagi kabi voqelikni yumshoq ifodalashda leksema ma’nolarida yuqori madaniyliknining asosan o‘sib, ortib, kuchayib borishini kuzatishimiz mumkin. Shuni ham aytishimiz kerakki, evfemik darajalanishda leksemalararo mazmunning quyiga qarab pasayishi bo‘yicha shakllanishi kuzatilmadi.

«O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati» tuzish tamoyillari:

1. Avvalo lug‘atlarda qo‘llanilishi milliy mentalitetimizga zid, (ammo lug‘at fondimizda mavjud) taqiqlangan, odob-axloq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan leksemalar ro‘yxatini ya’ni denotat so‘zlarni shaklllantirish. Keyingi o‘rinda ana shunday so‘z o‘rnida o‘rin almashib qo‘llaniladigan evfemik ma’nodoshlik kasb etuvchi so‘zlarni aniqlash;

2. Evfemik xarakterdagi so‘z va uning ma’nodoshlarining darajalanish qatori bilan birgalikda shakllantirish va ularni bir qatorda kamida uchta (ayrim o‘rinlarda (mantiqiy ikkita)) so‘zlikning evfemik ma’nodoshlarini graduonimik tamoyillarga ko‘ra qatorini shakllantirish;

3. Evfemik graduonim vositalarning har birini mazmunan o‘sish yoki kamayish ketma-ketligida izohlash. Izohli lug‘atlarda ana shunday ketma-ketlikda berilmagan o‘rinlarni shu asosda to‘ldirib izohlash;

4. Harakat yoki belgining, nutqiy qo‘llanilishidagi evfemik graduonim qatordagi eng quyi (ma’noda o‘sish bo‘lganda) mazmunni anglatuvchi leksemani

[1] Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари. Филол.фан.фал.док. дисс. –Андижон. 2022. – Б. 4.

[2] Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 31 б.

aniqlash va graduonimik qatorning boshlanish nuqtasiga joylashtirish;

5. Harakat yoki belgining, nutqiy qo‘llanilishdagi evfemik graduonim qatordagi eng yuqori (ma’noda kamayish bo‘lganda) mazmunni anglatuvchi leksemani aniqlash va graduonimik qatorning boshlanish nuqtasiga joylashtirish;

6. Izohli lug‘atlardagi ma’nodosh so‘zlarning ma’nodoshlarini kengaytirish va ulardagi ayrim aynanlik va farqllik xususiyatlarini mukammal darajada izohlashga e’tibor qaratish;

7. Darajalanish qatorlari kamida uchta ma’nodoshlardan iborat darajalanuvchi birliklarning darajalanishi yuzaga kelayotganligini angatuvchi graduonim yoki darajalanish qisqartma belgilari *grd. (graduonim), drj. (darajalanish)* kabi shartli qisqartmalardan unumli foydalanish. Ushbu shartli qisqartmani «Lug‘at tuzilishi va undan foydalanish» va «Shartli qisqartma va belgilar» qismlaridan joy olishini ta’minlash zarur.

Fikrimizni darajalanish uchun asosiy tushuncha hisoblangan farqlilik tamoyili haqidagi qarashlarimiz bilan davom ettiramiz. Shu o‘rinda sinonimlar bo‘yicha izlanish olib borgan B.Doniyorov tadqiqot natijalari asosida «o‘zbek tili leksik sinonimlarini asosiy denotativ ma’nosi bo‘yicha mos, lekin konnotativ ma’no komponentlari xususiyatlari va qo‘llanilishi (funksional imkoniyatlari)ning o‘ziga xosligi bilan farqlanadigan sinonimlar deb tavsiflash maqsadga muvofiq[1], degan xuslosaga keladi. Sinonimik qatorlarda farqlanish yuzaga kelar ekan demakki, evfemik sinonimlararo graduonimik (darajalanish) munosabati yuzaga keladi. Buni esa quyida KASAL leksemasi o‘rnida yumshatib qo‘llaniluvchi ma’nodoah so‘zlar misolida tahlilga tortamiz. Evfemik vositalarning darajalanishidagi ayrim farqliliklar: ***ma’no kuchayishi, belgi kuchayishi*** omillarini tahlil qilishga harakat qilamiz. «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»da KASAL leksemasining sinonimlari sifatida BETOB, NOTOB, BEMOR, NOSOG‘, XASTA, OG‘RIQ kabi ma’nodoshlari berilgan. Organizmning normal faoliyati buzilgan, sog‘ning aksi. *Kasal* keng tushunchaga ega. *Betob, notob, bemor, xasta* odamga nisbatangina qo‘llanadi. *Betob, notob* so‘zlari «vaqtincha deb tasavvur qilinadigan kasal» ma’nosini bildiradi. *Notob* kam qo‘llaniladi. *Bemor* so‘zida ijobiy munosabat ifodalanadi[2] kabi mulohazalar berilgan. Ushbu sinonimik qatorda ham ma’lum ma’noda leksemalar graduonimik munosabati mavjud lekin lug‘atda aynan bu haqda biron bir fikr-munosabat bildirilmagan. «O‘zbek tilining qisqa evfemik lug‘ati»da esa quyidagi evfemik leksemalar qatori mavjud. Ya’ni *shamollamoq, tobi yo‘q, tobi qochmoq, dardli, betob, bemor, xasta* va. b[3]. Mana shu o‘rinda ushbu *kasal* leksemasining sinonimlari sifatida berilgan shu va boshqa leksik vositalarning barchasi uning o‘rnida qo‘llanuvchi evfemik ma’noli leksemalari hisoblanadi. Garchi bu lug‘atda ham sinonimlararo graduonimik munosabat asosida berilmagan. Ish albatta bunda lug‘at tuzish an’analari bo‘yicha (alifbo tartibida) tuzilganligi uchun buni to‘g‘ri tushunishimiz kerak. Bu esa kelgusida «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati»ni tuzish lozimligini yuzaga keltiradi va unga bugungi ona tili a’limi tizimini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ehtiyoj bor deb aytish mumkin. Bu esa kelgusida yosh avlod nutqining yuksak darajada shakllanishida, ularda odob-ahloq, madaniyat tushunchalarining takomillashishida ijobiy natijalarga olib keladi. Misol uchun ushbu qatorda belgining o‘z navbatida ilk (*kasalning nisbatan yengil*) belgilaridan eng kuchlilik belgisi yuqoriga qarab mazmunan yumshoqlik ifodasi, madaniyligi, qolaversa badiiyligi, evfemik qo‘llanilish ma’nosi kuchayib, ortib bormoqda.

Leksik ma’nodoshlik qatori asosan nutq hodisasi, sinonimlik til hodisasi ekanligi haqidagi qarashlar sinonimlarni ajratish bo‘yicha bir qancha ziddiyatli fikrlarga oydinlik kiritdi. Ma’nodoshlik qatorlaridagi leksemalarning atash semalari bir xil, ifoda semalari har bir leksemalarda ma’lum darajada semantik farqli, tafovutli va o‘ziga xos bo‘ladi. Kuzatganimizdek, KASAL so‘zi o‘rnida yumshatib qo‘llaniluvchi yuqoridagi *shamollamoqdan* (kasallik belgisining yengil shakli) *xasta bo‘lmoq* (kasallik belgisining juda og‘ir) darajasigacha bo‘lgan har bir qator leksema semalarida mazmuniy farqlar mavjud. Ushbu leksemalarnining evfemiklik qo‘llanilishida *shamollamoq → tobi yo‘q → tobi qochmoq → dardli → betob* leksemalari kasal bo‘lgan inson hali uy sharoitida kasal bo‘lib, sekin-sekin kasallik belgisi kuchayayotganini, shuningdek, *bemor → xasta* (kasalligi ancha og‘ir, shifoxonaga yotib qolgan kishiga nisbatan) qo‘llanilishini kuzatamiz.

Tilshunos olima M.Hakimova graduonimiyaga sinonimiyaning bir turi sifatida qaraydi va bunday ma’no munosabatlarni mazmuniy graduonimiya deb baholaydi[4]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda shuni ham aytish kerakki, evfemik graduonimiya ham sinonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida qo‘pol qo‘llanilish kasb etadigan leksemalar o‘rnida yumshoq qo‘llanilishidagi belgisining ortishi (yoki badiiylikka qarab o‘sish, yuqori madaniylik bilan qo‘llanilish darajasiga qarab o‘sish) nuqtayi nazardan darajalanadi. Ayrimlari esa

[1] Дониёров Б.Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. –Б. 21.

[2] Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 4-10 б.

[3] Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқа эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006. – 91-92 б.

[4] Ҳакимова М. Семасиология. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008. – Б.78

voqea va jarayonni madaniy ifodalashda, nomlashda ierarxik (pog‘onaviylik) munosabat ham kasb etadi.

O‘zbek tilishunosligida so‘zlarning darajalanish munosabatiga asoslangan ilk o‘quv lug‘at I.Islomov va Sh.Bobojonovlar hammuallifligida tuzilgan «O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati»dir. Mazkur lug‘atning «So‘z boshi»sida lug‘atning tarkibi bilan birga lug‘atni yaratish zarurati xususida ham mulohazalar bildirilgan, ma’lumotlar yoritilgan. Ushbu lug‘at bu turdagi lug‘atlarning ilk namunasi bo‘lganligi tufayli unda ayrim kamchilik va xatolar ham mavjud, o‘quv lug‘ati oldiga qo‘yiladigan lingvodidaktik talablarga qisman darajada javob beradi deb aytishimiz mumkin. Ushbu lug‘atda so‘zlarning darajalanish qatorlari keltirilgan ular esa leksikografik izohlar bilan ta’minlanmagan, illyustrativ misollarsiz graduonimik qator holida berilganligi kuzatiladi. Albatta ushbu lug‘at kelgusida «O‘zbek tili so‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘ati»ning zamonaviy shakllarini yaratishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda, luga’t tarkibidan o‘rin olgan ayrim darajalanish qatorlariga e’tibor qaratamiz:

Achchiq – taxir – nordon – chuchuk – shirin;
(maza-ta’mning me’yoridan ortiq-kamligiga ko‘ra)[1]

Keltirilgan shu va boshqa misollardan ma’lumki, so‘zlarning darajalanish qatorini tuzishga asos bo‘lgan belgi umumiy tarzda denotativ belgisiga ko‘ra darajalanish qatorlari sifatida belgilanishi mumkin.

Biz tadqiqotimiz davomida taklif qilayotgan yangi zamonaviy o‘quv-uslubiy talabga javob beradigan «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati» yuqorida qayd qilingan o‘quv lug‘atlaridan farq qiladi. Lug‘at «So‘z boshi» mavzusi ostida, evfemik graduonim qatorlardan tashkil topib, qatorning quyi qismidan darajalanish qatoridagi har bir so‘zga izoh beriladi, zarur bo‘lgan o‘rinlarda illyustrativ misollar keltiriladi hamda so‘zlar lug‘at belgilari bilan ta’minlanadi. Shuningdek, har bir toifa guruhi uchun alohida tuziladigan o‘quv lug‘atida foydalanuvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish muhim jihatlardan hisoblanib shu asosda «O‘z bek tili evfemalar o‘quv lug‘ati»da so‘zlar darajalanish qatorlarini tuzib chiqilishi ko‘zda tutiladi. Yana shunga e’tibor qaratishimiz kerakki, ushbu o‘quv lug‘atni tuzishda lug‘at tuzuvchi oldida turadigan birinchi va asosiy masala qanday so‘zlarning o‘zaro evfemik sinonim bo‘lishi yoki bo‘la olmasligini belgilab olish masalasidir.

Ma’lum odob-axloq qoidalariga zid, nutqda qo‘pol tarzda qo‘llaniluvchi so‘zlarning evfemik vosita bo‘lishi yoki bo‘la olmasligida ularning shu tushunchani aniq yoki umumiy holda ifodalashda, til va nutqda qo‘llanilishi ham asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Birdan ortiq so‘zning o‘zaro evfemik ma’nodosh bo‘lishi uchun aynan bir tushuncha o‘rnida qo‘llanilishini shu so‘zlarning hammasi ham to‘liq shu ma’noda qo‘llanilishi zarur. Shu o‘rinda «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» muallifi A.Hojiyev sinonimlar haqida shunday degan edi: «*Agar bir so‘z tushunchaning biror tomonini kuchaytirib, obrazli qilib ifodalaydigan bo‘lsa, shu tushunchani to‘la ifodalaydigan so‘z yoki so‘zlar bilan sinonim bo‘la olmaydi*[2]. Ushbu fikrga tayangan holda shuni aytish mumkinki, evfemik sinonimlarni ham lug‘atga joylashtirishda yuqoridagi ta’kidni e’tibordan chetda qoldirmasligmiz kerak bo‘ladi.

Evfemik sinonimlarni belgilashda so‘zning asl ma’nosi bilan uning kontekstda reallashadigan ma’nosini, shuningdek ko‘chma ma’nosini hisobga olish lozim bo‘ladi. Biror so‘z o‘zining kontekstda yuzaga chiqadigan ma’nosi yoki ko‘chma ma’nosi bilan xuddi shu ma’noni ifodalaydigan boshqa so‘zga sinonim bo‘la olmaydi. Masalan, *Qanday go‘zaldir, bu yoshlik bahor!* gapida *qanday* so‘zi *juda* ma’nosini bildiradi. Lekin *qanday* so‘zi *juda* so‘ziga sinonim bo‘la olmaydi deyish mumkin.

«O‘zbek tili evfemalar o‘quv lug‘ati»ni tuzishda tuzuvchi oldida turadigan navbatdagi muhim vazifa evfemk sinonim so‘zlar qatorining chegarasini belgilash masalasidir. Sinonimik qatordagi biror so‘zni asosiy so‘z qilib belgilashda uning boshqalariga nisbatan keng tushunchaga egaligi, ekspressiv-emosional va stilistik jihatdan neytralligi, hozirgi adabiy tilga munosabati, shuningdek, sinonimik qatordagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noning shu so‘zda qanchalik aniq ifodalanishi hisobga olinadi.

Ushbu lug‘atdagi asosiy masalalardan yana biri illyustrativ material hisoblanadi. Sinonimik qatordagi so‘zlarni birlashtiruvchi ma’no va har bir so‘zning o‘ziga xos belgi-xususiyati ko‘rsatilgandan so‘ng bu ma’no va belgi-xususiyatlarni tasdiqlovchi misollar beriladi. Bunday misollar hozirgi zamon yozuvchi va shoirlarining asarlaridan, xalq maqollaridan, vaqtli matbuot-gazeta, jurnallardan olingan bo‘lishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan ma’lum bo‘ladiki, evfemalar o‘quv lug‘atida quyidagi narsalarga ahamiyat beriladi:1) til va nutqda mavjud qo‘llanilishi odob-axloq qoidalariga zid keluvchi, noo‘rin va qo‘pol qo‘llaniladigan birliklarni aniqlashtirish, ularning ro‘yxatini alifbo tartibida joylashtirish; 2) Qo‘pol birliklar o‘rnida yuqori madaniylik belgisi bilan o‘rin almashib qo‘llaniluvchi evfemik sinonim qatordagi birinchi (darajalanish belgili) so‘zni va sinonimik da-

[1] Бобожонов Ш., Исломов И. Ўзбек тилининг сўзлар даражаланиши ўқув луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 39 б.

[2] Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. –Тошкент, 1963. –Б. 10.

rajalanish qatorining chegarasini belgilash; 3) evfemik darajalanish qatordagi so‘zlarning o‘ziga xos belgi-xususiyatlarini ko‘rsatish; 4) ko‘rsatilgan ma’no va belgi-xususiyatlarni misollar bilan tasdiqlash.

Har bir lug‘at uchun lug‘at korpusini shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lganligi kabi, «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati» (darajalanish munosabati asosida) ning korpusini yaratish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Avvalo, o‘zbek tili milliy korpusining evfemizmlari bazasini yaratish zarur ekanligini ta’kidlash joiz. Tilshunos A.Eshmuminov o‘zining «O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi» nomli f.f.f.d.(PhD) dissertatsiyasida sinonimiya hodisalarining korpusda berilishi masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Tilshunos tadqiqoti davomida sinonimik so‘zlarni aks ettirish jarayonida so‘zlarning darajalanish qatorini ham e’tiborga olish lozimligini alohida ta’kidlab o‘tadi[1].

Biz tadqiqotimizda taklif qilayotgan yangi, zamonaviy o‘quv-uslubiy talabga javob beradigan «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati» (Darajalanish munosabati asosida) yuqoridagi «O‘zbek tilining qisqa evfemik lug’ati»dan farq qiladi. Lug‘at «So‘z boshi» mavzusi ostida, avvalo evfemizmlarning qo‘llanishiga asos bo‘luvchi *ta’qiqlangan, qo‘llanilishi odob-axloq me’yorlariga zid, noo‘rin, madaniylikka nomuvofiq so‘zlar* tanlab olinadi. So‘ngra ana shu ta’qiqlangan so‘zning o‘rnida qo‘llaniluvchi ma’nodosh leksemalar graduonimik tamoyillar asosida birin-ketin qatorda o‘rin oladi. Evfemik graduonim qatorning o‘sishi quyi qismidan darajalanish qatoridagi har bir so‘zga izoh beriladi, zarur bo‘lgan hollarda illyustrativ misollar keltiriladi hamda so‘zlar lug‘at belgilari bilan ta’minlanadi.

Evfemik darajalangan so‘zlarning ma’nosidagi muayyan belgining darajasi asosida hosil qilinuvchi ushbu qator bir necha xususiyatga ega bo‘lishi lozim. 1) Evfemik darajalanish qatori – qator tarkibi eng kamida uchta darajalanuvchi birlikdan iborat bo‘lishi shart. Agar uchta leksik qatordan iborat bo‘lmasa ular evfemik ma’nodosh hisoblanib qoladi. Uni evfemik darajalangan deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi. (Bu haqda yuqorida ham misol berib o‘tganmiz). **Qator** – tarkibidagi evfemik leksemalarning o‘zaro leksik-semantik munosabatlari asosida tartiblangan umumiy paradigma hisoblanadi. **Darajalanish qatori** – joylashuvi, qo‘llanilish darajasi va uslubiy nozikliklariga asoslangan leksik hamda frazeologik graduonimlarning o‘sish yoki kamayish belgilaridan iborat bo‘lgan qatordan iborat bo‘ladi. Qayd qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, darajalanish qatori o‘ziga xos lingvistik tabiatli, yaxlit semantik mikromaydondir deb aytish mumkin.

Ma’limki, graduonimik paradigma sinonimik paradigma kabi doimo ochiq bo‘ladi. Shu bois bir davrdan ikkinchi davrgacha graduonim lug‘atlar so‘zligi – graduonimik qatorlar, avvalo, davr taqozosi, nutq va jamiyat talabi asosida iste’moldan chiqib, yangilari bilan boyib boradi. Ushbu holatni evfemik ma’nodosh leksemalar qatori misolida ham kuzatish mumkin. Shuningdek, so‘zlar semantikasidagi o‘zgarishlar yangi-yangi darajalanish qatorlarining yuzaga kelishi uchun omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, evfemik sinonimlar qatorida (qo‘pol yoki noo‘rin qo‘llaniladigan dominant birlik) bosh so‘z bo‘ladi. Avvalo, sinonimik qatordagi (ta’qiqlangan, qo‘pol yoki noo‘rin qo‘llaniladigan) bosh so‘z ko‘rsatkichda qora rangda bosh harflar bilan alohida berilishi va o‘rnida qo‘llaniluchi birliklaridan ikki nuqta (:) orqali ajratilib ko‘rsatilgan darajalanish qatori misolida berilishi kerak. Boshqa so‘zlar ko‘rsatkichda kichik va oddiy harflar bilan lug‘aviy darajalangan holda beriladi. Shundan so‘ng evfemik sinonimlar lug‘aviy darajalangani kabi birin-ketin har biri alohida satrdan evfemik mazmunni isbotlovchi, nutqiy vaziyatni aks ettiriuvchi badiiy asarlar yoki OAVlari va nutqiy vaziyatdan yozib olingan, matbuot manbalarida ifodalangan misollar bilan izohlanadi. Har bir izohdan so‘ng esa ularning aniq manbasini ko‘rsatuvchi havolalari qayd etilgan ma’lumotlar berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan: biror bir kishining sog’ligida salbiy tomonga o‘zgarish bo‘lganligini anglatuvchi, to‘g’ridan-to‘g’ri aytish noqulay bo‘lgan **kasal** leksemasi o‘rnida ma’lum ma’noda yumshoq tarzda qo‘llaniladigan ***shamollamoq → betob → mazasi yo‘q → tobi qochmoq → sog’ligi yaxshi emas → bemor → xasta*** kabi evfemik birliklar qatorida lug’aviy darajalanishni anglash qiyin emas. Ushbu evfemik sinonim qatorda kasallik mazmunining leksemalarda oshib borish holati salbiy holatga tomon kuchayib borayotganligini ko‘rish mumkin.

KASAL
Shamollamoq. … .
Betob. … .
Mazasi yo‘q. … .
Tobi qochmoq. … .
Sog’ligi yaxshi emas. …
Bemor. … .
Xasta. … kabi.

Bunda biz lug’atlardagi asosan mazmuniy darajalanish tamoyiliga tayangan holda ish tutishimizga to‘g’ri keladi. Faqat qo‘pol birliklar ya’ni denotat leksemalargina alifbo tartibida beriladi.

Evfemik darajalanish o‘quv lug‘ati qatoridagi bosh so‘z (dominant)ning ma’nosini sinonimik qatordagi bosh so‘z kabi tushunmaslik kerak, chunki evfemik

[1] Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2019. – 130 б.

darajalangan so‘zlar o‘zaro denotativ va konnotativ ma’nosi jihatidan ham ma’lum farqlar kasb etadi. Bu yerda denotat tabu asosida yoki qo‘pol birlik bo‘lishi tabiiy va uning ma’nodoshlari ayrim o‘rinlarda aslida boshqa ma’noli leksema ko‘chim asosida ham unga ma’nodosh bo‘lishi mumkin.

Maktab ona tili ta’limi oldiga hukumat tomonidan o’zbek tilida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o’z fikrini og’zaki, yozma shakllarda to’g’ri va ravon bayon qiladigan, o’zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan, kitobxonlik madaniyati shakllangan shaxsni kamol toptirishdan iborat muhim ijtimoiy vazifanining qo’yilishi ona tili darsliklariga ta’limiy (yordamchi) vosita – o’quv lug’atlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Mana shunday yuksak maqsad va vazifalardan kelib chiqib jahon o’quv lug’atchiligi amaliyotida kuzatilganligi kabi o’zbek o’quv lug’atchiligida ham ona tilidan unumli va o‘rinli foydalanishni yo‘lga qo‘yishda ko’mak beruvchi «O‘zbek tili evfemalari o‘quv lug‘ati»ning yaratilishi bu boradagi muhim vazifamizdir.

Tilshunoslikda evfemik sinonimlarning aniq ko‘rinishlari, unga yondosh hodisalar, ayniqsa evfemik graduonimiya bo‘yicha tadqiqlarni davom ettirish, aniq xulosalarga kelish, shuningdek kelgusida «O‘zbek tili evfemelari o‘quv lug‘ati» (graduonimik munosabat asosida)ni yaratish tilshunosligimizning oldida turgan dolzarb ishlardan biri hisoblanadi.

Resume: To continue the research on the clear manifestations of euphemistic synonyms, related phenomena, especially euphemistic graduonymy, to come to clear conclusions, as well as to create the «Uzbek euphemisms educational dictionary» (based on the graduonymy relationship) in the future of our linguistics. is one of the urgent tasks ahead.

Резюме: Продолжить исследования четких проявлений эвфемистических синонимов, родственных им явлений, особенно эвфемистической градуонимии, прийти к однозначным выводам, а также создать в дальнейшем «Учебный словарь узбекских эвфемизмов» (на основе отношений градуонимии). Наша лингвистика является одной из неотложных задач, стоящих перед нами.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANI ETNOTOPONIMLARI

Ibragimov Yuldash Matkarimovich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori

Ibragimova Zamira Yuldashevna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nonzodi

Xalqimiz qadimiy davrlardan boshlab joylarni nomlash bo‘yicha boy tajriba orttirgan, biror joyni asossiz, besabab u yoki bu tarzda atamagan. Mana shu sabab va asoslarda xalqning ona tabiat, atrof-muhit haqidagi sinchkov kuzatishlari, kishilarning kundalik turmushi va xo‘jaligiga oid boy tajribalari, ko‘hna tarixning turli dalg‘ovli va osoyishta davrlarida boshidan kechirganlari, ulug‘ orzu va umidlari o‘z mujassamini topganini ko‘ramiz.

Qoraqalpog‘iston mintaqasidagi joy nomlarining lug‘at tarkibi asosan turkiy, arab, fors-tojik, mo‘g‘ul, slavyan va qadimgi xorazmiy, so‘g‘diy, hind-dravid, sanskrit tillari unsur (element)lari tarkib topgan. Qadimgi xorazmiy tilining substrati hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston mintaqasida ko‘plab toponimlar, antroponimlar, etnonimlar, oykonimlar, oronimlar, gidronimlar, agronimlar, zoonimlar, teonimlar, astronomik nomlar tarkibida saqlanib qolgan. Masalan, Gan-

dimiyon, Durbadik, Mizdakxon, Gavurqal'a, Anqoqal'a, Zumuxshir, Navkat, Saxtiyon, Kerdor, Darsan, Kalta minor, Tuproqqal'a, Kat, Os, Olon, Mazdubast va b. Masalan, Mazdubast – degan nom tojikcha bo'lib, Mazda to'g'oni demak[1], Tuyamo'yinning chap qirg'og'idagi do'nglar ilgari Mazdubast nomi bilan yuritiladi. Sakr-ash-shayton toponimi arabcha bo'lib, (Shayton to'g'oni) va boshqa[2] kabi nomlar ostida yuritilgan. Shu munosabat bilan yuqorida keltirilgan Sakar-ash-shayton (Shayton to'g'oni) degan nom bilan *Mazdubast* degan nom bir-biriga dualistik ravishda mos keladi. Mazdubast nomida ezgulik xudosi esga olinsa, *Sakra-ash-shayton* nomida unga zid bo'lgan yovuzlik xudosi tilga olinadi. Aytish joizki, arab termini «shayton» so'zining mahalliy ekvivalenti, shu kunga qadar aniqlanmagan.

Qoraqalpog'istondagi ko'hna qal'alar tarixi qadimgi davr bilan bog'lanadi. Bunga shu kungacha saqlanib kelayotgan moddiy va madaniy yodgorliklar, ko'hna qal'alar tahlili guvohlik beradi. Professor S.P.Tolstov rahbarligida tashkil qilingan Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasining ilmiy xodimlari tomonidan 1937 yildan boshlab Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi qududida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari qadimgi Qoraqalpog'iston hududidagi ko'pgina ko'hna qal'alarning tarixini ochib berishga muvoffaq bo'ldi. Xorazmda arxeologik va etnografik ekspeditsiya ilmiy xodimlari izlanish olib borgan davrda Xorazm vohasining ko'hna qal'alari ko'p joylashgan makon – hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a, To'rtko'l, Beruniy, Xo'jayli, Qo'ng'irot tumanlari hududida qurilgani aniqlandi.

Xo'jayli – Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. O'rta asr yozma manbalarida Xo'jayli shahri *Mizdakxan* nomi bilan mashhur bo'lgan. U haqida X asrda istiqomat qilgan arab geograflari Ibn Ruste hamda al-Ishtrahiylar yozib qoldirgan. Shuningdek, yana bir arab geografi al-Maqdisiyning qayd etishicha, Mizdakxan 12 ming feodal qal'alarining markaziy shahri bo'lgan. Shaharning eng qadimiy qismi Gauir qal'a nomi bilan ma'lum bo'lib, u to'qqiz gektardan ortiq maydonga ega tabiiy tepalik sanaladi[3]. Miloddan avvalgi IV asr - milodiy XIV asrlarining arxeologo-me'moriy majmuasi. Mizdakxon - 2 mingdan ziyod yillar avval paydo bo'lgan qadimiy qabriston[4].

Xo'jayli shahri tarixdagi eng dastlab Mizdaxqon nomiga ega. Ibn-Rustaning bayonlaridan ma'lum. Xo'jayli shahar tarixi bir qator ilmiy hujjatlarda qayd etilgan. Xususan D.Belasarovning yozishicha, Xo'jayli shahrining tarixi mintaqada joylashgan tarixiy joylar, ularning tarixi, olimlarning Xo'jayli shahri haqidagi fikrlari, shaharda o'tmishdagi tarixiy voqealar va ularning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiradi. «***Xo'jayli***» nomli kitobida - Xo'ja diyori xojalar, ya'ni payg'ambar avlodlari ma'nosida, hududdagi odamlar zich joylashgan, bu yerda aholining katta qismi xo'jalar edi. D.Belasarovning Xo'jayli tarixi haqidagi ma'lumotlari boshqa olimlarni ham qiziqtirgan va bir qator olimlar o'rgangan. S.P.Tolstov, Y.G.G'ulomov, V.V.Bartold tarixchilarning Yu.Yakubovskiy, S.K.Kamolov, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G.Xozoniyozov, M.Sh.Qidirniazov, M.To'rabekov, O.Yusupov, M.Qarliboyevlarning ilmiy izlanishlarini qayd etish mumkin. Ilmiy hujjatlar va ularda keltirilgan tarixiy hujjatlar ma'lumotlarga ko'ra, Xo'jayli xo'jaliklar ichida eng zich joylashgan markaz bo'lgan edi.

O'rta Osiyo davlatlarini bosib olish bilan bog'liq vayronaga aylangan Mizdaxqon shahri XIII asrning ikkinchi yarmida yana qayta tiklandi. Ikki baland tepalik orasidagi ochiq keng jabhaga yangi shahar quriladi. Oddiy xalq orasida shahar «***Antakya***» deb ham ataladi. Shahar Oltin O'rda davrida gullab-yashnagan. «***Buyuk ipak xalqaro savdo yo'li***» uchun ochildi. Ularning o'rtasida yer osti qurilgan Nazlimxon Suliv, Shamun Nabi, Kirq Shepard arxitekturasi joy nomlari alohida o'rin tutadi.

XIVasrning oxiri XV asrda Amudaryoning orqa oqimidan Sariqamish tomonga oqishi suv tanqisligining paydo bo'lishiga olib kelishi, ichki va tashqi siyosat vaziyatga qarab, shaharning kattaligi yoyilgan, shahar aholining ma'lum bir qismi boshqa joyga ko'chishga majbur bo'ladi. XVI-asr o'rtalaridan boshlab Amudaryo suvoqimi tiklanadi. Qadimgi irmog'i bo'ylab Orol dengizi tomon oqadi Xo'jayli jonlanadi. Xalq orasida «Mazlumxon Suliv» nomi bilan mashhur bugungi kungacha saqlanib qolgan zardushtiylik diniy an'analari saqlqngan obida sanaladi. Xo'jayli (Antakya, Mizdaqxon) bizning eramizdan oldingi III asrga tegishli.

Nazlimxon suluv - Mizdaxon majmuasida XIII asrda qurilgan bu tarixiy obidani Nazlimxon Suliv deb ham atashadi. Obida ishida turmushga chiqmasdan vafot etgan qiz ham dafn etilgani aniqlangan. Uning qabri ustidagi toshlarga fors tilida falsafiy she'rlar bitilgan. Keyingi yillarda qoraqalpoq adabiyotida xalq orasida mashhur bo'lgan she'riy drama yaratilib, Nazlim ismli o'g'il bilan Kansuliv ismli qiz o'rtasidagi munosabatlar haqida hikoya qilinadi. Ammo xalq orasida bolakayga Nazlim deb nom berish odat emas. Maqbaraga qo'yilgan qiz zodagonlar oilasidan bo'lgani, qabr toshidagi yozuvlar fors tilida yozilganini inobatga oladigan bo'lsak, Nazlimxon nomi qiz bola-

[1] Ғуломов Я. Хоразмнинг суғориш тарихи. – Тошкент: Ўзакадемнашр, 1959. – Б. 28.

[2] Ғуломов Я. Ўша асар. – Б.74-89.

[3] https://kknews.uz/oz/63413.html

[4] https://meros.uz/object/mazdohqon-majmuasi-gor-qaa-xo'jayli

ga qo‘yilgan ism bo‘lib sanaladi. Toponimning o‘zagi shaxs nomi emas, balki unga berilgan epitet bo‘lishi ehtimoli ko‘proq. Qizning Mazlumxon suliv (so‘zma-so‘z - Mazlum Xonsuliv) ismli epiteti, ya’ni forscha mazlum - «qiynoqqa uchragan», «mazlum» va Xonsuliv ismli qiz epiteti rivoyat ruhiga ko‘proq mos keladi. Shuningdek, turkiy xalqlarda arab tilidan tarjima qilingan «Mazluma» nomi mavjud. Qiyoslang: Mazlumaxon Suluv-Nazlimxon Suluv, yoki Mazlumaxonning qizi-Nazlimxon Suluv. Bu «Ulyum» antropotonimining etimologiyasi yanada chuqurroq o‘rganish va chuqur izlanishni taqozo etadi. Mahalliy aholi bu yodgorlikni «Qizlar uyi» deb ataydi.

Nazlimxon suliv Osiyoning o‘rta asrlarida Ismoil Somoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Muhammad Tekesh, Sanjar, To‘rebekxonim, Biybixonim kabilar qatorida turgan xalqimizning qadrli xotirasi.

Qoraqalpog‘iston toponimlarini o‘rgangan K.Abdimuratov o‘zining ilmiy tadqiqodida «*Nega bunday deb ataladi?»* degan savolga javob beradi. Bu borada Xo‘jayli tumanidagi tarixiy obidalari, balki u yerdan o‘tib turgan suv xavzalari, ariq, irmoq, kanallari haqida ma’lumotlar bergan: «Xo‘jayli shahridan Katta ***Suuenli***-Lenin kanali o‘tadi. Bu kanalning eski nomi Suuenli. U Taxiatoshning yonidan o‘tib, Xo‘jayli ustidan o‘tib, Qorateren ko‘liga quyilardi. Shu Suuenlining eski qopqog‘i Xo‘jaylining ustidan o‘tib turgan. *Suvli dengiz* ma’nosi o‘z-o‘zidan ravshan, aslida bu atamaning paydo bo‘lishi tasodif. Bunga baliqning ko‘pligi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Xo‘jaylida odamlar qadim zamonlardan beri baliqchilik kasbiga yaqin bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi baliqchilik bilan kun kechirardi. Xo‘jaylining g‘arbiy qismida ***Xatep*** degan katta eski japning eski anhori bor edi. **Xatep** so‘zini bugungi kunda tilimizga tushunarsizday seziladi. Aslida bu arabcha so‘z, uning ma’nosi arabcha «hotf», «xatib» so‘zlarining infinitividir.

Xatep – shiddatli daryo degan ma’nolarda bo‘lishi xalq og‘zaki qo‘shiq va she’rlarida:

«Ochilsang og‘zingni jinday,

Ko‘ksidan ko‘pik sachrasang» - aytganda, hayvon eshakdek tez, katta, g‘azablangan, kuchliroq narsa bilan tenglashtiradi. Bundan tashqari, «*xatepdagi norim eding*» degan so‘z bor. M.Qurbonov geografik atamalar qoraqalpoq tilida leksik-grammatik farqlarni o‘rganish jarayonida Xo‘jayli tumanidagi turli ob’ektlarni ifodalovchi ***Do‘sliq ko‘chasi, Xojeli tumani, Daudin atyz, Do‘ngelek atyz, Iyinagash atyz, Suuenli kanali, Yangi Jap, Shaly Jap, Oydin ko‘li, Naymanko‘l, Oqshungil, Samanko‘l, Qayir, Nodiroy, Kumavil, Tashavil, Bo‘zavil, Bo‘zjap, Ketenleroyi, Qumjikkin, Turkman so‘yilgan, Tasjap kanali, Saryshungil, Gavir aul, Oqqum, Jilli kum, Pillanoy, Bayjap, Qorako‘l*** toponimlarni misol qilib keltiradi.

Xullas, usbu toponimlar bu hududning tarixi, uni yaratgan xalqlar uchun nodir lisoniy manba vazifasini o‘taydi. Nomlardagi tarix – yashirin, niqoblangan, sehrli tarixga aylanadi. Geografik nomlarni to‘plash va o‘rganish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Resume: This article is devoted to the linguistic analysis of the geographical names of ethnotoponyms of Khojaly district, which is one of the ancient cities of the Republic of Karakalpakstan.

Резюме: Данная статья посвящена лингвистическому анализу географических названий этнотопонимов Ходжайлиского района, который является одним из древних городов Республики Каракалпакстан.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QOFIYADA RUHIY HOLAT TASVIRI

Raximova Umida,
Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Fanda R.Yakobson, E.Benvenist, A.Vejbiska kabi olimlarning axborot uzatishning lisoniy kodi haqidagi qarashlari ma'lum. Jumladan, E.Benvenist badiiy matnni avtoreferent xususiyatli deb hisoblaydi, R.Yakobson esa lisoniy kodni axborot uzatishning ichki poetik shakli deb biladi[1].Ushbudan kelib chiqib, N.A.Fateeva singari tadqiqotchilar she'riy matnni shoirning lisoniy belgiga shaxsiy munosabatidan kelib chiqib tadqiq etish zarur, deya ta'kidlaydilar[2]. Chunki shoirga matn muallifigina deb emas, so'z ustida tajriba o'tkazuvchi, tilning lisoniy-nutqiy imkoniyatlarini muttasil o'rganib boruvchi filolog-tadqiqotchi deb ham qarash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Zotan, she'riy matn misolida axborot uzatishning kodlar almashinuvini ta'minlovchi nutqiy «qofiyalashtirilgan» aktlararo ichki aloqadorlik imkoniyatini tekshirish ijodkor idiolekti orqali uning lisoniy-ijodiy layoqatiga baho berish bilan barobardir. Chunki ijodkor o'z lisoniy layoqati negizida lingvistik tadqiqotlar obyektining ko'lamini uzluksiz tarzda kengaytirib boradi.

Lingvistik poetikaning N. A. Nikolina, L. V. Zubova, K. E. Shtayn, Kim Xyun Yeun, M. R. Shumarina, D. N. Axapkin, L. L. Belskaya kabi vakillari she'r yozish jarayonini performativ faoliyat (faoliyatning o'ziga ishora beruvchi nutqiy akt)ga tenglashtiradilar. Ya'ni ijodkor she'r yoza turib, o'zi saralayotgan so'zlarning ma'nosi, tovush ifodasi, ularni matnda berish shakllari, sintaktik qurilmalar, yordamchi grammatik vositalarga katta talabchanlik bilan yondashadi hamda matnni yaratish barobarida ular ortida turgan voqelikni go'yo shaxsan «boshidan kechiradi», ulardan hayajonga tushadi, ulardan ruhlanadi, ilhomlanadi va h.k. Demak, bu yerda Y.M.Lotmanning «matn ma'noga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirmaydi, aksincha, u ishlab chiqiladi»[3] degan fikri o'zini to'la oqlaydi.

Doston matnidagi qofiyalangan nutqiy aktlar o'zida lingvo-ritorik xususiyatni namoyon etadi. Bu, odatda, murojaat (nominatsiya, o'z-o'zini tanishtirish) va dialoglar (adresat-predmet, shaxs, voqelik, hodisa), ritorik so'roqlar, savol-javobli qurilmalar bo'lishi mumkin.[4]

Ma'lumki, poetik nutqda qahramon ruhiy qiyofasi lingvistik jihatdan o'rganilmagan, dolzarb mavzu hisoblanadi. Ayniqsa, she'riy matnlarga oid tadqiqotlarda bu masalaga murojaatlar juda kam. Ularga tayanib aytish mumkinki, mavzuning faqat nasriy adabiyot misolidagi talqini she'riy asar qahramonlari ruhiyatini ochish uchun yetarli bo'lmaydi. Shunga qaramay, Hamid Olimjon dostonlarida qo'llangan qofiya xossalarini ochish barobarida ular orqali ayonlashgan doston qahramonlari ichki ruhiy manzarasiga yaqin kelib ko'ramiz.

Y.Y.Korjova badiiy qahramonlar ruhiyatini baholashning ikki tipini ajratadi:

1. Hayotiy nuqtayi nazar tavsifi – mas'uliyat, ijodkorlik va ma'naviy-axloqiy mezonlarni erkin tanlashdan iborat mavjudlikning umumiy qadriyatiy tavsifi.

2. Shaxsiyat tavsifi – inson tashqi va ichki olamini uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida[5].

Qofiya inson ruhi va qalbining so'zdagi portretiga qo'yilgan alohida chizgidir, chunki unda rassom – shoir topgan qirralarni jonlantira oluvchi, musiqiylikni tashkil etuvchi ohangdorlik jilolari mujassamlangan bo'ladi.

Y.Y.Korjova shaxsni ichki olamning markazi va tashqi olam bilan munosabatni muvofiqlashtiruvchi sifatida tushunadi. Shaxsdagi ruhiy xususiyatlar uning ma'naviy-axloqiy jihatlariga mos holda amalga oshuvchi hayotiy faolligini namoyon etadi[6].

Olimaning fikricha, badiiy ijod o'z-o'zini olamga yaxlit munosabat doirasida kashf etishdir, bunda ichki

[1] Фатеева Н. А. Поэзия как филологический дискурс. 2-э изд. – М.: Издателский Дом ЯСК: Языки славянской культуры, 2017. – С. 360.

[2] Фатеева Н. А. Поэзия как филологический дискурс. 2-э изд. – М.: Издателский Дом ЯСК: Языки славянской культуры, 2017. – С.360.

[3] Лотман Ю. М. Текст как динамическая система. Структура текста. Тезисы симпозиума. – М., 1981. – С. 104-105.

[4] Фатеева Н. А. Поэзия как филологический дискурс. 2-э изд. – М.: Издателский Дом ЯСК: Языки славянской культуры, 2017. – С.360.

[5] КоржоваЭ.Ю. Психология личности в художественной литературе. https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/100/korjova_100_77_87.pdf.

[6] Коржова Э. Ю. Психология личности: Типология теоретических моделей. – СПб.: Институт практической психологии. 2004. – С.542.

Menda yuqori darajadagi Men (ijodiy, haqiqiy, abadiy)ning ifoda topishini tushunish lozim[1]. Zero, badiiy adabiyot insonga hayot yo‘liga yaxlit nazar, turmush vaziyatlariga va xatti-harakatlarga chuqur e’tiborni aks ettiradi[2].

Jumladan, Y.A.Klimov inson to‘g‘risidagi psixologik axborot faqat psixologlar tomonidan emas, balki adiblar (yozuvchilar) tomonidan ham hosil bo‘ladi[3], deb yozadi. Biroq Y.A.Klimovning bu fikri, bizningcha, tor ahamiyatga ega xulosadir. Vaholanki, asar qahramonining psixologik portreti she’riyatda ham o‘zining munosib o‘rniga ega. Masalan,

Dahshat ichra yonib xon
Har tomon qildi farmon.
To‘xtamay dovul qoqdi,
Maydonlarga o‘t yoqdi.
O‘z holiga qilib or,
Tikib qator-qator dor,
Ko‘zlariga to‘lib qon,
Zambaraklar bo‘shatdi.
Tani zaharga botdi.
Jambil eli ko‘p zamon
To‘polon bo‘lib yotdi.
Bir g‘azab ichra joni,
Jambilning zolim xoni
Kechar elning qonida[4]. («Oygul bilan Baxtiyor»)

Parchadagi xonning psixologik portretiga e’tibor qaratamiz: bunda xonning zolim, badjahl qiyofasi, ammo bir vaqtning o‘zida o‘zidan ko‘ngli to‘lmaslik hissining qiynog‘ida ekanligi, bu yo‘lda beayb, gunohsiz aholining jonidan kechishga tayyor ekanligi *O‘z holiga qilib or, Tikib qator-qator dor* misralari orqali ayon bo‘lmoqda. *Or–dor* qofiyalari mazkur ruhiy holatning kulminatsiyasiga xizmat qilmoqda.

Kishining xatti-harakatlaridagi yovuzlik – gumrohlik va gunohga ishora bo‘lgani kabi, kun sayin shu ayblarning yuki uning o‘zini, ongini, vujudini zaharlay boshlaydi. E’tibor qilinsa, *Ko‘zlariga to‘lib qon, Zambaraklar bo‘shatdi. Tani zaharga botdi* misralari shoirning bir vaqtning o‘zida *bo‘shatdi – botdi* qofiyalari orqali «bo‘shatmoq»-«botmoq» semantik ziddiyatidan ruhiy portretni yaratishda mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi. Ya’ni moddiy olam birliklari o‘rtasidagi mohiyatning doimiy ravishda o‘rin almashinuvi, boshqacha aytganda, bo‘shliqning doimiy tarzda to‘lg‘azilib turishiga oid falsafiy haqiqatdan inson fe’l-atvoridagi qusurlarni tasvirlashda ustomonlik bilan foydalanish shoirning yuksak badiiy salohiyatiga ishora.

Xususan, er.av. V asrda yashab ijod qilgan yunon faylasufi Meliss: «Bo‘shliq umuman yo‘q narsa. Chunki bo‘shliq hech narsadir. Hech narsa esa mavjud bo‘lolmaydi»[5] g‘oyasining bu tarzdagi isboti mazkur misralarning hayotiyligini ta’minlagan. Shuningdek, *bo‘shliq* tushunchasining Jurjoniy falsafasidagi talqiniga e’tibor qilsak. Faylasuf moddiylikdan xoli bo‘lgan bo‘sh joy yo‘qligini qayd etib, «Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo‘lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo‘shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo‘lgan tushuncha yoki biror o‘lchov bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, bir-biri bilan o‘zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog‘lanib turgan narsaning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. Atrofdagi har bir dunyo, o‘zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo‘shliqning bo‘lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo‘lakchalarning tarkibiy majmuasi olam deb ataladi», – deb aytadi[6]. Demak, qonxo‘r xon obrazining rivojini belgilayotgan ushbu misralar, shuningdek, ushbu qahramon dinamikasining yuqori cho‘qqiga ko‘tarilishga asos tug‘diruvchi *Bir g‘azab ichra joni, Jambilning zolim xoni Kechar elning qonida*[7] misralarini ko‘z o‘ngimizda nochor elning qoniga tashna, berahm bir vahshiy qiyofasining gavdalanishiga sabab tug‘dirgan ijodiy topilma deb baholasak arziydi.

Qahramon ichki olamini tasvirlashda ijodkordan katta poetik mahorat, qobiliyat talab etilishi – ma’lum haqiqat. V.P.Zinchenko «Poetik antropologiya mavjudmi?» nomli kitobida[8] badiiy matnga biriktiriladigan ruhiyat tahliliga katta ahamiyat beradi hamda u orqali ijodkor ongidagi ruhiy portret modeli bilan nazariy model o‘rtasidagi o‘xshash va farqli belgilar ajratilishini qayd etadi. Ammo bu bilan olima asar qahramonini psixik jihatdan tahlil qilish usulini yagona samarador usul deb atashga shoshilmaydi, chunki ruhiyat tahlili – butunicha biologik asosdan tarkib topgan «obyektli shaxs» (V.P.Zinchenko) tipinigina aks ettira oladi. Buni «Zaynab va Omon» dostoni qahramonlari

---

[1] Мелик-Пашаев А. А. Об источнике способности человека к художественному творчеству // Вопросы психологии. 1998. № 1. – С. 76–82.

[2] Коржова Э. Ю. Психология личности: Типология теоретических моделей. – СПб.: Институт практической психологии. 2004. – С. 542 .

[3] Климов Э. А. О психологическом знании в «Предисловии» к «Вечерам на хуторе...» Н. В. Гоголя // Вопросы психологии. 2002. № 1. – С. 66–72.

[4] Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент,1979 . – Б. 107.

[5] https://e-tarix.uz/shaxslar/484-jurjoniy.html.
https://ziyouz.uz/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar-hikmati/v/.
https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/100/korjova.

[6] Зинченко В. П. Возможна ли поэтическая антропология? – М.: Изд-во РОУ, 1994. – С.44.

[7] Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент,1979 . – Б.119.

[8] Зинченко В. П. Возможна ли поэтическая антропология? – М.: Изд-во РОУ, 1994. – С. 44.

– Zaynab va uning opasi o‘rtasida kechgan konflikt vaziyat misolidagi tahlilda ko‘rib o‘tamiz. Jumladan, Zaynab – yetimlikda o‘sgan va ota-onadan begona qo‘llarda, och-nochorlikda katta bo‘lgan qiz. Shoir undagi zabun ruhiyatni nutqiy ko‘lamda voqelantirib, real hayot va ijtimoiy ruhni ichki va misra oxiridagi qofiyalarning quyidagi uyg‘unligida beradi: *Niyatingga yetkur, quloq sol. Alamlaring ketkur, quloq sol*[1]. Bunda undalma o‘rnida shakllantirilgan ijobiy ma’noli qarg‘ish ichki qofiya vazifasini o‘tagan. Aslida qarg‘ish mazmunli bu barqaror qurilma o‘zbek lingvomadaniyatida mavjud *uying bug‘doyga to‘lgur* singari ijobiy ma’noli qarg‘ishlarning muallif topilmasi. Tadqiqotchi X.B.Qodirova ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar yangi-yangi nutqiy birliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishini, siyosiy shaxslarni ham umumaxloqiy va madaniy jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaslikka urinish holatlari yangi birliklarning vujudga kelishiga yoki mavjud atov birliklarining yangi ma’no va vazifa kasb etishiga sabab bo‘lishi mumkinligini yozadi[2] hamda «Bu vositalar siyosiy-publitsistik yoki badiiy uslubda esa ma’lum tarixiy davr taqozosiga ko‘ra o‘z aksini topadi. Bunga yana yozuvchining katta ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar muhitida yaratilgan asarlari asosida amin bo‘lish mumkin» deya ta’kidlab o‘tadi[3]. Bizningcha, X.B.Qodirovaning *umumaxloqiy va madaniy jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaslikka urinish* holatlarini faqat siyosiy shaxslar bilan bog‘lashi yangi atov birliklarining hosil bo‘lishini to‘liq tushuntirishda qo‘l kelmaydi. Chunki *niyatingga yetkur, alamlaring ketkur, uying bug‘doyga to‘lgur* kabi qurilmalar ham so‘zlovchi nutqining modalligi, tinglovchining ijtimoiy maqomini hurmat qilish sababidan evfemik ma’noning verballashuviga sharoit tug‘diradi. Demak, adresat va adresantning ijtimoiy maqomi tegishli matnda yangi nominativlarning yuzaga kelishiga sabab ko‘rsatadi hamda undalma o‘rnida kelgan qofiyadosh *niyatingga yetkur, alamlaring ketkur* qurilmalarini ham H.Olimjon idiolektida o‘ziga xos novatorlik sifatida baholasa arziydi. Bu Zaynabning kechirimlilik, oqibatlilik vajidan uning sha’nini haqorat qilayotgan opasiga javobi. Bir tarafdan, qora mehnat va chorasizlik, ikkinchi tomondan chekilgan mashaqqatlardan ungan samara – insoniylik tuyg‘usining kamolotini bildiruvchi bu «qarg‘ish»lar semantikasida lirik qahramon orzusining implikaturasi namoyon bo‘lgan: o‘ziga tilaganni o‘zgaga ilinmoq hamda o‘z alamlaridan chorasizlik hissining ifodasi bir vaqtning o‘zida *niyatiga yetmoq* va *alamlarni ketkizmoq* intensiyasining ijobiy ma’nodagi qarg‘ish shaklini tanlashga zamin hozirlagan. Nutqiy vaziyatning qiziq jihati shundaki, shoir Zaynab siyratini butunlay «oppoq», gunohlardan xoli «farishta» obrazida gavdalantirish tarafdori emas. Negaki keskinlashgan manfaatlar to‘qnashuvida eng ma’sum, beozor odam ham o‘zidagi xarakter xususiyatini g‘ayriixtiyoriy tarzda namoyon etadi – bu hayotning o‘z-o‘zini himoya qilish qonuni. Binobarin, Zaynab qarshisida turgan kishining uning pinhon maqsadlariga to‘siq qo‘yishga, orzularini batamom yo‘qqa chiqarishga shay ekanini, bu yo‘lda o‘zidagi biron vaj-sabab opasi tomonidan oqlanmasligini sezadi. Shunday bo‘lsa-da, tegrasidagi odam – uning tug‘ishgan insoni ekanini unutmaydi va fikrlarini shu tarzda ifoda etadi, biroq opasining munosabatidan butkul noroziligini anglatish maqsadida qarg‘ish formasini tanlaydi. Bunda so‘zlovchi va tinglovchi shaxsining dunyoqarashi, saviyasi, ijobiy yoki salbiy obrazligi, jinsi, yoshi kabi sof lisoniy omillar bilan birgalikda nutq sharoiti va vaziyati bilan bog‘liq sotsiopragmatik omillar qahramon ruhiyatining tasviriga shundoqqina ko‘chgan:

Opa:

Benomus qiz, ayt to‘g‘risini, – (*benomus;* bundan: «ko‘nglining ixtiyoriga ko‘ra qaror qabul qiluvchi ayollarning hammasi – benomus» presuppozitiv xarakterli madaniy stereotip)

Baxti qora*! El nomusini* – (*baxti qora;* bundan: Zaynabning bu harakati oqibatini muqarrar baxtsizlik deb xulosa qilish)

Orsizlarcha *poymol etganda,* – (*orsiz*)

Zarracha es bormidi sanda*?* – (*esi yo‘q;* bundan: «sen kimsasizda ham aql bormi o‘zi?»)

Qaysi ***shayton yo‘lga boshladi****?* – (*shayton yo‘liga kirgan;* bundan «yomon yo‘lga kiribsan»)

Qay ***haromi*** o‘tga tashladi? – (h*aromi bilan sherik;* bundan: «zoti, tagi pastga o‘zini ravo ko‘rganlik» va bir vaqtning o‘zida yaqin kishisining baxtida yuqori tabaqa vakillarini sabab deb bilish – umummadaniy stereotip)

Yo‘ldan urdi qaysi bir makkor? –

Ochig‘ini so‘ylagil, ***beor****.* – (*beor* – «uyati, ori yo‘q»)

Qolib ketdik butun umrga

Va shukur kim, ***kirmadik go‘rga****.* – («butun umr sevmagan kishimizga vafo ko‘rsatyapmiz, go‘rga kirganimiz yo‘q»*;* bundan: «o‘lib qolganimizcha yo‘q»)

Sen ***sharmanda****, endi bemalol,* – (*sharmanda*)

Hammasini qilibsan poymol

Zaynab:

Sen o‘zingni baxtli dedingmi?

Opa, ***sen ham odam edingmi****?* – («sevgisiz baxtni tasavvur qilmayman»; bundan: «sevgisiz turmush – insonga xos emas»)

Qancha yaxshi, barno bo‘lsa ham,

[1] Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент,1979 . – Б.150.

[2] Қодирова Х.Б. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм / Услубий қўлланма. – Тошкент, 2013. – Б.52.

[3] Қодирова Х.Б. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм / Услубий қўлланма. – Тошкент, 2013. – Б.52.

Qancha olim, dono bo‘lsa ham,
Sobir uchun meni qiynama,
Meni o‘tga tashlama yana.
Menga yolg‘iz Omonimni qo‘y,

*Menga o‘sha **yomonimni** qo‘y*[1]. – («yor tanlashda mening o‘z talablarim bor»; bundan: «mayli, mening yaxshim seningcha «yomon» bo‘la qolsin» – adresatning fikrini hurmat qilish, uning qaroriga e’tiroz bildirmaslik, nutqiy konfliktda murosaning yashirin ifodasi)

Opa:

–Yo meni de, yoki Omonni!

– Netay, tikdim yo‘lida jonni!

*– U **pastkashning** zoti kim ekan!?* – (*pastkash,* demak, «zoti past»)

– Opa, urma qalbimga tikan.
O‘zi birdan shovillab ketdi,
O‘t singari lovillab ketdi:
*Ko‘rinmagin, **yo‘qol**, ko‘zimga,* – («keskin murosasizlik»)

***Yo‘qol**, xotin bo‘lsang ham kimga,* – («sendan voz kechdim»)

Endi mening nomimni aytma,
***Rasvolikdan** orqangga qaytma*[2]*.* – («ko‘ngling ixtiyori bilan qaror qabul qilding. Demakki, rasvosan»)

Zaynab:

Xayr, opa, kelsang o‘zingga,
Rozi bo‘lgin bergan tuzingga. – («men yaxshiligingni unutganim yo‘q»)

Buncha qarg‘ish yomon emasmi? – («qarg‘ish yaxshi emas»)

Yurgan yo‘lim balandmi-pastmi...[3]

Darhaqiqat, she’riy matn tilida muayyan ruhiy holatning norozilik, haqorat, qarg‘ish va so‘kishlar orqali ifodalanishi nutqning noadabiy (norasmiy) unsurlari matnning tinglovchiga ta’sirli bo‘lishiga olib keluvchi ekstralingvistik omillardan biri ekanini isbotlaydi.

Adabiyotshunos olim N.Karimov ta’kidlagani kabi, «Ijtimoiy taraqqiyotning muayyan davrini ifodalovchi temaning muhimligi, hayotda mavjud bo‘lgan konfliktlarning tipikligi, kishi obrazlarining xarakterliligi – bularning hammasi o‘ziga muvofiq badiiy vositalarni, asarning o‘ziga xos poetik intonatsiyasini taqozo etadi. Shuning uchun ham hayotning o‘zidagi rangbaranglik badiiy ijodda uslub hamda shakllarning boyligi va rang-barangligini belgilaydi»[4].

Resume: The depiction of the hero’s psyche requires great poetic skill and skill from the creator. Rhymed speech acts in an epic text have a linguorhetical feature. The article reveals the problem of pragmatic effect in rhyme.

Резюме: Изображение психики героя требует от творца большого поэтического мастерства и умения. Рифмованные речевые действия в эпическом тексте имеют лингвориторическую особенность. В статье раскрывается проблема прагматического эффекта в рифме.

[1] Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 2-том. Тошкент,1979 . – Б. 153.
[2] Hamid Olimjon. Ko‘rsatilgan asar. – B. 154.
[3] Hamid Olimjon. Ko‘rsatilgan asar. – B. 155.
[4] Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 156.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TARJIMA ASARLARDA QO‘LLANILGAN FRAZEMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Babadjanov Mansurbek,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Obidova Muazzamxon,
Qoraqalpoq davlat universiteti Lingvistika:o‘zbek tili 1-kurs magistranti

Lingvomadaniy belgilar birinchi navbatda tilning frazeologiya sathida namoyon bo‘ladi. Chunki leksik birliklar davr o‘tishi bilan yangilanib, o‘zgarib borishi mumkin. Biroq frazemalar til egalari ongida asrlar davomida o‘zgarmas shaklda saqlanadi. Iboralar paydo bo‘lgan davr va til egasi bo‘lgan xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda xalq tarixi, madaniyati, etnografiyasi, qadriyatlari kabi unsurlar aks etadi. Shu bois iboralar tarjimasi ancha murakkab jarayondir.

Qardosh tillar frazemalarida bir xil ma'noni anglatib, lekin leksik tarkibi boshqa-boshqa komponentlardan tuzilgan o‘ziga xos muqobillari mavjud bo‘ladi. Ularni tarjimada to‘g‘ri topib qo‘llash ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ijobiy natija beradi. Bunday frazemalarning hosil bo‘lishida xalqlarning maishiy turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ongi, madaniyati va adabiyoti muhim omillardan biri sanaladi. Shu bois, bu guruh frazemalarda o‘xshash jihatlarga nisbatan farqli tomonlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq ular uchun umumiy xususiyat ma'no muvofiqligidir. Fikrimizni asoslash uchun misollar tahliliga murojaat qilamiz.

Quyidagi matnda ***yostig‘ini quritmoq*** frazemasi ta'sirchanlikni, hissiy-bo‘yoqdorlikni oshirish maqsadida obrazli til vositasi sifatida qo‘llangan: *Qanchadan-qanchaning* ***yostig‘ini quritvotti***[1]. ***Yostig‘ini quritmoq*** frazemasi anglatgan ma'noni matn mazmunidan kelib chiqib, shunday deyish mumkin: *Butun oilasi bilan qirib yubormoq.* Ushbu matn qoraqalpoq tiliga quyidagicha tarjima qilingan: *Qanshadan-qansha* ***shañaraqtıñ tūtini ōshti***[2]. Ko‘rinadiki, frazemalar ikki tilda shaklan farq qilsa-da, mazmunan muvofiq keladi. Demak, o‘zbekcha ***yostig‘ini quritmoq*** va qoraqalpoqcha ***shañaraqtın tūtini ōshio‘*** frazemalari o‘zaro muqobil. ***Shañaraq*** so‘zi qoraqalpoq tilida qora uyning ustki (tom) qismi nomi bo‘lib, metaforik usulda ma'no ko‘chishi orqali oila ma'nosini ham ifodalaydi. Agar bu frazeologik birikmani o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilsak, *oilasining tutunini o‘chirish* ma'nosi anglashiladi. Xullas, tarjimon yozuvchining frazemadan ko‘zlagan maqsadini qoraqalpoq kitobxonlariga tushunarli tarzda etkazib bera olgan.

«O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati»da ***chuchvarani xom sanamoq*** iborasi xom xayol qilib yurmoq, xomtama bo‘lmoq ma'nolarida izohlanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ammo muallif asarda bu iboraning *chuchvarani* komponenti o‘rnida shevaga xos ***barak*** so‘zini ishlatgan. *Barak* so‘zi Xorazm va Qoraqalpog‘istonning ba'zi tumanlarida *chuchvara* so‘zi ma'nosida ovqatga nisbatan qo‘llaniladi. Xorazm viloyatida *barak* so‘zi bilan bog‘liq boshqa ovqat turi (tuxum barak) ham mavjud. Ammo muallif asardagi frazeologik birikma tarkibidagi *barak* so‘zini chuchvara ma'nosida quyidagicha shakllantirgan: - *Mirzolaring* ***barakni xom sanabdir***[3]***!***.

Mutarjim bu jumladagi iborani ham o‘ta topqirlik bilan qoraqalpoq tilining o‘ziga xos frazemasi bilan shunday tarjima qiladi: - *Mırzalarıñız* ***sanamay segiz depti***[4]***!***. Bu frazeologik birikma qoraqalpoq tilining frazeologik lug‘atlarida qo‘rsatib o‘tilmagan bo‘lsada, o‘zbek tilining frazeologik lug‘atida *aniq bilmay turib gapirmoq* ma'nosida keltirib o‘tilgan. **Sanamay sakkiz demoq** iborasi qoraqalpoq tilining og‘zaki nutqida aynan o‘zbek tilidagi ma'nosida tez-tez qo‘llaniladi. Demak, mazkur asl nusxada qo‘llanilgan ibora qoraqalpoq tilining o‘ziga xos frazemasi bilan to‘g‘ri talqin qilingan va ko‘zlangan maqsadga erishilgan.

[1] Fayziy R. Hazrati inson. – Toshkent: G.G‘ulon nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B. 100.

[2] Fayziy R. Hāzreti insan. – Hōkis: Qaraqalpaqstan, 1983. – B. 85.

[3] Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2012. –B. 237.

[4] Qodirov P. Juldızlı tünler. – Hōkis: Qaraqalpaqstan, 2012. – B. 203.

O‘zbek tilida yana ***podadan oldin chang chiqarmoq*** frazemasi ishlatiladi. Frazema *ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan ilgari gapirib yurmoq* ma’nosini bildiradi[1]. ***Podadan oldin chang ko‘tarish*** *yaramaydi*. Matndan ko‘rinadiki, frazemalar *sabrsizlik, hovliqmalik yaxshilikka olib kelmasligi* ma’nosini ifodalaydi. ***Podadan oldin chang chiqarmoq*** frazemasini tarjimon qoraqalpoq tiliga ***toydan burın nag‘ara shalıw*** muqobili bilan o‘girgan. Bu frazema o‘zbek tilining frazeologik lug‘atida ***podadan oldin chang chiqarmoq*** frazemasining sinonimi sifatida qayd etilgan.

Mutarjim tarjimada bu jumlani shunday beradi: ***Toydan burın nag‘ara shalıwdıñ*** *ne keregi bar*[2]. Ko‘rinib turibdi-ki, qoraqalpoqchada ham o‘zbekcha frazemadan anglashilgan ma’no to‘la va yorqin aks etgan hamda ko‘zlangan maqsadga erishilgan.

Asarning yana bir o‘rnida ***changini chiqarmoq*** frazemasi uchraydi. Frazema «*bir zumda eb tamom qilmoq»* ma’nosini aks ettiradi[3]. Yozuvchi bu frazemani asarda quyidagicha qo‘llagan: *Orif ota ham, Abduhafiz ham ovqat qo‘yilsa, nimaligini surishtirib o‘tirmay,* ***changini chiqarib*** *eguday och edilar*[4]. Tarjimon originaldan keltirilgan parchani quyidagicha o‘girgan: *Biraq, Qandalatbiybiniñ awqatıma kūler edi dep otırg‘an Arif atası hām, Abduxafiz hām tamaqtan* ***ōtetug‘ınday bir nārse bolsa eki jalmap bir jutatug‘ın halda edi,*** *tap usı payıtta, Arif atag‘a salsa otırajaq ta edi, biraq Abduxafiz bar bolg‘ırdan aybındı*[6]. ***Eki jalmap bir jutatug‘ın*** frazeologik birikmasi qoraqalpoq tilining frazeologik lug‘atlarida kuzatilmaydi. Ammo, bu ibora qoraqalpoq tili xalq og‘zaki ijodi namunalarida (ertaklarda) o‘zbekchadagi ma’nosida qo‘llanadi.

Changini chiqarmoq frazemasi qoraqalpoqcha ***eki jalmap bir jutıw*** muqobili ma’nosiga muvofiq keladi. Frazemalarda semantik umumiylik kasb etgan. Shu nuqtai nazardan, tarjima jarayonida ulardan foydalanish kutilgan natijani beradi. Demak, shularni hisobga olsak, bu frazemalarni muqobil frazemalar deyishga asos bo‘ladi.

Bir xil ma’noni ifodalaydigan frazemalar shakli aynan muvofiq kelsa-da, birikmaning asosini tashkil etuvchi so‘zlar boshqacha bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham asos voqelikka mos keladi. Bunday frazemalarning semantikasi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘ladi. Demak, ulardan birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash yoki tarjimada berish imkoniyati tug‘iladi. Bunday frazemalar bir-birining o‘rnini bosa oladigan muqobillardir.

Yana bir misol tahliliga nazar tashlasak: *Shularni* ***ko‘nglidan o‘tkaza turib,*** *eshik ochgan Soliya xola tong pallasida ikki yoshning sirli, totli damlariga duch kelganidan ko‘ngli yorishib ketdi*. O‘zbek tilida bu frazema *ma’lum muddat fikrlamoq* ma’nosini anglatadi. *Ko‘nglidan o‘tkazmoq* frazemasining *dilidan o‘tmoq, dilidan o‘tkazmoq, dilidan kechmoq, ko‘nglidan kechmoq, ko‘nglidan kechirmoq, ko‘ngildan kechirmoq, ko‘ngildan o‘tkazmoq* variantlari hamda *boshidan kechirmoq, boshidan kechmoq, xayoldan o‘tmoq, xayolidan o‘tkazmoq, fikridan o‘tkazmoq* sinonimlari ham mavjud. Tarjimon bu frazemani quyidagicha tarjima qilgan: *Solardı* ***yadına tūsirip*** *esik ashqan Saliya apa tañ payıtındag‘ı eki jastan sırlı, tatlı demlerine dus kelgenine quo‘anıp ketti*. Tarjimada qo‘llanilgan frazema qoraqalpoq tilining lug‘atlarida qayd etilmagan. O‘zbek tilining frazeologik lug‘atida bu frazema ***yodiga tushirmoq*** shaklida qayd etilgan bo‘lib, *esiga tushmoq* ma’nosida izohlangan. Tarjimada o‘zbek tilidagi frazema shaklan o‘zgargan tarzda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, undagi ma’no saqlangan. O‘zbek tilidagi frazema ma’nosi ma’lum darajada ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida matn mazmunini o‘zga tilga o‘girish, jumladagi so‘zlar va ularning ma’nolarini to‘g‘ri berish tarjimondan katta mehnat talab qiladi. Ayniqsa, frazemalarni noto‘g‘ri tarjima qilish matnga har tomonlama zarar etkazishi mumkin. Natijada fikrda noaniqlik, tushunmovchilikni yuzaga kelishi tabiiy.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari bir hududda yashashi, dini, madaniyati, urf-odatlari, milliy-mental xususiyatlari yaqinligi ularning tillarida, xususan, frazemalarning qo‘llanilishida ham o‘z aksini topadi va mintaqaviy frazemalarning shakllanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Rezume: The article analyzes the linguistic and cultural features of regional phrases in the Uzbek-Karakalpak literary translations.

Резюме: В статье анализируются лингвокультурные особенности региональных фраз в узбекско-каракалпакских литературных переводах.

[1] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1992. –B. 233.
[2] Fayziy R. Hāzreti insan. – Hōkis: Qaraqalpaqstan, 1983. – B. 88.
[3] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1992. –B. 290.
[4] Fayziy R. Hazrati inson. – Toshkent: G.G‘ulon nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. – B. 76.
[5] Fayziy R. Hāzreti insan. – Hōkis: Qaraqalpaqstan, 1983. – B. 50.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA MUMTOZ ADABIYOTI TARIXIDA SINKRETIZM MASALASI

Tojiyev Alimjon Muydinovich,
Andijon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlar nomzodi

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida polisemiya va omonimlar bilan bog‘liq tadqiqotlarda tilshunoslarimiz omonim so‘zlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarga keng to‘xtalib o‘tmoqdalar. Bu masalaning o‘rganilishi hozirgi kunda ham dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Demak, omonim va polisemiyalarning o‘zaro yaqinligi, farqlanuvchanlik jihatlari tilshunoslarimiz tomonidan alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qaralishi ham bejiz emas. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida bir so‘zning shakl jihatidan bir, biroq ma'no anglatishga ko‘ra turli ma'no ifodalovchi so‘zlar,san'ftlarning mavjudligi tilshunoslikdagi omonimiya va polisemiyaga yondosh hodisalar sifatida qo‘llanishi sir emas. Shuni ta'kidlab o‘tish joizki, shakli bir xil, biroq matn tarkibida turli ma'no anglatuvchi so‘zlarning qo‘llanishi nafaqat tilshunoslik, balkim adabiyotning ham o‘rganish ob'ekti hisoblanadi. Bu sinkretizm hodisasini adabiyotda ham mavjud degan xulosaga olib keladi. Adabiyotshunos Sultonmurod Olim sharq adabiyotida so‘zning shakldoshligi va ko‘pma'nolilik asosidagi badiiy san'atlar keng qo‘llanishini ta'kidlaydi. U shunday yozadi **mumtoz adabiyotda so‘zlarga zeb berish, so‘z qudratini kamoli mahorat bilan namoyish etishga intilish juda kuchli bo‘lgan. Adabiyotning darajasi, xususiyati shuni taqozo etgan. She'rga, avvalo, go‘zallik namunasi sifatida qaralgan. O‘sha badiiy topildiq shu tildagi she'riyatning mulkiga aylangan**[1]**. Biz bu o‘rinda adabiyotshunos olimning «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalining 2017-yil 1-sonidagi maqolasiga tayangan holda o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirishga harakat qilamiz.**

Bu mavzuda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilib, ilm sohiblari hukmiga havola etilgani ham ma'lum.

Shunday bo‘lsa-da, biz ushbu maqolamizda tilshunosligimiz hamda mumtoz adabiyotimiz tarixidagi omonim va polisemantik so‘zlar, shuningdek, tajnis, iyhom, ittifoq va boshqa badiiy san'atlarni tadqiqot obyekti sifatida o‘rganmoqchimiz.

Chunki omonimlarning tarixiy matnlarda qo‘llanish doirasi keng bo‘lib, asar mazmunini boyitishda turli ma'no ifodasini bergan. Shuni nazarda tutib, avvalo omonimlarning kelib chiqish sabablari, uning tarixiyligi, matnning semantik tuzilishidagi roli haqida mulohazalarni bildirmoqchimiz. Kam so‘z qo‘llab, ma'noni tugal yetkazish – masalaning bir jihati, xolos. Sharq so‘z san'atida aynan bir jumlaning ikki yo undan ortiq fikr, ya'ni ikki yo undan ortiq tagmatnni (kontekstni) yuzaga chiqarishga erishishga kuchli intilish ham bo‘lgan. Bunda o‘sha jumladagi ayrim so‘z yo so‘zlarning ko‘pma'noliligi (sinonimiyasi) yoxud shakldoshligiga (omonimiyasiga) tayanilgan. Aslida-ku, so‘z tagmatnda faqat bitta ma'noda keladi. Bu tilshunoslikda isbotlangan qonuniyat. Biroq biz ko‘zda tutayotgan badiiy hodisada bir jumla ikki yo undan ortiq tagmatn yaratadi. Bunday so‘zlarning shakldoshligi, ya'ni omonimlarga ham asoslaniladi, dedik. Lekin bir narsani aniqlab olishimiz kerak. Omonimlarni qo‘llash Sharq mumtoz badiiyatida (poetikasida) tajnis san'ati deyiladi. Biroq tajnis (ya'ni, jinsda so‘zlar qo‘llash) san'ati yuzaga chiqishi uchun omonim so‘z kamida ikki bor ishlatilishi kerak. Agar o‘sha omonim so‘z bir bor qo‘llansa-yu, ikki ma'noni anglatib, ikki tagmatnni yuzaga keltirsa, u tajnis hisoblanmaydi[2].

Tilshunoslik, jumladan, turkiy tilshunoslik tarixida polisemantik va omonim so‘zlarning o‘zaro bir-biriga yaqinligi va farqlanuvchanligi haqidagi qarashlar hozirgi kunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan tilshunoslarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topmoqda. Albatta, bunday holat o‘zbek tilshunosligi hamda adabiyotshunosligiga ham taalluqli hisoblanadi. Biz nazarda tutayotgan omonimik, polisemik til hodisalari va mumtoz adabiyotimizda faol qo‘llanib kelayotgan shakldosh so‘zning bir necha ma'noni ifodalay oluvchi tajnis, iyhom, ittifoq va boshqa san'atlari tishunoslik hamda adabiyotshunoslikda sinkretizm tushunchasining aynan o‘zidir. Bu o‘rinda aytib o‘tishimiz joizki, o‘zbek mumtoz adabiyotida Sulton-

[1] Султонмурод Олим. Сўзнинг шаклдошлиги ва кўпмаънолигига асосланган бадиий санъатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №1. –Б.16.

[2] Султонмурод Олим. Сўзнинг шаклдошлиги ва кўпмаънолигига асосланган бадиий санъатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №1. – Б.18.

murod Olim ta'riflab o'tgan iyhom, lutf, ittifoq, tavjih, tadbij, mutazzalzim[1] singari san'atlar badiiy matn mazmunini yoritib berishda o'ziga xos muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, bu san'atlar badiiy asarlarning lingvopoetik, kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Olimning fikrlaridan ayon bo'ladiki: «So'zlarning ko'pma'noliligi va shakldoshligiga asoslangan san'atlarni bir joyga jamlab olishning boshqa muhim jihati ham bor. Aslida, bu san'atlarning har biri talay o'ziga xosliklarga ega. Shuning uchun ham ular mumtoz badiiyat ilmida alohida-alohida badiiy vosita sifatida o'rganilgan»[2]. Gap shundaki, keltirilgan barcha san'atlarda sinkretizm mavjud bo'lib, tilning jozibador tabiatini namoyish etadi.

Bu masalani yoritishda o'zbek tilshunosligi tarixining zukko bilimdonlari S.Mutallibov, E.Fozilov, A.G'ulomov, A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, A.Muxtorov, J.Sanaqulov, B.O'rinboyev, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov va boshqalarning xizmatlari katta bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Ayniqsa, S.Mutallibov M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari misolida turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida omonimlarning qadimiyligi va matn tarkibida turli ma'nolar ifodalashini yoritib berishi tilshunosligimiz tarixida katta voqea bo'ldi.

Muallifning «Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk» o'quv qo'llanmasi tarixan omonim va polisemantik so'zlarni o'xshash va farqlanishini ochib bergan qimmatli tadqiqot hisoblanadi. Gap shundaki, M.Koshg'ariy asarda ko'p ma'noli so'z bilan omonim so'zlarni umumiy tarzda ifodalaydi. S.Mutallibov esa asardagi ko'p ma'noli so'z bilan omonimik so'zlarni ajratadi. Bu o'rinda M.Mirtojiev shunday fikr beradi: «So'z shakli leksikografiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Mahmud Koshg'ariy lug'atiga e'tibor berish mumkin. Lekin ko'p ma'noli (polisemantik) so'z bilan shakldosh so'z (omonimiya)larni o'zaro ajratmagan. Ularni tilning bir fakti sifatida qaragan. Mahmud Koshg'ariy har bir ma'no asosida uning qanday fonetik tarkibiga ega bo'lishidan qat'i nazar, bir so'z mavjud deb hisoblaydi.»[3]

S.Mutalibov M.Koshgariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi omonim so'zlarning ma'lum bir qismini tahlil doirasiga tortadi. Asardagi turli narsalar, o'simliklar, hayvonlar bilan bog'langan so'zlar orasidagi omonimik xususiyatlarga e'tibor qaratadi. Ot+fe'l, ot+sifat va boshqa tipdagi so'zlarning ma'nolarini izohlaydi. Jumladan, o't so'zining bir necha ma'nolarini tahlil etadi.

U «O't so'zining o'simlik, quruq hashak, davo va zahar singari to'rt xil ma'noda ishlatilganini aytadi. Hozirgi o't so'zi o'tmoq fe'lining o'zagi kabi yangi ma'no bilan boyigan», degan fikrni beradi.

O't-maysa, o't-inson ta'na a'zolarning bir qismi, o't-harakat qilmoq ma'nosida. O't-olov so'ziga aniqlik kiritmaydi. Tarixan boshqa o'zakdan shakllanganini qayd etadi.

Demak, o't so'zining ikki ot-fe'l tipida ishlatilishi omonimning sinkretizm bilan tarixan aloqadorligini anglatadi.

Olim M.Koshg'ariy ta'kidlagandek, o't so'zining aslini o'rt tarzida ifodalashini o't maysa o'zagi emasligini keltiradi[4].

A.Nurmonov M.Koshg'ariyning lingvistik qarashlariga to'xtalib shunday yozadi. U leksik omonimlarni shakliy o'xshash bo'lgan bir necha so'z sifatida e'tirof etadi. Shuning uchun bunday so'zlarni alohida maqola tarzida beradi va izohlaydi. Masalan, o't, o'simlik: o't undi; hayvonlar yeydigan har turli o't, hashak: Atqa o't bergil; dori, davo: o't indim «dori ichdim»; og'u, zahar: Bek angar o't berdi (Bek unga zahar berdi).

Omonimik paradigma tarkibiga kirgan keyingi ikki leksemaning, ayni paytda, ma'noni zidlash asosida biridan ikkinchisi kelib chiqqanini ta'kidlaydi (DLT. II tom. 20-bet)[5].

Omonimiya masalasi taniqli tilshunos Faxri Kamol ilmiy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Jumladan, u o'zbek mumtoz adabiyoti vakillarining she'rlarida omonim so'zlarning qanday ishlatilgani va omonimlar she'rning semantik tuzilishida turli ma'no voqelantirishini ko'rsatib o'tadi.

U she'rdagi quyidagi misralar orqali omonimlarning she'r mazmuniga turli ma'no kasb etganiga alohida e'tibor qaratadi:

*Chun pariyu hurdir **oting** begim,*
*Sur'at ichra devdir **oting** begim.*
Har hadanggikim, ulus andin bosar,
*Notavon jonim sari **oting** begim.*

Olim she'r tahlilida shunday izoh beradi: «She'rning birinchi va ikkinchi misralaridagi ot so'zi turdosh ot kategoriyasiga mansub bo'lib, birinchi misrada nom, nom ma'nosida, ikkinchi misrada – hayvonning bir turi – xo'jalikda ishlatiladigan va miniladigan ma'lum jonivor ma'nosida keltirilgan. So'nggi misralarda esa ot buyruq fe'lining tinglovchi, birlik formasini bildiradi va u hurmat ma'nosida ishlatilgan»[6].

Keltirilgan she'riy matn hamda olimning tahlilidan matn tarkibidagi ***oting*** so'zi sinkretik tabiatga ega.

[1] O'sha maqola. – B.19-20.

[2] O'sha maqola. – B.23.

[3] Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омонимия масалалари. – Тошкент: Фан, 2014. – Б.4.

[4] Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қичқача очерк. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси, 1959. – Б.169.

[5] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 259.

[6] Фахри Камол. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1953. – Б.27.

Chunki omonimlar bilan sikretizm doimo yonma-yon turadigan nutqiy hodisalar hisoblanadi. ***Oting*** so‘zi bir she’rda uch joyda takrorlanib kelib, uch ma’noni ifodalab misralardagi ma’nolarning o‘ziga xos tomonlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tilshunos A.Navoiyning «Muhokamatul lug‘atayn» asarining tahlilida ulug‘ shoir omonim so‘zlarga lingvist sifatida ta’rif berishiga, e’tibor qaratadi.

Olim bunga quyidagicha baho beradi: «Omonimlarning shu xil boy ma’no xususiyatlarini o‘z davrida Alisher Navoiy ham qayd qilib o‘tgan edi. Navoiy o‘zining «Muhokamatul lug‘atayn» nomli asarida: tush, yon, bor, sog‘in, tuz, ko‘k kabi omonimlarning ma’no xususiyatlarini alohida-alohida ko‘rsatib o‘tdi»[1].

Ma’lumki, Alisher Navoiy tuyuq janrida sermahsul ijod qilgan. Tilshunoslikdagi omonim hodisasi adabiyotda «tuyuq» termini bilan ifodalanadi. Shu o’rinda aytish joiski,Lutfiy,Navoiy,Bobur va boshqa shoirlar o’z tuyuq(q)larida,tajnis(q)larida omonimlardan ustalik bilan foydalanganlar.[2]

Masalan:

Olmani sundi nigorim –***ol!*** –dedi,
Olma birla bu ko‘ngilni ***ol!*** –dedi;
So‘rdim ersa olmasining rangini,
Ne so‘rarsen? Olma rangi –***ol*** –dedi.

Keltirilgan misralarda ***ol*** so‘zi uch joyda takrorlanib to‘rtlikka rang-baranglik kiritgan. Uch joyda uch xil ma’no ifodasini bergan. Birinchi misrada fe’l so‘z turkumi, buyruq ma’nosini, ikkinchi misrada ham fe’l – xushlamoq («ko‘ngilni» oti bilan birikmali holda) ma’no ifodalamoqda.

Uchinchi misrada ***qizil*** so‘zi ma’nosida (sifat). Bu so‘z tarixiy manbalarda qizil ma’nosi bildirishi ta’kidlanadi.

Keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, bunda omonimlarning semantik taraqqiyoti, uning sinkretik tabiati ochiladi. Keltirilgan misralarda leksik konversiya hodisasi natijasida ***ol*** so‘zining fe’l bilan bog‘liq ikki ma’nosi ifodalanadi. Fe’lning ikkinchi misrada sifat so‘z turkumiga ko‘chishi yuz beradi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida tuyuqlar orqali ajoyib so‘z o‘yinlari yatratgan shoir Lutfiydir. Lutfiy tuyuqlarida o‘zbek tilining omonim va polisemantik so‘zlaridan keng foydalanib, chiroyli so‘z o‘yinlarini yaratdi.

Ko‘nglima har yonki, boqsam, dog‘i bor,
Har necha dardimni desam, dog‘i bor.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo‘ldi firoqing dag‘i bor.

Bu tuyuqdagi dog‘i so‘zi birinchi misrada «*yara*», ikkinchi misrada *«yana, tag‘in»* va uchinchi misrada «*tog‘»* ma’nosida keladi[3]. Anglashiladiki, *dog‘i* so‘zi omonim so‘z sifatida ikki joyda ot so‘z turkumi *yara, tog‘* va yuklama *yana, tag‘in* ifodalanib semantik sinkretizmni yuzaga chiqarmoqda.

Mumtoz adabiyot namunalarida omonim (tuyuq) lar ifodalanishi Navoiydan keyingi ijodkorlarning asarlarida ham yaratilgan. Bu xalq og‘zaki ijodida ham uchraydi.

Masalan:

Qo‘lingdan kelganicha chiqar ***yaxshi ot,***
Yaxshilik qil, bolam, ***yomonlikni ot,***
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg‘iz yursa chang chiqarmas ***yaxshi ot.***

Ot so‘zi uch o‘rinda qo‘llanilib, uch ma’noni ifodalaydi. Ot so‘zining birinchi ma’nosi nom, shuhrat, dong taratishni ifodalab ot so‘z turkumini; ikkinchi misrada fe’l – tark etmasa, tashlamoq; uchinchi misrada hayvon nomi – ot so‘z turkumini anglatadi. Bu misralardagi ot so‘zi ot-fe’l tipida sinkretizmni ifodalaydi.

Z.M.Bobur Navoiydan keyin tuyuq janri bo‘yicha mukammal ijod qila olgan iste’dod egasi edi. U Amiriy, Lutfiy va Navoiy singari usta tuyuqchi sifatida ham shuhrat qozondi. U omonim va polisemantik so‘zlardan hamda so‘z o‘yinlaridan ustalik bilan foydalanib, yangi orginal tuyuqlar yaratdi.

Ulki har ko‘zi g‘izoli Chindurur, (Chin-Xitoy)
Qoshida payvasta oning chindurur, (chin – peshana tirishi)
Chunki ko‘p yolg‘on aytti ul manga,
Gar desam yolg‘onchi oni chindurur. (chin – rost)[4]

Keltirilgan birinchi misrada Chin mamlakat bo‘lib ot so‘z turkumi *qaer?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ikkinchi misrada chin – peshona tirishi ot so‘z turkumi *nimaning? qaerning?* so‘roqlariga javob bo‘lib keladi. Uchinchi misrada chin – rost sifat so‘z turkumi *qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Anglashiladiki, bir so‘z tuyuqda uch joyda qo‘llanib omonim bajargan vazifani bajarib kelmoqda va turli ma’nolarni ifodalamoqda. Ot+sifat ko‘rinishida sinkretizm voqelanmoqda. Shuningdek, ikkinchi misrada so‘roqni ikki xil bo‘lishi ham sinkretizmga xos belgi hisoblanadi.

S.Mutalibovning fikricha, ko‘p ma’noli so‘zlar va omonimlar XI asrda ancha keng tarqalgan so‘zlardir. Bu so‘zlardan yozuvchilar u davrda ham so‘z o‘yinidan foydalanganlar. Qarshi so‘zining saroy va teskari kabi mazmunidan XI asrning didaktik dostoni «Qutadg‘u bilig»da quyidagicha ifodalangan.

Bu beklar evi odi ***qarshi*** turur
Bu qarshi ichindagi ***qarshi*** turur.

XI asr yodgorliklari ustida tekshirishlar u davr

[1] Ўша асар. – Б.28.

[2] Адабиётшунослик терминлари луғати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 148.

[3] Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омонимия масалалари. – Тошкент: Фан, 2014. – Б.8.

[4] Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 591.

so‘zlarida bu xususiyat eski hodisa ekanidan XI asr tilida ancha keng tarqalganligidan xabar beradi[1].

S.Mutalibovning yuqorida keltirgan gapidagi **u davrda so‘zlarining bu xususiyati eski hodisa ekani jumlasi, turkiy tillar,** jumladan, o‘zbek tilida ham ko‘p ma’nolilik va omonimiya hodisalari Yusuf Xos Hojib yashagan XI asrdan avval ham mavjud bo‘lgan xulosasini beradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tilimizdagi omonimiya va polisemiya bilan sinkretizm genetik bog‘liq birga taraqqiy etib kelgan hodisalar hisoblanadi.

Omonim so‘zlar qadimgi yodgorliklar tilida yangi ma’no va mazmunni ifodalashida keng tarqalgan deyish uchun asos bo‘ladi.

Demak, omonim so‘zlar tabiatdan sinkretizm bilan genetik bog‘liq, tarixan rivojlangan, o‘zagi bir hodisalar hisoblanadi.

Resume: This article examines the history of Uzbek linguistics, as well as homonymous and polysemantic words used in classical literature, tuyuk, tazhnis, iikhom, ittifok and other artistic arts. Using examples of literary texts, the reasons for syncretism in homonymy and polysemy in the history of Uzbek linguistics are revealed. The development of homonyms in the history of the Uzbek language in connection with syncretism is substantiated.

Резюме: В данной статье рассматривается история узбекского языкознания, а также омонимичные и многозначные слова, используемые в классической литературе, туюке, тажнисе, ийхоме, иттифоке и других художественных искусствах. На примерах художественных текстов раскрываются причины синкретизма в омонимии и многозначности в истории узбекского языкознания. Обосновано развитие омонимов в истории узбекского языка в связи с синкретизмом.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALISHER NAVOIY NASRIY ASARLARIDAGI PERIFRAZALARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Kadirova Zaynura Zaynidinovna,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kaferdasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ma’lumki, o‘zbek tili turkiy tilning tarixan taraqqiy etgan bir shakli sanaladi. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti masalalarini belgilashda XVIII asr oxiri va XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan eski o‘zbek tili deb ataluvchi davrning tili ahamiyatli ekanligi e’tirof etiladi[2]. Bu qarash va fikrlarning nechog‘li ahamiyatli ekanligi mumtoz manbalarni o‘rganish va tadqiq etish chog‘ida yanada oydinlashadi. Har bir tilning mukammal tadqiqini sinxron va diaxron aspektda tekshirishgina ko‘zlagan natija va to‘g‘ri nazariyalarning tug‘ilishiga yordam berishi mumkin. Eski o‘zbek tili manbalarining tadqiqi nafaqat o‘zbek tilshunoslari balki, boshqa til egalarida ham qiziqishning kuchayganligini o‘sha davrda yaratilgan asarlardan bilish mumkin. Ya’ni XX o‘rtalaridan boshlab eski o‘zbek tili fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi tadqiq etildi va salmoqli ishlar yaratildi. O‘zbek tilining tarixiy tadqiqi bo‘yicha rus turkologlari A.N.Samoylovich, A.K. Borovkov, A.M.Shcherbaklarning ishlari diqqatga sazovor. A.N.Samoylovich Lutfiy, Atoyi, Amiriy, Navoiy, Bobur kabi o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari asarlariga doir chuqur ilmiy lingvistik va tekstologik tadqiqot ishlarini e’lon qilgan bo‘lsa, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda A.K.Borovkovning xizmatlari benihoya katta. Uning Ahmad Yassaviy hikmatlari, «Tafsir»

[1] Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қичқача очерк. – Т.: Ўзбекистон фанлар академияси, 1959. – Б.170.

[2] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б.11.

asari, Alisher Navoiy asarlarining tili[1], bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari o‘zbek tili tarixi bo‘yicha tadqiq qilingan ishlarning salmoqli qismini tashkil etadi[2].

Eski o‘zbek tili sintaktik qurilishi bo‘yicha dastlabki fikrlarni rus turkologi A.M.Shcherbak (1963) ishlarida kuzatishimiz mumkin. O‘zbek olimlaridan G‘.Abdurahmonov (1960), Sh.Shukurov (1963), A.Rustamov (1966), A.Matg‘oziev (1966), M.Rahmonov (1971), X.Nazarova (1979) kabi olimlarning mumtoz sintaksis sohasida olib borgan tadqiqotlari ham diqqatga sazovor. Ular yaratgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar bugungi kunda ham o‘zining amaliy qimmatini yo‘qotgan emas[3].

Manbalar bilan tanishish davomida Alisher Navoiyning nasriy asarlarida so‘z birikmasi qolipida, shu bilan bir qatorda gap qolipidagi perifrazalarning ham shakllantirilganligi ko‘zga tashlandi.

Gap aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi. So‘z birikmalarini o‘rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas[4]. Navoiy nasrida qo‘llanilgan perifrazalarda birikma qolipidagi: *ollohning do‘sti, nur-ul haq vad-din, shayx ul islomiy, ustodi fan* hamda gap qolipiga teng bo‘lgan: *tariqat elining muqtado va imomi, xushovozlikda Zuhraning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhavzosi* kabi birliklarning ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Ilmiy manbalarda so‘z birikmasiga ham nutqiy hodisa sifatida ham lisoniy hodisa sifatida baho berish va tekshirish kerakligi aytib o‘tiladi[5]. Birdan ortiq mustaqil so‘zdan tarkib topgan, a’zolarning ma’noviy va grammatik jihatdan mosligiga ega bo‘lgan, hokim va tobelik munosabati asosida shakllangan, tushuncha ifodalash vazifasini bajaruvchi birlik so‘z birikmasi deyiladi[6]. So‘z birikmasi tuzilish va mazmun jihatidan so‘z hamda turg‘un birikmadan tubdan farq qiladi. So‘z bir tushunchani ifodalaydi, so‘z birikmasida esa birdan ortiq tushuncha mazmuni berilishi mumkin. So‘z birikmasining tarkibiy qismlari alohida holda mustaqil mazmunga ega bo‘ladi, ya’ni birikma tarkibidagi so‘zlarni o‘zgartirish va shu asosda yangi mazmundagi birikmalarni hosil qilish imkoni mavjud, turg‘un birikma esa yaxlit holatda bir tushunchanigina ifodalaydi. Mazmunan bir so‘zga teng bo‘lgan til hodisasi turg‘un birikma sanaladi. Shu xususiyatga ega bo‘lishiga qaramay, turg‘un birikmalarni ham bir tarkibli yoki ko‘p tarkibli, birikma qolipidagi hamda gap qolipidagi kabi turlarga bo‘linib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. So‘z birikmasining bitishuv, moslashuv, boshqaruvli bog‘lanish usullari, quyida biz tahlilga olib kirmoqchi bo‘lgan Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi perifrazalarning hosil bo‘lishida ham ishtirok etgan.

Bitishuvli birikma qolipida – ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’noli so‘z mazmun va ohang jihatiga ko‘ra hokim tobelik munosabatiga kirishadi. Masalan,

Shaxzodai behamto: aybsiz, mukammal shahzoda. «Ul vaqtdakim, shahzodai behamto Kichik mirzo toba sarohu zolli muzillii xatoko‘sh, devonai sinh ro‘i siyahpo‘shqa yo‘luqmaydur erdi[7];

***Mo‘taqidi eshon*:** e’tiqodli, ixlosli eshon. Dar ta’rixi sanai ehdo va samonina va samona mia muhibbi darveshon va mo‘taqidi eshon, az himai shug‘l ser va bar faqr daler Amir Nizomiddin[8];

***Shayx ul-islomiy*:** islom dinidagi eng yuqori unvon, daraja. Chun Hazratn Mahdumiy Shayx ul-islomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon il-Jomiy (qaddasallohu ruhuhu)din bir yil so‘ngra Pahlavon hamul Hazratning payravlig‘ig‘a[9];

***Xavos ishqi*:** xosiyatlar, xossalar ishqi. «Xavoss ishqidurkim, xavoss ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq[10];

***Amri azim*:** buyuk ish. Yana bir amri azim exsondurkim, aning bayonida ko‘p so‘z ayondur[11];

***Yog‘insiz sahob*:** yomg‘irsiz bulut. Xayrsiz g‘aniy - yog‘insiz sahob va amalsiz olim - dobbaki anga yuklagaylar kitob[12].

***Amalsiz olim*:** ilmi bo‘lsa ham atrofidagilarga naf keltirmaydigan, bilganlariga amal qilmaydigan olim. Amalsiz olim - dobbaki anga yuklagaylar kitob[13];

Jodaedur tuz: to‘g‘ri tartib, qoida, nizom. Shariat - jodaedur tuz, anda xoh kecha yuru, xoh kunduz[14];

---

[1] Боровков А.К. Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка //Алишер Навои. Сборник статьей под ред. чл.-корр. –М: 1946. – С. 92-121.

[2] Шукуров Ш. Ўзбек тили тарихининг ўрганилишига доир // Ўзбек тили ва адабиѐти. –Тошкент: 1982 №5. –Б. 36-41.

[3] Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчисининг синтактик-семантик хусусиятлари. – Тошкент: 2012. – Б.8.

[4] Sayfullayeva R.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.. Toshkent: 2010. – B. 407.

[5] O‘sha manba. – B. 454.

[6] O‘sha manba. – B. 436.

[7] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Хамсат ул-мутаҳаййирин.– Тошкент: Фан,1999. – Б.44.

[8] O‘sha manba. – Б.60.

[9] O‘sha manba. – Б.148.

[10] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул қулуб.– Тошкент: Фан,1998. – Б.66.

[11] O‘sha manba.. – Б.76.

[12] O‘sha manba. – Б.90.

[13] O‘sha manba. – Б.90.

[14] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул қулуб. – Тошкент: Фан,1998. – Б.101

Suvluq buloq: suvli buloq. Yoshlig‘ ko‘z suvluq bulog‘[1].

***Shu’lalig‘ charog‘*:** yonib, shu’lalanib turgan chiroq. Dardlig‘ ko‘ngul - shu’lalig‘ charog‘[2];

***Muhlik havosi, qotil suyi*:** o‘ldiruvchi, halok qiluvchi havo, maftun qiluvchi, jabt ko‘rsatuvchi suv. Muhlik havosi Masiho dami va qotil suyi Xizr chashmasining nami[3];

Turkigo‘y shuaro: turkiy tilda ijod qiluvchi shoirlar. Va turkigo‘y shuarodin Mavlono Lutfiy she’rlaridin abyot o‘qurlar erdi va bu matlain ta’rif qilurlar edikim[4].

2.**Moslashuvli birikma qolipida –** so‘z birikmasining ikki tomonlama grammatik shakllangan turi bo‘lib, bunda tobe a’zo hokim a’zoga muvofiq egalik shaklini, hokim a’zo tobe a’zoga muvofiq ravishda qaratqich yoki bosh kelishik shaklini oladi[5]. Masalan,

***Nur ul-haq vad-din*:** haqiqat va dinning nuri. Oliy hazrati valoyat manqibati koshifi asrori rabboniy va olimi rumuz va asrori samadoniy al-ulamo varsah al-anbiyo qismat koxida ilmi o‘n olamcha erkanlardin iztiror ortuqroq taraka olg‘on va ulamo ummatiga k-anbiyoyi isroil komida yuz yigirma to‘rt ming harif arosida o‘zini tariqat elining muqtado va imomi, sharif xaylining mujtahid va shayx ul-islomi, ya’ni Nur ulhaq vad-din[6];

***Ustodi fan*:** ilmlarning, fanlarning ustozi. Bir kun bu faqirni muammo fikri bu vodiyg‘a solib erdikim andin berikim, ustodi fan Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy (rahmatullohi) bu fanni tadvin qilib, bu fan ahlining otin tirguzdi[7];

***Shayxul-mashoyix*:** shayxlarning shayxi. Diniy unvon. Yana hazrati shayx ul-mashoyix Faxr ul-millati vad-din Iroqiyning «Lamaot» idurkim[8];

***Fano tangnoyi*:** foniylikning qiyin, tor yo‘li. Bu fano tangnoyidin baqo gulshani fazosig‘a xirom ko‘rguzdi va ul Hazratning Pahlavon bila benihoyat iltifotlari va behaddu g‘oyat maxsus muloyamat va holatlari bor erdi, favtining ta’rixi g‘arib uslub bila voqe’ bo‘lubdurkim, favtlarning ta’rixi bo‘lur[9];

***Shuaro so‘zning varaqnigori*:** shoirlar so‘zlarini qog‘ozga teruvchi. Kotiblarga nisbatan qo‘llanilgan. Kotib shuaro so‘zining varaqnigoridur va so‘z maxzanining xazonadori. Xozin hunari amonat bo‘lur va tasarrufi xiyonat bo‘lur[10].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rishimiz mumkinki, perifrazani hosil qiluvchi birliklarning asosiy qismi moslashuv va bitishuv usulida hosil qilingan bo‘lib, boshqaruv usulida birikma hosil qilingan perifrazalar A.Navoiyning nasriy asarlarni o‘rganish chog‘ida topilmadi.

Gap – kishilarning bir-biriga fikr, axborot uzatish uchun ishlatadigan asosiy birlik, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko‘rinishi. U so‘zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi. Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi[11]. Ma’lumki, gapning asosini predikat tashkil qilar ekan va gapning butun tavsifi predikativlik belgilarini olgan predikatlarga qarab belgilanar ekan, u gapning eng muhim grammatik-semantik markazi sanaladi[12]. Shu jihati bilan ham gap so‘z birikmasidan ajralib turadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek perifrazalar ham so‘z birikmasi ham gap qolipi asosida shakllanishi mumkin. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida qo‘llanilgan perifrazalarni gap qolipi asosida tahlil qilishda aynan uning mazmuniy tugallik hosil qilishi va fikr ifodalash xususiyatiga tayanishimiz ma’qul bo‘ladi. Shuni ta’kidlab o‘tish ham kerakki, shoir nasrida qo‘llanilgan perifrazalar tahlili chog‘ida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra darak gap turi qo‘llanilganligi, tuzilishiga ko‘ra esa ham sodda, ham qo‘shma gap qolipidan samarali foydalanilgani ma’lum bo‘ldi.

O‘zbek tilida gap quyidagi jihatlariga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi.

1. Predikativ markazlarning miqdoriga ko‘ra: sodda gap, qo‘shma gap.

2. Bosh bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra: bir bosh bo‘lakli, ikki bosh bo‘lakli.

3. Ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra: to‘liq gap, to‘liqsiz gap.

4. Bo‘laklarga bo‘linish - bo‘linmasligiga ko‘ra: bo‘laklarga bo‘linadigan gaplar, bo‘laklarga bo‘linmaydigan gaplar[13].

Shoirning nasriy asarlari asosida perifrazalarning gap qolipidagi shakllanishi o‘rganilganda sodda gap qolipidagi ko‘rinishlari mavjudligi aniqlandi. Quyida gap qolipidagi perifrazalardan misol keltirish asosida

---

[1] O‘sha manba.– Б.125

[2] O‘sha manba.. – Б.125

[3] O‘sha manba.. – Б. 152.

[4] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Тошкент: Фан, 1999. – Б.115

[5] Sayfullayeva R.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.. – Toshkent: 2010. - B. 442.

[6] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Хамсат ул-мутаҳаййирин..– Тошкент: Фан,1999. – Б.3

[7] O‘sha manba. – Б.69.

[8] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер– Тошкент: Фан, 1999. – Б.124.

[9] O’sha manba. – Б. 148.

[10] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд.Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан,1998. – Б.23.

[11] Sayfullayeva R.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.. – Toshkent: 2010. – B. 464.

[12] Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчисининг синтактик-семантик хусусиятлари. – Тошкент: 2012. – Б. 28.

[13] Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek tili. - Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – B. 163.

tahlilni amalga oshirishga harakat qilamiz.

O‘zbek tili ilmiy uslubini monografik yo‘nalishda tadqiq etgan M.Mukarramov quyidagilarni ta’kidlaydi: «Ilmiy nutqning monologik xarakterda tuzilishi to‘liqsiz gaplarning qisman chegaralangan holda qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Ilmiy fikrning mantiqiy tugal bo‘lishi sodda gaplarga qaraganda qo‘shma gaplarning ko‘p qo‘llanishiga, murakkab sintaktik konstruksiya va oborotlarning keng ishlatilishiga, sodda gaplar asosan yoyiq konstruksiyalardan tuzilishiga, qo‘shma gaplar bog‘lovchilar va intonatsiya bilan bog‘lanishiga olib keladi[1]».

Bitta grammatik asosga ko‘ra bir fikr va his-hayajonni ifodalovchi sodda gap[2] qolipidagi perifrazalar Navoiy nasrida asosiy foizni tashkil qiladi. Tahlil markaziga olib kirilgan asarlar tarkibidagi gap qolipli perifrazalarni ketma-ketlikda berib o‘tishga harakat qilamiz. Ya’ni «Xamsat ul - mutaxayyirin» asarida ***tasavvur va anoniyat umurining xudroyi, tariqat elining muqtado va imomi, sharif xaylining mujtahid va shayx ul-islomi, muqarrabi hazrati boriy, samonina va samona mia muhibbi darveshon, dag‘dag‘ai sobiq samti taqviyat, umr avositida voqe’ bo‘lg‘on bade’ nukotdur, maoniy nodiralari nazm silkiga kiribtur, tufuliyatda rangin nazmning g‘arobati bor, «Haft avrang»ning yettinchi daftaridur; dev bila, shayotindin mutavallad bo‘lg‘on o‘g‘ul; base fazoili hamida bila orostadur*** kabilar. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarida ***qutbi doirai haqiqat, murshidi ahli shariat, zaynul millat vad-din; olimil - murshidi tavofil, Hiroq xalqining o‘z davrida yagonasi va nodirasi.*** «Holoti Pahlavon Muhammad»da ***surat va ma’nida beshabih va benazir, suhabatning mujibi nishot va inbisoti, fununda ahli fandek mohir.*** «Mahbub ul - qulub»**da** ***nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari, sharif haylining sardaftari, sarxayli valoyat bahrining gavhari, karomat avji munir axtari, g‘avvosi bahri yaqin, ma’no ahli so‘z pardozchisi, ishq ahlining chin va sadoqatli oshig‘i, tasavvuf va diqqat mushkilotining girihkushoyi, tasavvufda noziklik va mushkullik chigalini yechuvchi, avvalg‘i tabaqa ravishi kamolida ham sharifmaqol, so‘z maxzanining xazonadori, ishq ko‘histoni bedodining noshodlaridin biri, ishq tog‘i zulmning g‘amnoklaridan biri, sahroyi junun zabunlaridin biri, nazm beshasining g‘azanfari, dardu ishq otashkadasining samandari, zavqu hol vodiysining pokravi, insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari, odamiylik konining arjumandroq gavhari, tiriklikda yaxshi otdur, o‘lgandan so‘ng do‘zax azobidin najot, insoniyat bog‘ining barvar shajari, kishvarning bahri gavhari, mavj bahrining samni gavhari, inson vujudining favoqihlig‘ bog‘i, odamiylig‘ olamining javohirlig‘ tog‘i, boqiy hayot mujibi baqo, mulk badanining jonidur, ma’rifat bog‘idin va vahdat rayohining esgan nasimi, ruhoniyat gulistonidin oshnoliq gullarining shamimi, husn malohatin idrok qiluvchi, ishq o‘ti yolinig‘a yoqilg‘uvchi, xo‘blar husni tuzig‘a kaboblig‘ qilg‘uvchi, badan mulkining sultoni, jamol latofati ganjig‘a xaroblig‘ qiluvchi, ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig‘a manba’, ahli shaqovatlar nahs qavqabig‘a matla’, ko‘ngil maxzanining qulfi, umr gulshanining bahori, shabob mayining maxmurlug‘i, yigitlik sihhatining ranjurlig‘i, solikning atvoriga andom berguvchi, ko‘ngulning-har sarihavo qilurig‘a orom berguvchi, musofirni manozillaridin boxabar qilg‘uvchi, marohilg‘a rahbar qilg‘uchi, issiq-sovuqdin jong‘a intiboh berguvchi, achchiq–chuchukdin ko‘ngulni ogoh qilg‘uchi.*** Alisher Navoiyning xatlar jamlanmasidan tarkib topgan «Munshaot»da ***saodat burjining quyoshi, talab daryosining maqsud gavhari, bodai shavqining durdi, murodi safinasining debochasi*** kabi sodda gap qolipidagi perifrazalar qo‘llanilgan.

Shu bilan birga ayrim o‘rinlarda bog‘langan qo‘shma gap qolipidagi perifrazalarni ham uchratish mumkin: ***unutquvchi va taammul va ehtiyot yo‘lidin kanora tutquvchi.***

Bosh bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra quyidagi gap turlari tasniflandi:

Bir bosh bo‘lakli gap: *Hirot xalqining o‘z tavrida* ***yagonasi va nodirasi erdi****; tariq fanosida* ***mufarrad*** *va fano tariqida* ***mujarrad*****;** chun Pahlavonning borchada vuqufu daxlu tasarrufi zohir, balkim ul *fununda ahli fandek* ***mohir*** **erdi;** *ul zamonning mohir* ***hakimi va hoziq tabibi***; *nazm gulistonining xushnag‘ma* ***qushlari*** zikrida; *ruhoniyat gulistonidin oshnoliq gullarining* ***shamimi****; odamiylig‘ olamining javohirlig‘* ***tog‘i***.

Ikki bosh bo‘lakli gap: Mavlono Abulvose’ki, *base* ***fazoili*** *hamida bila* ***orostadur*****;** ***Ishq ko‘histoni*** *bedodining* ***noshodlaridin biri Farhoddur*****.**

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida qo‘llanilgan gap qolipidagi perifrazalar ichida ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra hamda bo‘laklarga bo‘linish - bo‘linmasligiga ko‘ra tasnifga oid bo‘lgan gap turlari aniqlanmadi. Buning sababi esa Navoiy nasrining matni dialogik emas monologik nutqqa asoslanganligidadir. Yuqoridagi tasnif dialogik nutq shakli uchun xos bo‘lgan tasniflanish hisoblanadi.

Tili o‘rganilayotgan manbadan gapning ifoda maqsadiga ko‘ra darak gap turi aniqlandi. So‘roq, buyruq, undov kabi turlari gap qolipidagi perifrazalar tarkibida mavjud emasligiga asosiy sabab perifrazaning o‘zi-

[1] **Мукаррамов М**. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984, – Б. 111.

[2] Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – B. 163.

ga xos uslubiy xususiyatga egaligi va bajaradigan vazifasiga bog‘liqligidadir. Ya’ni perifrazani qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad yuqorida ta’kidlaganimizdek obrazli ifodalash va tushunchaga nisbatan tinglovchida tasavvur uyg‘otishdir. Ritorik so‘roq gaplar ham xuddi shu jihatga ko‘ra matn tarkibida uchramadi. Bu kabi ma’lumotlarni tadqiqot yangiligi sifatida qabul qilsak maqsadga muvofiq bo’ladi.

Resume: In this article, the periphrasis used in the prose works of Alisher Navoi are syntactically analyzed, in which the periphrasis in the phrase and sentence form are divided into groups and explained with examples.

Резюме: *В данной статье проводится синтаксический анализ перифразов, используемых в прозаических произведениях Алишера Навои, в ходе которого перифразы в форме словосочетания и предложения разделяются на группы и поясняются примерами.*

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TA’MNING EMOTSIONAL- ESTETIK XUSUSIYATLARINI BELGILASHDA SEZGILARNING SHAXS ONGIDAGI ROLI

Teshaboyeva Gulnoza,
Andijon davlat universiteti
Boshlag‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Ilmiy tadqiqotlarda «antropotsentrizm» nomi bilan bog‘liq bitta tushunchaga birlashgan ilmiy paradigma o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. «Bu zamonaviy ilmiy ishlanmaning subyekti, obyekti va hurmatga loyiq shaxs(benifitsiant)i o‘rganiladi.»[1]Antropotsentrik yo‘nalishning imkoniyatining kengligi bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarda aks etmoqda. Ushbu ishda ham ta’mni idrok etish vositalarini o‘rganishda idrokning ushbu turini turli lug‘atlarda nisbatan kam o‘rganilganligi, ana shu jihatdan o‘rganish obyekti sifatida ahamiyat qaratilganligi bilan izohlanadi. Ma’lumki, ta’m bilish inson hayotida eng muhim bo‘lgan hissiyotlar bir hisoblanadi. Hissiyot idrok bilan bog‘liq hodisa. Idrok muammosi inson o‘rganishi eng muhim bo‘lgan masalalardan biridir, chunki real borliqni idrok etish qobiliyati: his etish, tasavvur qilish, fikrlash, tushunish insonga berilgan ne’matdir. Ortirilgan tajribalarga asoslangan perseptiv natijalar: ko‘rish, eshitish, teginish, hid va ta’m (sezgilar,tasavvurlar va perseptiv tasvirlar) o‘zaro bog‘liq hisoblanadi.[2] Idrok sezish bilan birgalikda bilish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, idrok etish jarayonida hissiy ma’lumotlar voqelik haqidagi allaqachon mavjud bilimlar kompleksi sifatida talqin etiladi, shuning uchun ham idrok shunchaki qo‘zg‘atuvchi reaksiya emas, balki u boshqa kognitiv jarayonlar (xotira, tasavvur, fikrlash) bilan chambarchas bog‘liqdir.[3] Idrok etish asosida inson til orqali o‘zini tevarak-atrofidagi olam to‘g‘risidagi mulohazalarini rivojlantirsa, idrok etish jarayonining o‘zi esa til yordamida namoyon bo‘lishdir.[4] Besh idrok so-

[1] Хомякова Е.Г.Эгоцентризм речемыслительной деятельность (на материале ангилиского языка) [Текст]: автореферат. дисс…докт. филол. наук/ Е.Г.Хомякова. -СПб.: Изд-во СПбГУ,2002.-35 с.

[2] Воевода, Е.В. Цветовосприятие и ассоциативные поля в русском и английском языках [Текст] / Е.В. Воевода // Научный Вестник Воронежского архитектурно-строительного университета. Серия «Современные лингвистические и методико-дидактические исследования». – Воронеж, 2012. – Вып. №2(18). – С.113-123.

[3] Лечицкая, Ж. Лексическое значение слова в аспекте номинации [Текст] / Ж. Лечицкая, Д. Вишняускене // Studies about languages, 2007. – N11. – С. 14-21. – URL: www.ceeol.com/aspx/getdocument.aspx?logid=5&id=26a092a2 (время обращения – 20.10.13).

[4] Моисеева, С.А. Семантическое поле глаголов восприятия в западно-романских языках [Текст] / С.А.Моисеева. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2005. – 248 с.

hasidan biri bo‘lgan ta’mni his etish insonda mavjud bo‘lgan tug‘ma ehtiyojidir. Biroq tilshunoslikda ta’mni idrok etish bilan bog‘liq natijalarni o‘rganish, keltirib chiqaruvchi vositalarni tahlil etish borasida kam ma’lumotlar qayd etilgan. Shuni qayd etib o‘tish joizki, psixologiyada ko‘rish va eshitishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko‘pchilikn tashkil etadi. Biroq ta’mni anglash ham psixologik jarayon hisoblansa-da, unda ta’mning tabiati, uning o‘ziga xususiyatlari haqidagi tadqiqotlarga kam e’tibor qaratilgan. Anglashiladiki, ta’m masalasi avallo psixologik hodisa his oblanadi va shu bilan birga lingvistik va ekstralingvistik hodisa bo‘lib bilimlarning sintezi sifatida ham muhim ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, sezgi organlariga e’tibor Aristotel davridan boshlanib hozirgi davrda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgan emas. Sezgi haqidagi bilimlar davrdan davrga o‘tgan sari yangicha qarashlar bilan boyib, turli bahstalab munozaralarga to‘lib borayotgani ham bu mavzuning ilmiy jihatdan o‘ziga xosligini bildiradi. Aristotel davrida aytilgan besh sezgi organlari: vizual, taktil, hid va ta’m singari turlari olimlar tomonidan alohida ta’kidlanib kelinadi. Sezgilar moddiy (obyektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in’kos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko‘rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo‘lsa, ularni xuddi shunayligicha hech o‘zgarishsizsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.[1] Olimlarning narsaning obyektivligi, uning inson sezgi a’zolariga ta’siri haqidagi qarashlar adabiyotlarda turlicha yondashildi. Ulug‘ alloma Farobiy ham bu mavzuni chetlab o‘tmadi. Farobiy ham o‘z qarashlarida narsaning obyektivligini, uning mavjudligi bizning a’zolarimizga ta’sir etishini e’tirof etadi.[2] Tilshunos A.Nurmonov Farobiyning ilmiy ijodi bilan yaqindan tanishar ekan, allomaning bu boradagi qarashlariga to‘xtalib, shunday yozadi: «Farobiy narsaning obyektivligini, uning mavjudligi bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir qilishini e’tirof etadi. Biz faqat o‘zimizni qurshab turgan olamdagi narsalarni sezgi a’zolprimiz orqali bilib olamiz. Ushlash, qo‘l tegizish yo‘li bilan olingan bilimga quvvai lomisa, ko‘rish orqali olingan bilimga esa quvvai nigohiy atamalarini qo‘llaydi. Shu bilan birgalikda eshitish sezgisi orqali, nutq vositasida ham bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi. Bunday bilim quvvai notiqa sanaladi.»[3] Jumladan, Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam bilan bog‘laydi, ular 5 ta-ko‘rish, eshitish, ta’m-mazza bilish, hid va teri sezgisi. Bular insonning ma’lum organlari – teri, ko‘z, og‘iz burun, quloq, bilan uzviy bog‘liq. Ichki sezgilar bu umumiy, chunonchi, tahmin etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), 8-19 tasavvur etuvchi sezgilar. Bu ichki sezgilar tashqi sezgilar asosida shakllanib tashqaridan olingan ayrim sezgilarni umumlashtirib, uni qabul etish, xotirada saqlash va so‘ngra qayta tasavvur etish uchun hizmat qiladi. Tibbiyotni chuqur o‘rganish asosida Ibn Sino miyani barcha sezgilaridan boruvchi nervlar markazi, u miyani inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqida ta’limotni olg‘a suradi.[4] Mantiqshunos olim I.A.Rustamov Abu Ali ibn Sinoning sezgi organlari haqidagi fikrlari haqidagi mulohazalarida shunday yozadi: «Ibn Sino tasavvurni maxsus sezgi orqali bilishning maxsus shakli sifatida qaramaydi, shu bilan birgalikda tasavvurni umumiy sezgi, oldindan his qilish sifatida ishlatadi. Ibn Sino tasvirlashicha, inson tashqi sezgilar ta’sirida, obyektiv jismlarning obrazini to‘liq holda, ya’ni o‘zini tasavurida nomoyon qiladi. Ta’kidlash lozimki, sezgi organlari faoliyati natijasida olingan turli ta’svirlar, umumiy sezgi orqali birlashadi va yagona bilishni tashkil qiladi.»[5] Bilish jarayonlarni, xususan sezgilarni o‘rganishdan avval, shaxs psixikasining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liqligini anglash, tushunish lozim. Chunki sezgilar idrok jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lsa, idrok insonning hayotiy tajribasi, uning xotirasi bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, mazkur masala mantiq, psixologiya va tibbiyotda ham doimo o‘rganilib kelinayotgan masalalar turkumiga kiradi. Bizningcha, bu masala nafaqat mantiq, psixologiya, tibbiyotni, shuningdek, tilshunoslik fanining o‘rganish obyekti ham sanaladi. Anglashiladiki, keltirilgan fikrlar fanlar o‘rtasidasidagi o‘zaro munosabat(itegratsiya)i qadimdan mavjudligini tasdiqlaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, sezgi inson miya faoliyati bilan bog‘liq psixologik hamda fizologik jarayon bo‘lib, psiologiya va tibbiyotda mukammal o‘rganiladi. Sezgi psixologik nuqtai nazardan uch turga ajratiladi: eksteroretseptiv (ko‘rish, hid bilish, ta’m bilish, eshitish, harorat bilish, taktil sezgilar); interoretseptiv (og‘riqni sezish, muvozanat sezgisi, tezlikni sezish); proreoretseptiv (muskul-harakati). Ekstreroretseptiv sezgilar tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradi. Ko‘rinadik, inson bu sezgilar orqali olam haqidagi tasavurlarini kengaytirib boradi. Boshqa sezgi organlari qatori hid, ta’m, harorat, taktil sezgilari ham insonning moddiy olamni anglashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sezgilar shun-

[1] Шахснинг билиш жараёнларидан сезги тушунчаси. https://www.elib.buxdv.uz.

[2] Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мерос нашриёти, 1992. – Б. 127-147.

[3] Нурмонов А.Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 229.

[4] Юлдашева С. М. Абу Али Ибн Синонинг илмий-фалсафий ва ижтимоий қарашлари https://doi.org/10.5281/zenodo/7588160

[5] Рустамов И.А.Ибн Сино фалсафий қарашларида билиш назарияси.https://cyberleninka.ru/article/n/ibn-Sino-falsafiy-asarlarida bilish-nazariyasi.

day bir informatsion mulki, ular tashqi olamdan va ichki ta'na a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar aynan xuddi shu yo'llar orqali miya po'stiga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyasiyalari qaytarishga yordam beradi.[1]

Ma'lumki, ta'm an'anaga ko'ra periferik idrok sifatida qabul qilingan. Kuzatishlardan ma'lumki, psixologiyaga doir ko'plab asarlarda ko'rish va eshitish haqida ilmiy mulohazalar va kitoblar nashr etilgan. Biroq ta'm tabiati haqida nashr etilgan asarlar soni sanoqli hisoblanadi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha: «Ehtimol bu hissiy idrokning ushbu turi noaniq tabiati bilan bog'liqligi hamda ta'm sezgilarining aniq, obyektiv tasnifining yo'qligi va ko'p hollarda ular xushbo'y sezgilar bilan aralashuvining yuz berishiga bog'liqligidir.»[2]

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda ham mantiq, psixologiya va tibbiyot fanlari qatori sezgi bilan bog'liq tadqiqotlarda uning turlari haqida turli fikrlar aytilmoqda. V.G.Ananev tadqiqotida sezgilarning o'n bir turini ma'lum qiladi. Uning fikricha,sezgilarni olamni yaxlit aks ettiruvchi va optimal moslashuvchi o'n bir turi maajud: vizual, eshitish, ta'm, hidlash, teginish, harorat,vosita yoki kinestetik; vestibulyar, tebranish, og'riq,organik yoki interoseptiv.[3] Oxirgi izlanishlarda sezgi bilan bog'liq analizatorlarning yigirmaga yaqin turlarining mavjudligi haqida fikrlar aytilmoqda.Unda ichki va tashqi muhitning retseptorlarga ta'sirini aks ettiruvchi tizimlari ko'rsatiladi: harorat, tebranish, tortishish, kinestetik, mushak, ta'sir,og'riq va boshqalar. Bu turlarni aniqlash qaysi me'zonlarga asoslangani haqida turli fikr mulohazalar mavjud.

Har qanday fan asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi. Inson o'zini qurshab turgan olam uzvlarini sezgi organlari yordamida his qiladi,-boshqalarga solishtiradi,farqli va o'xshash belgilarini aniqlaydi,so'ngra muayyan xulosaga keladi. Demak,har bir fan insonlarning olamni kuzatish, bilish jarayoni natijasida paydo bo'ladi.[4]

Har bir xalq madaniy – tarixiy taraqqiyoti davomida o'zini o'rab turgan olam bilan turli yo'llar bilan munosabatda bo'ladi va u olam haqidagi bilimlarini kengaytirib ilmiy tasavvurlar to'plamini yaratadi. Yaratilgan to'plam materiallari so'zlashuvda ongli ravishda til yordamida avloddan-avlodga o'tishga zamin yaratadi. Natijada, yaratilgan, jamlangan xilma-xillik nodir madaniy kod sifatida insonning ichki va tashqi ma'naviy xususiyatlarini bilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Anglashiladiki,til nafaqat olamning lisoniy tasvirini yaratadi, shuningdek,xalqning ilmiy tafakkuri mahsuli sifatida amalga oshgan muhim tarixni ham saqlab qoladi. Ya'ni,inson ongida shakllangan jamoaviy,etnik-madaniy olam qiyofasi tasvirini keyingi avlodga yo'naltiradi. Til – inson nutqi har bir xalq tomonidan yaratilgan boylik hisoblanib, uning zahirasi bitmas-tuganmas ummon bilan tenglashadi. Ulkan tilshunos L.Yelmslev shunday yozgan edi: «Til –insonda fikr va tuyg'u, kayfiyatni shakllantiradigan vosita; istak, iroda va faoliyat, inson tafakkuri bilan bog'liq vosita hisoblanib boshqalarga ta'sir qiladi, shuning uchun ham kishilik jamiyatida til birlamchi va eng zarur asosdir»[5].

Ko'rinadiki, insondagi bunday nodir qobiliyati uning tajribalarida mustahkamlanib kelgan, bu tajribalar zaminida eng muhim til va madaniyat saqlanib qolgan. Til insonning nodir fenomeni sifatida olam tasvirini ifodalashda, butun borliqqa bo'lgan munosabatini voqelantirishda, etnomadaniyat chegaralarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Aytish mumkinki,olam manzarasi tasviri tilda voqelanar ekan, u inson tafakkurida har bir xalqning o'z etonomadaniyatini ifoda etishda ahamiyatli sanaladi. Olam manzarasi tasviri o'zida ko'p axborotlar majmuidan iborat bo'ladi. Inson to'plangan axborotni saralash, qayta ishlash natijasida o'ziga kerakli axborotni qabul qilib oladi. Qabul qilib olingan axborotlar orasida besh muhim retsiptor (besh sezgi organi) mavjud bo'lib, olam manzarasini inson tafakkuri filtiridan o'tkazuvchi hisoblanib, behisob sinkretizmni namoyon etuvchi sanaladi. Olamning lisoniy manzarasi tasvirini yuzaga chiqaruvchi xarakterga ega hisoblanadi.

Bu masalada dunyoning yetuk tilshunoslari tildagi axborotning muhim jihatlarini kognitiv aspekda deb tushundilar, ular predmet,narsalar idrok (perseptiv) etiladigan mexanizm tabiatiga ko'ra yaxlit, umumiy belgi bildiradigan butun va bo'lak munosabatlaridan tashkil topgan deb tushundilar. Buning asosida esa predmet va belgi (atribut) kategoriyalari shakllandi.

Tilshunos M.Burxanova hid biluv sezgi organi xususidagi tadqiqotida quyidagi fikrni qayd etadi:» Odatda, inson sezgi organlari va ularning faoliyati tabiiy fanlar, xususan, odam fizologiyasi sohasining asosiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganiladi.»[6] Bunday sezgi organlaridan biri maza ta'm bildiruvchi sezgi organi hisoblanadi. Maza ta'm bildiruvchi sezgi organi, nafaqat, inson tanavvul qiladigan atrofidagi oziq-ovqat-

[1] Шахснинг билиш жараёнларидан сезги тушунчаси. https://www.elib.buxdv.uz.

[2] Рубинштейн С.А.Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2007. – С.37.

[3] Ананьев Б.Г.Сенсорно –прцептивная организация человека//Познавательные процессы :ощущения, восприятие/ ред,А.В.Запорожец,Б.Ф.Ломов,В.П.Зинченко. – М.: Педагогика, 1982. – С.7-31.

[4] Нурмонов А. Танланган асарлар.3 жилдлик. 1- жилд. – Тошкент:Akademnashr, 2012. – Б.32.

[5] Ельмслев Л.Понятие управления лингвистика//Звегинцев В.А.История языкознания X1X-XX вв.в очерках и извлечениях. – М., 1960. – С. 47.

[6] Бурханова М. Ольфактор лингвистика. – Фарғона, 2022. – Б. 56.

larda, mevalar o‘simliklar, tabiat bilan bog‘liq turli voqe – hodisalarning belgilarida, jamiyatda insonning boshqalarga munosabatlarida ham aks etadi.Inson boshqa sezgi organlari qatori bu sezgi organi orqali ham boshqalar bilan muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida o‘z hissiyotlari bilan «o‘rtoqlashadi», «anglashga intiladi», «bilish imkoniyatini kengaytiradi», bu esa maza ta’m bildiruvchi sezgi organining inson tafakkur sinezidan o‘tkazib bilish imkoniyatlarining kegayishiga olib keladi. Shunday qilib, lisoniy voqelikning barcha hodisalari so‘zlashuvchi va harakatlanuvchi subyekt tomonidan olamni bilish va rivojlanishida ishtirok etuvchi konginiv jarayonlar filtri orqali ko‘rina boshlaydi.

«Ta’m» tushunchasini kognitiv nuqtai nazardan o‘rganish, boshqa sezgi organlari qatori ta’mni til qay darajada ajratib bera oladi, degan savolga javob olishdir. Gap shundaki, ta’mni bildiruvchi so‘zlar soni yetarli emas, shuning uchun ham til sohibi tomonidan so‘zlashuvchilar ta’m hissini og‘zaki ifodalaydilar va taqqoslash yo‘lidan foydalanadilar. Biroq bu ham so‘zlovchidagi umumiy tasavvur bo‘lib, narsaning aniq tavsifi emas. Ta’m sezgilarini bildiruvchi sifatlar tilshunoslar tomonidan kam o‘rganilgan. Rus tilshunoslari, O.V.Chelay tildagi ta’m konseptiga murojaat etsa[1], L.I.Shirina zamonaviy rus tili materiallari asosida ta’m bildiruvchi sezgilarni tahlil etadi.[2] Shuningdek, S.Kutsenko ilmiy tadqiqotida rus va ingliz tili materiallarini qiyosan tahlil etadi. Ta’m bildiruvchi sifatlarni o‘rganish jarayonida asosan ikki jihati ta’m-struktur-semantik va so‘z yasalishga e’tibor qaratiladi. L.I.Shirinoy tadqiqot ishida ta’m bildiruvchi sifatlarning so‘z yasalishda ko‘p ma’nolilik uyalaridan tashkil topishi va ularning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishini bayon etadi. Muallif tadqiqotda ta’m bildiruvchi sifatlarning tavsifi haqidagi o‘z mulohazalarini keltiradi. Biroq tadqiqot kamchiliklardan holi emas. Masalan, sifatlarning leksik-semantik guruhlarida ta’m ma’nosini keltirib chiqaruvchi omillar, farqlanish mezonlarining aniq ko‘rsatib berilmaganligi, ma’nodoshlik, ma’no va mazmunning ifodalanish va boshqalar. Tilshunos A.V.Kutsenkoning tadqiqoti rus va ingliz tili materiallarida ta’m bildiruvchi sifatlarning semantik tuzilishi va bir-biriga mos kelishini tavsiflashga bag‘ishlangan. Muallif ishda bir so‘zda polisemik va ko‘p ma’nolik hodisalarining mavjudligi, shuningdek, ingliz tilida ta’m bildiruvchi so‘zlarning (to‘liqsizligi-A.V.Kutsenko terminologiyasi) ifodalanishining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi[3].

Turli xil ta’m sezgilari orasida to‘rtta asosiy monomadal ta’m ajralib turadi, ularni alohida ajratib bo‘lmaydi. Ta’m idrok etishning shirin, sho‘r, achchiq, nordon. Boshqa barcha ta’m sezgilarini idrok etishning asosiy quyidagi elementlari tartibda ko‘rish mumkin: shirin, sho‘r, achchiq va nordon. L.V.Laenko ingliz va rus tilidagi ta’m bildiruvchi sifatlarning tarkibini o‘rganib shirin /shirinroq,achchiq /achchiqroq, shor/shorroq, nordon/nordonroqga ajratadi. Olimning ta’kidlashicha, muayyan sifatlar muntazam ravishda ingliz va rus tillarida ta’m belgilarini baholovchi konnotativ semalariga ega, ya’ni «ta’mga ega+baholash»[4]. L.V. Laenko «yoqimli/yoqimsiz» ta’mini ifodalovchi shirin/ shirinroq, achchiq/achchiqroq sifatlari uchun, insonning turli mahsulotlarga nisbatan munosabat belgisini ko‘rsatadigan mazali sho‘r, mazasiz, o‘tkir, achchiq, nordon sifatlarining darajasini belgilaydi[5]. Ko‘rsatilgan sifat leksemalar inson tomonidan iste’mol qilinish va qilmaslik xususiyatlaridan kelib chiqib ham ajratiladi. Masalan, inson meva, sabzavot, oziq-ovqatlar va turli iste’mol qilish uchun yaroqli mahsulotlar ta’mini, yoki iste’mol qilib bo‘lmaydigan inson psixologiyasiga ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq holda ifodalashi mumkin. Meva va sabzavotlarning mazali bo‘lishi uchun ko‘p quyosh nuridan olishi va yaxshi ishlov kerak (Xalq so‘zi.gazeta). Insonning mazali hayotining mazmuni oilasi, qadrdonlari (Xalq so‘zi.gazeta). Anglashiladiki, insondagi hissiy idrok, sezuvchanlik har ikki gapda o‘ziga xos ta’m ma’nosini ifodalaydi. Gap shundaki, birinchi jumlada inson ist’emol etuvchi meva –sabzavotdagi iste’mol jarayonidagi inson organlari orqali uzatilayotgan ta’m haqidagi ma’lumot, ikkinchi jumlada inson idrok etishi, sezgisi bilan bog‘liq, borliqqa bo‘lgan muhabbat, oiladagi baxt haqidagi tasavvuridir.

Aytaylik, sovub qolgan ovqatning ta’mi mazasiz ko‘rinadi. Bu esa undagi ta’mni hidi bilan bog‘liq yuzaga chiqaradi. Tibbiyot tili bilan aytilganda, og‘iz shilliq pardasi hududida joylashgan retseptorlarning teginish va harorat hissi bilan aralashadi. Shunday qilib,

[1] Челай О.В. Концептуализация вкусовых ощущений в естественном языке.: дисс…..канд.филол.наук. –М., 2017. – 202 с.

[2] Бу ҳақ.қаранг: Лечицкая Ж.В. Прилагательные вкуса в современном русском языке(в аспекте номинации) дисс.... канд.филол.наук.- М., 1985. – 216 с. https://www.dissercat.com>Русский язык.

[3] Куценко А.В. Семантическая структура прилагательных вкусообозначений и их лексическая сочетаемость в английском и русском языках :дисс….канд.филол.наук. – М., 1979. – 228 с.

[4] Лаенко Л.В.Перцептивный признак как объект номинации:дис…д-ра .филол.наук.[Электронный ресурс].Воронеж ,2005.Режим доступа.http://31f.ru/dissertation/107- dissrtaciya-perceptivnyi-hriznak-kak-obekt-nominaci.html.(дата обращения:17.05.2023).294.с.

[5] Бу ҳақ.қаранг: Лаенко Л.В.Перцептивный признак как объект номинации:дис…д-ра .филол.наук.[Электронный ресурс].Воронеж ,2005.Режим доступа.http://31f.ru/dissertation/107- dissrtaciya-perceptivnyi-hriznak-kak-obekt-nominaci.html.(дата обращения:17.05.2023г).294.

«achchiq» yoki «dimog‘ni bo‘g‘uvchi» oziq-ovqatning o‘ziga xos xususiyati asosan teginish hissi bilan bog‘liq bo‘ladi. Yalpizning xarakterli ta’mining hissi ko‘p jihatdan sovuq retseptorlarini qo‘zg‘atishga bog‘liq bo‘ladi.[1] Agar taktil, harorat va hid sezgilarining barcha aralashmalarini istisno qilsak, bu mavzuni o‘rgangan tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, haqiqiy ta’m sezgilari to‘rtta asosiy turga kamayadi; shirin, achchiq, nordon, sho‘r. Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, barcha ta’m sezgilari ana shu birlamchi ta’mning aralashuvidan hosil bo‘ladi. Demak, greyfrut nordon-achchiq, limonad esa nordon-shirin ta’mga ega.[2]

Ushbu ishimizning obyekti – bir necha ta’m ma’nosini bildiruvchi sifatlar bilan bog‘liq matnlar, shuningdek, harorat bilan bog‘liq ta’m bildiruvchi sifatlarni birgalikda ifodalanish zanjirini tahlil etish. Ma’lumki, qayd etilgan to‘rtta ta’m biologik vazifaga ega bo‘lib, inson organizmida har birining o‘ziga xos xusiyatiti mavjud. Chunki inson organizmi turlicha bo‘lib, xohishiga ko‘ra turli ta’mni tanlaydi. Bu tanlovda inson organizmi shirin ta’mni o‘ta yuqori sezuvchanlikni ko‘rsata olishidir. Ehtimol, bu tanlov ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlarining shirinlik bilan bog‘liq ekanligi bilan o‘lchanishidir.[3] Ta’m sezishning bu turi tilda katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham lug‘at boyligimizda shirin va nordon, achchiq, sho‘r ma’nolarini bildiruvchi sifatlar zanjirining semantik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. *Masalan, Juman Sadoqat pishirgan sho‘rvadan bir qoshiq xo‘pladi,sho‘rvaning shirin ta’mi uning ishtahasini qo‘zg‘atdi.Qo‘lingiz dard ko‘rmasin baraka toping -, deya ovqatga zo‘r berdi. (Yangi O‘zbekiston). Qovun so‘yildi. Smirnov xuddi asalning rangiga va ta’miga o‘xshash bir karchni og‘ziga soldi-yu,mazasiga qoyil bo‘ldi. - Qanday shirin! (Sh.Rashidov*).

Abu Ali ibn Sinoning nordon olmaning inson organizimidagi foydali xususiyatlari haqidagi maslahatlari hozirgi kunga qadar ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas(O‘zbekiston ovozi.gazeta). Achchiq oziq-ovqatlar tarkibidagi biologik faol moddalar «yomon «xolestrinni kamaytirishi va triglitseridlarning sog‘lom darajasini saqlab turishi mumkin. (Foydali tibbiyot). Nozima sho‘r mahsulotlar kishi organizimiga zarar ekani haqida o‘qigan ed(K.Shodmonov). Keltirilgan misollarda shirin, nordon, achchiq sifat leksemalari inson uchun zarur bo‘lgan iste’mol etiluvchi oziq-ovqatlar mahsulotlarining yeyiladigan/ yeyilmaydigan turlaridagi maza -ta’m bilan bog‘liq tarkibi haqidagi ma’lumotlarni beradi. Keltirilgan misollarda ikki holatni kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Birinchi holatda yeyilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlaridan taom (ovqat) sho‘rva, ikkinchi holatda yeyiladigan poliz mahsuloti qovun bilan ta’m bilish, ya’ni shirinlik har ikkisida ham turlicha ma’noni ifoda etadi. Chunki, yeyilmaydigan taom (ovqat)mahsuloti sho‘rva ichiladi leksemasi bilan bog‘lanadi va ta’m belgisi shirinlik inson sezgisi, tuyg‘usi orqali o‘zgacha ifoda etiladi. Gap shundaki, ichiladigan oziq-ovqat mahsulotlarning, yeyiladigan oziq-ovqat mahsulotlari o‘rtasidagi maza-ta’mni anglashda semantik farqlanish mavjud bo‘ladi.Ma’lum bo‘ladiki,insonning idrok etishi ,sezishi bunday vaziyatda birinchi sezish belgisini ikkinchisi bilan almashtirmaydi. Chunki bu vaziyatda inson idrokida sezgi organlarini chegaralovchi belgilar mavjud bo‘ladi. Ana shu chegaralovchi belgilar sho‘rva bilan qovundagi shirinlik belgisiga aniqlik kiritadi. Ya’ni yeyiladigan /eyilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlaridagi maza-ta’m belgisini ko‘rsatib beradi. Anglashiladiki, suyuq oziq-ovqat mahsulotlarida shirinlik belgisi ham qo‘yiq oziq-ovqat mahsulotlaridan, shuningdek, poliz va boshqa mahsulotlarda ta’m sezgisi farqlanadi. Ta’m belgilari inson his-tuyg‘ulari bilan bog‘lanadi. Inson sezgisi, his- tuyg‘ulari insonning obyektga bo‘lagan munosabatida reallashadi. Sezgi va his-tuyg‘u qobiliyati inson ongiga tashqi olam orqali kirib boradi va organizmida namoyon bo‘ladi. Inson o‘z idroki va tuyg‘usi orqli har ikki mazani semantik jihatdan farqlaydi. Ya’ni, sho‘rvadagi shirinlik belgisi bilan qovundagi shirinlik belgisi inson sezgisi, idrokida tom ma’noda boshqa mazani anglatadi. Ma’lum bo‘ladiki, har ikki gapda shirin ta’m belgisi umumiylikka ega bo‘lsa ham semantik jihatdan boshqacha idrok etiladi va tuyg‘u, hissiyotni anglatadi. Albatta, har ikki holatda ham ta’m ifodasi shirinlik inson og‘zidagi biologik organ tilning sezishi orqali yuzaga chiqadi. Aytish mumkinki, sho‘rvadagi maza-ta’m turli go‘sht va sabzavotlar, ko‘katlar va giyohlar jamlamasi orqali yuzaga chiqadi. Demak, sho‘rvada bir qancha inson orginizmi uchun foydali mahsulotlarning mujassami inson idrokiga ta’sir etadi. O‘ziga xos bo‘lgan ta’m shirinlikni namoyon etadi. Qovundagi shirinlik insonga boshqacha tarzda hissiyot baxsh etadi. Ya’ni, yozuvchi qovundagi shirinlikni asal rangi va ta’miga monanand tasvirlaydi. Asal rangi xushbo‘y hidli inson ishtahasini qo‘zg‘atuvchi ta’mga ega bo‘lib,inson sezgi organlariga kuchli ta’sir etuvchi modda hisoblanadi. Demak, sho‘rvadagi shirinlik bilan qovundagi shirinlik polisemantik hodisa hisoblanadi. Umumiylik jihatidan shirin leksemasi har ikki mahsulotga teng. Shuningdek, *shirin* lekmasida mazmuniy sinkretizm

[1] Маклаков А.Г. Общая психология [Электронный ресурс]. Санкт-Петербург, доступ: www.gumer.info/bibliotek_Buks/Psihol/makl/07.php. (Дата обращения: 20.05. 2023 г.).

[2] Глейтман Г.Основы психологии/ пер. с англ. СПб.2001.с.217.1246.с. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_000740018/

[3] Бу ҳақда қаранг: Глейтман Г.Основы психологии/ пер. с англ.СПб.2001.с.217.1246.с. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_000740018/

mavjud. Buni Otabek tomonidan Kumushga qarata ayttilgan quyidagi jumlada shirin leksemasidagi sinkretik hodisa asosida Otabekning Kumushga bo‘lgan muhabbati ochib beriladi: *Manim uchun kuyingizda va oyog‘ingiz uchida jon berish juda shirin edi va ko‘bdan beri g‘oyam edi. (A.Qodiriy)*. Yozuvchi *shirin* leksemasida Otabek sevgilisining oyog‘i ostiga shirin jonini, ya’ni bu yorug‘ olamda eng aziz bo‘lgan hayotini qurbon berishga tayyorligi ifodasini beradi. Ko‘rinadiki, shirin leksemasi bu jumlada maza-ta’m ma’nosida emas, insonning bu olamdagi hayoti tavsifini beradi. Demak, shirin leksemasi ko‘p ma’noli hisoblanib sinkretik ma’noni ifodalaydi. Anglashiladiki, sezgilar o‘zlariga adekvat bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilarni aks ettirish shakllaridan biri hisoblanmish bilish jarayonidir.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, millatlar o‘rtasida ta’m-mazani ifodalashda turli o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki olam manzarasi har bir tilda turlicha talqin etiladi. Shu jumladan, turli iste’mol mahsulotlaridagi ta’mni ifodalash ham har bir millat egasining idroki bilan bog‘lanadi. Turkiy, jumladan, o‘zbek xalqi go‘sht mahsulotlaridan mol va qo‘y, rus va inglizlar esa cho‘chqa go‘shtiga bog‘liq bo‘lgan maza-ta’m haqida axborot beradi. Bu mahsulotlarning shirin yoki nordonligi til sohibining milliy tabiati asosida tinglovchiga uzatiladi. Masalan, *Qovurilgan qo‘y go‘shtining xushbo‘y shirin ta’mi Nosirovning og‘zida qoldi*.(R.Muxtorov) Bu matnda qo‘y go‘shti boshqa turkiy xalqlar qatori o‘zbek xalqining ham sevib iste’mol qiladigan mahsulotidir. Yuqorida keltirilgan rus va ingliz millatiga mansub xalqlarning sevib iste’mol qiladigan go‘sht mahsuloti cho‘chqaga nisbatan turkiy xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi ham shirin so‘zini ishlatmaydi.

Demak, har bir millatning o‘z dunyoqarashi va olamining milliy manzarasini his etuvchi idroki mavjud bo‘lib, ta’m sezgisiga bog‘liq holda yuzaga chiqadi.

Resume: The article analyzes the chain of co-expression of several taste adjectives, as well as adjectives related to temperature.

It is known that taste is one of the most important feeelings in human life. Feeling is a phenomenon associated with perception. The problem of perception is one of the most important problems in human learning, since the article explains that the ability to perceive real existence: to feel, imagine, think, understand is a gift given to a person.

Резюме: В статье анализируется цепочка совыражения нескольких вкусовых прилагательных, а также прилагательных, связанных с температурой.

Известно, что вкус – одна из важнейших чувств в жизни человека.Чувство – явление, связанное с восприятием. Проблема восприятия является одной из важнейших проблем обучения человека, поскольку в статье поясняется, что способность воспринимать реальное существование: чувствовать, представлять, думать, понимать – это дар, данный человеку.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

СОВМЕЩЕНИЕ АРХАИЧЕСКОГО И СОВРЕМЕННОГО ЗНАЧЕНИЙ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ М.ЦВЕТАЕВОЙ

Зарипова Матлуба Кулфидиновна,
старший преподаватель кафедры русского языкознания Термезского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам

Относящаяся к пассивному словарному запасу языка архаическая лексика в большинстве случаев является стилистически маркированной. Нередко она переходит в разряд традиционно-поэтический или пройдя стадию торжественно-патетического употребления, становится средством создания иронии. При семантическом развитии слова архаическими становятся некоторые из его значений; создается ситуация, когда архаическое и современное значения слова сосуществуют в языке. При этом архаическое значение, сохранившееся в современном языке чаще всего благодаря культурно-историческим коннотациям, функционированию в канонических и сакральных текстах, может противопоставляться современному значению как «высокое» понятие «низкому» (ср. *любовник* – устар. влюбленный человек, возлюбленный; совр. мужчина, по отношению к женщине, находящейся с ним во внебрачной связи – МАС); «заземление» значений слова может приводить и к переоценке исходных понятий (ср. *прелесть* – устар. козни дьявола, соблазн; совр. очарование, обаяние, внушаемое кем-, чём-л. красивым, приятным, привлекательным›).

Совмещение архаического и современного значений слова в поэзии может снимать противопоставление положительной и отрицательной оценки в номинации понятия. Так, в большинстве произведений М. Цветаевой слова *любовник, любовница* включают в себя одновременно и архаическое, и современное значение без какого бы то ни было противопоставления:

Плохой товарищ он был, – лихой и ласковый был любовник!

Юный месяц идет к полуночи: Час монахов – и зорких птиц, Заговорщиков час – и юношей, Час любовников и убийц.

Я знаю правду! Всё прежние правды – прочь!

Не надо людям с людьми на земле бороться! Смотрите: вечер, смотрите: уж скоро ночь. *О чем* – поэты, любовники, полководцы?

Долг и честь, Кавалер, – условность.

Дай вам бог – целый полк любовниц!

И ты откажешь перлу всех любовниц Во имя той – костей.

М. Цветаева видит в таком совмещении современного и архаического значений слова «реабилитирующее» расширение его смысла. В эссе «О любви» она пишет: «Любовник» и здесь и впредь как средневековое обширное «amant». Минуя просторечие, возвращаю ему первичный смысл».[1]

В ряде случаев поэтический контекст актуализирует угасающую связь архаического значения с современным, как бы выявляя в современном значении слова его исконный, но забытый смысл. Так, слово *лесть* в современном его значении преувеличение, угодливое восхваление кого-л., чьих-л. качеств или действий лишь потенциально сохраняет связь со значением обман, четко выраженным в древнерусском языке: «ЛЕСТЬ. 1. *Обман, хитрость, коварство. Ложь.* 2. *Обольщение, соблазн, приманка.* 3. *Ложное учение, заблуждение, ересь»*.

М. Цветаева употребляет слово *лесть* и его производные в современном значении чаще всего в таких контекстах, которые прямо указывают на обман, ложь или опасность:

Не для льстивых этих риз, **лживых** ряс – Голосистою на свет родилась!

Минута: мерящая! Малость

Обмеривающая, слышь:

То никогда не начиналось,

Что кончилось. Так **лги** ж, так льсти ж

Не доверяй перинам: С сугробами в родстве!

Занежат, – лести женской Пух, рук и ног захват, Как женщина младенца Трехдневного – заспят.

Аналогичным образом архаическое значение выступает как критерий истины и тем самым обогащает современное значение этимологическим и

[1] Голицына 1985 – Голицына В. Н. М. Цветаева о А. Блоке: (Цикл —Стихи к Блоку»). Статья 1 // Мир А. Блока: Блоковский сборник / Отв. ред. З. Г. Минц. – Тарту, 1985.

в таком контексте:

Левая – она дерзка, Льстивая, лукавая. Вот тебе моя рука – **Праведная, правая***!*

Противопоставление архаического и современного значения слова в пределах одного словоупотребления хорошо видно на примере слова *ревность* и его производных: Так, в скудном труженичестве дней, Так, в трудной судорожности к ней, Забудешь дружественный хорей Подруги мужественной своей. Все древности, кроме: *дай* и *мой,* Все ревности, кроме той, земной, Все верности, – но и в смертный бой Неверующим Фомой.

Было дружбой, стало службой. Бог с тобою, брат мой волк! Подыхает наша дружба: Я тебе не дар, а долг! Чем на вас с кремнем-огнивом В лес ходить – как бог судил, – К одному бабье ревниво: Чтобы лап не остудил.

Приведенные контексты различны по своей стилистике: в первом из них семантический архаизм окружен лексикой высокого стиля, поддерживающей архаическое значение слова *ревность* – усердие, рвение, во втором он окружен разговорно-просторечной лексикой и фразеологией. Но в обоих случаях *ревность* как рвение в высоком смысле противопоставлена *ревности* в современных значениях этого слова: 1) мучительное сомнение в чьей-нибудь верности, любви, в полной преданности, подозрение в привязанности, в большей любви к кому-л. другому; 2) зависть к успеху другого, нежелание делить что-л. с кем-л. (МАС). Первый контекст наглядно показывает это противопоставление не только подчеркнутым исключением «земной» ревности из всего объема понятий, способных быть выраженными этим словом, но и включением слова *ревности* в структурный повтор вертикального анаграмматического ряда *древности – ревности – верности.* Являясь центральным членом этого ряда, слово *ревности* включает в себя смыслы соседних членов, и эта триада как триединство подлинных ценностей комплексно противопоставлена ложным ценностям земного порядка, к которым относится и ревность в современном обиходном значении этого слова.

Обращает на себя внимание необычное для М. Цветаевой употребление формы множественного числа в этом контексте. Окказиональные формы множественного числа абстрактных существительных у Цветаевой разоблачают низменный или обыденный смысл явления, прикрытого высокими словами. Здесь же конкретизация абстрактных понятий «ревность» и «верность» передает земные, но не низменные воплощения этих понятий в их многообразных проявлениях. Может быть, в этом контексте «ревности» противопоставлены обиходному понятию «ревность» именно многообразием конкретных достойных проявлений рвения, в то время как «ревность» в обиходном понимании предполагает только одну недостойную страсть.

Во втором контексте архаичное значение слова *ревнивый* усердный, ревностный, выступающее на фоне разговорно-просторечной лексики и фразеологии, стилистически не контрастирует, а гармонирует с этим фоном как значение, отражающее народное сознание. Контрастирует же это архаическое значение как исконное (т. е. для М. Цветаевой подлинное) с современным обиходным значением склонный к ревности, боящийся превосходства другого над собой, как со значением ложным. Тем самым из содержания понятия «ревность» устраняется его «низкий» смысл, в чем и сосредоточена главная мысль стихотворения «Волк». Вытеснение одного из значений слова подготовлено в этом стихотворении серией противопоставлений, частично основанных на перефразировании популярных поговорок и пословиц (*Было дружбой, стало службой – ср. Не в службу, а в дружбу; Бог с тобою, брат мой волк* – ср. *Человек человеку брат* и *Человек человеку волк*). Заметим, что в контекстах, в которых говорится о ревности античных богов и библейского бога и в которых поэтому естественно было бы встретить архаическое значение слова, *ревнивый,* это слово имеет, по-видимому, только современное значение, связанное с понятием соперничества: Смуглой оливой Скрой изголовье! Боги ревнивы К смертной любови. Каждый им шелест Внятен и шорох. Знай, не тебе лишь Юноша дорог. Бойся не тины – Тверди небесной! Ненасытимо – Сердце Зевеса!

– Ты и путь и цель, Ты и след и дом. Никаких земель Не открыть вдвоем.

В горний лагерь лбов
Ты и мост и взрыв.
(Самовластен – бог
И меж всех ревнив.)

Конечно, в этих контекстах речь идет о борьбе духовного и телесного начал в человеке, о могуществе духовного начала, лишающего человека земных благ. В том, что именно рвение, стремление к победе духовного начала над телесным. Цветаева называет ревностью богов в современном смысле этого слова, проявляется материализация духовного и одухотворение материального как особенность цветаевского творчества. [1]

[1] Горбаневский 1985 – Горбаневский М. В. — Мне имя – Марина: Заметки об именах собственных в поэзии М. Цветаевой // Русская речь. 1985. № 4.

Пример со словом *лихой* показал, что для совмещения двух значений в одном словоупотреблении благоприятна позиция поэтического переноса: она дает возможность контаминировать синтагмы, в которых реализуются разные значения слова или значения омонимов. Совмещение современного и архаического значений слова в этой позиции тоже выступает особенно отчетливо:

«Пушкин – тога, Пушкин – схима, Пушкин – мера, Пушкин – грань...»

Пушкин, Пушкин, Пушкин – имя Благородное – как **брань** Площадную – попуган. – Пушкин? Очень испугали!.

Если в современном русском языке слова *брань* битва и *брань* ругань утратили семантическую связь (МАС дает эти слова как омонимы), то в «Стихах к Пушкину» эта связь явно восстанавливается. М. Цветаева осуждает использование имени Пушкина как охранительного символа традиционности в поэзии, указывая на бунтарский характер его творчества. Слово *брань* в стихотворении стоит на сильном строфическом переносе. Синтаксический строй этих строк предполагает членение, при котором выделяются две структурно параллельные и противоположные по смыслу синтагмы: *имя благородное* (винительный падеж) и *брань площадную.* Однако положение слов *имя* и *брань* перед паузами стиховых переносов, вызывая обычное в таких случаях противоречие между синтаксисом, и ритмом, приводит к перегруппировке членов синтагм. В результате слово *брань* становится членом сравнительного оборота *благородное – как брань,* поскольку внутристрочное притяжение слов, вызванное ритмом, сильнее, чем междустрочное («в принципе каждый стих – это группа слов, произносящаяся одним дыханием, тесно связанная по смыслу, т. е. некая обособленная единица, синтагма»).

Тире внутри сравнительного оборота не мешает восприятию этого оборота именно как сравнительного, поскольку в поэтической системе М. Цветаевой тире многофункционально и может стоять между любыми выделяемыми по смыслу и интонации членами предложения. Тем не менее синтаксическая связь между членами синтагмы фразеологизма *брань площадную* не устраняется. Таким образом, слово *брань* в позиции переноса выступает одновременно в двух значениях, которые в словарях представлены как омонимы: «БРАНЬ. *Оскорбительные ругательные слова, ругань. Осуждение, порицание, упреки;* БРАНЬ. *Трад. -поэт. и высок. Война, битва, бой»* (МАС). В контексте стихотворения М. Цветаевой определения слов *имя* и *брань – благородное* и *площадную* предельно обнажают высокий и низкий смыслы слова, объединенные в одном словоупотреблении. Как и в предыдущих примерах, архаическое значение слова представлено как обозначающее истинный смысл явления в противоположность профанационному смыслу, соответствующему современному значению.

Однако словоупотребление М. Цветаевой показывает, что современное значение слова, сосуществующее с архаичным, может не только принизить, но и возвысить смысл слова, значение которого менялось в языке. [1]В произведениях М. Цветаевой неоднократно встречаются фразеологические неологизмы со словом *час:*

Юный месяц идет к полуночи: Час монахов – и зорких птиц, Заговорщиков час – и юношей, Час любовников и убийц;

Есть час Души, как час Луны, Совы – час, мглы – час, тьмы – Час... Час Души, как час струны Давидовой сквозь сны Сауловы...

– Так, связываясь с новым горем, Смеюсь, как юнга на канате Смеется в **час великой бури,** Наедине с господним гневом;

Час ученичества! Но зрим и ведом Другой нам свет, – еще заря зажглась. Благословен ему грядущий следом Ты – **одиночества верховный час!**.

Слово *час* в древних славянских языках, в том числе и в русском, имело обобщенное значение время, сохранившееся в некоторых славянских языках и до сих пор. В русском языке это значение конкретизировалось и сузилось до номинации отрезка времени в 60 минут.

Во всех приведенных контекстах сочетания со словом *час* представляют собой торжественно-патетические обороты речи в соответствующем лексическом окружении при общей высокой тональности произведений. [2]Возможно, что эти обороты перефразируют церковнославянские фразеологические сочетания, называющие церковные службы в честь определенных этапов жизни, смерти и воскресения Иисуса Христа (например, *час поруганий и предания распятию, час сошествия святого духа на апостолов* и т. п. – Толль). В современной фразеологии сохраняется модель подобных сочетаний, восходящая, видимо, к церковнославянскому: *час расплаты.* Несмотря на то, что в цветаевских сочетаниях, образованных по этой модели, слово «час» имеет архаическое обобщенное значение ‹время›; в

[1] Зубова Л.В. Поэзия Марины Цветаевой. Лингвистический аспект. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1989. –С. 110-114.

[2] Усачёва Т.П. Лебединый стан М.Цветаевой в контексте заказа времени// К.: Научные труды КГПУ 2006.

поэтической системе М. Цветаевой не менее важно и современное значение этого слова, указывающее на конкретный и сравнительно короткий отрезок времени: вечность оказывается сконцентрированной в кратковременности интенсивного переживания. Высокий смысл слова *час* в архаическом значении становится, таким образом, равноценным высокому смыслу этого же слова в современном значении, поскольку вечность, по представлению М. Цветаевой, равноценна моменту («часу») интенсивной жизни.

Rezyume: Maqolada an’anaviy she’riy yoki tantanali ravishda patetik qo‘llanish toifasiga o‘tadigan arxaik lug‘at kinoya yaratish vositasiga aylanishi, tilda so‘zning arxaik va zamonaviy ma’nolari qanday birga mavjudligi ko‘rib chiqiladi.

Muallif M. Tsvetaevaning she’riy satrlari misolidan foydalanib, arxaik ma’noni zamonaviy ma’no bilan «yuqori» tushuncha sifatida «past» tushunchaga qarama-qarshi qo‘yish mumkinligini ko‘rsatadi; kontseptsiya nominatsiyasida ijobiy va salbiy baholar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni olib tashlash; so‘zning ma’nosini kengaytirish; so‘zning asl, unutilgan ma’nosini ochib beradi; haqiqat mezoni vazifasini bajaradi va zamonaviy etimologik ma’noni boyitadi.

Resume: The article examines how archaic vocabulary, moving into the category of traditionally poetic or solemnly pathetic use, becomes a means of creating irony, how archaic and modern meanings of the word coexist in the language.

Using the example of M. Tsvetaeva’s poetic lines, the author shows that archaic meaning can be contrasted with modern meaning as a «high» concept to a «low» one; remove the opposition between positive and negative assessments in the nomination of a concept; expanding the meaning of the word; reveals the original, forgotten meaning of the word; acts as a criterion of truth and enriches modern etymological meaning.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AFSONAVIY QAHRAMONLAR, ASAR QAHRAMONLARI NOMI BILAN BOG‘LIQ TIBBIY EPONIMLAR

Nuriddinova Shaxnoza Kaxorovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Kishilar nutqidagi dastlabki eponimlar aynan ularning tarixi, e’tiqodi, madaniyati, adabiyoti bilan bevosita aloqada vujudga kelgan. Biroq, eponimlar shakllanishi bo‘yicha mifonimlar salmog‘i juda kam. Olimlar tomonidan tahlilga tortilgan qariyb 1500 ga yaqin eponim so‘zning 100 dan ortig‘ini mifonim asosli eponimlar tashkil etadi. Tibbiy holatlar bo‘yicha hisobotlarda mifologik va adabiy eponimlardan foydalishning asosiy tendensiyalari aniqlandi. Tibbiy holatlar bo‘yicha hisobotlarda mifologik va adabiy eponimlardan foydalishning asosiy tendensiyalari aniqlandi. Unga ko‘ra, ushbu terminologik birliklarning eng keng tarqalgan beshta manbasi quyidagilar:

1. *Yunon mifologiyasi.* «**Gipokamp**» sindromi, **«Axilles**» sindromi, **«Kron**» kasalligi, **Psixiatriya**

2. *Rim mifologiyasi*. «**Yanus»** sindromi, **«Venera kindigi**», «**Venera ko‘prigi**» sindromlari

3. *Boshqa lotin mifologiyalari*.

4. *Diniy manbalar*. **«Ayub**» sindromi**, «Iso»** sindromi, «**Odam Atoning olmasi»** sindromi…

5. *Adabiy asarlar.* «**Alisa mo‘jizalar mamlakatida»** sindromi, **«Edip»** sindromi**,** «**Verter»** sindromi va boshqalar**.**

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tibbiy terminologiya, asosan, yunon mifologiyasiga tayanadi. Tajribaga tortilgan eponimlar ichida 70 ga yaqin eponimning aniqlanishi so‘zimizning isboti bo‘la oladi. Zero, bu boshqa ko‘rsatkichlar ichida eng yuqori natijadir. Quyida ularning ayrimlarini tahlilga tortamiz.

Psixiatriya – inson ruhiyati bilan bog‘liq jarayonlar va ularni yaxshilashga qaratilgan turli muolajalar majmuasi. Ushbu termin yunoncha **«psyche**» so‘zidan kelib chiqqan. «Psyche» so‘zi yunonchada «*jon»* va *«kapalak*» degan ma’noni anglatadi. Qadimgi Rim manbalarida ham shunday atalgan. So‘zning asosi qadimgi yunon mifologiyasiga borib taqaladi. *Psyche* – yunon afsonalarida ruh mabudasi va go‘zal ayol sifatida tasvirlangan. Dastlab u o‘lik ayol bo‘lib tug‘ilgan, biroq sevgi ma’budasi unga jon bilan birga tuganmas go‘zallik va abadiy yashashni hadya etgan. Keyinchalik u, hatto, go‘zallikda Afrotida bilan ham raqobatlasha olgan[1].

Gigiyena – (*yun***.- «sog‘lom»)** tibbiyotning bir sohasi bo‘lib, kishilarning turmush va mehnat sharoitlarida sog‘lom tumush tarziga amal qilishi uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig‘indisi[2].

Gipokamp – miyada limbik tizimda muhim rol o‘ynaydigan, yangi xotiralarni shakllantirishda ishtirok etadi, shuningdek, o‘rganish va hissiyotlar bilan ham bog‘liqdir. U o‘z nomini yunon mifologiyasidagi dengiz jonivori nomidan olgan. Gippokamplar yarim baliq, yarim ot ko‘rinishidagi jonivorlar bo‘lib, «**gippos»** yunoncha «*ot»* degan ma’noni anglatadi. Biz ularni hozirda «dengiz otlari» deb ataymiz.

«Kron» kasalligi yo‘g‘on ichakdagi yallig‘lanish kasalligidir. Bu oshqozon-ichak traktining yallig‘lanishi, qorin og‘rig‘i, kuchli diareya, charchoq, me’yoridan ortiq vazn yo‘qotish kabi hayot uchun xavfli asoratlarga olib kelishi mumkin[3]. Kasallikka yunon afsonalaridagi vaqt xudosi va koinot hukmdori – **Kronos** nomi berilgan. Kronos oliy xudo - Zevsning otasi bo‘lib, o‘zining shafqatsizligi bilan zolim sifatida tanilgan.

Gipnoz – yunon mifologik xarakteridan kelib chiqqan bo‘lib, diqqatni jamlash, periferik ongni pasaytirish, bildirilgan taklifga javob berish kabi holatlarni o‘z ichiga olgan inson holatini anglatadi. Odatda, psixoterapiyada bemorlarni davolashda qo‘llaniladigan usullardan biri.

Genius – yunon mifologik xarakterdagi *«jin*» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, g‘ayrioddiy, yangi kashfiyotlar hamda intellektual qobiliyatni, ijodiy mahsuldorlikni yoki kashfiyotlar yutug‘i bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xoslikni ko‘rsatadigan shaxsni anglatadi.

Bibliokalizmlar tibbiy terminologiyaga o‘rta asrlarda kirib kelgan. Ya’ni, bunda ayrim kasalliklarning nomlari avliyolarning ismlari bilan bog‘langan. Ularning ba’zilari bugungi kunda ham faol iste’molda bo‘lib kelmoqda. Jumladan:

Enton olovi – kuchli stress, immunodepressiv kasallik. Quyoshdan haddan tashqari qo‘rqish, turli vahimalar ushbu kasallikni keltirib chiqaradi. Xastalik Padualik Avliyo Entoni (1195-1231) sharafiga nomlangan. Imon, xarizma va yuksak fidoyilik uchun eng buyuk avliyo sifatda tanilgan. U *«Doktor Evangeliy»* (Xushxabarchi shifokor) nomi bilan ham mashhur bo‘lgan.

Dorivor o‘simliklar nomida hamda farmatsevtika terminologiyasida juda ko‘p mifologik eponimlar qo‘llaniladi. **Artemida, Adonis, Afridita** kabi yunon mifologiyasidagi qahramon nomlari shular jumlasidandir.

Rim mifologiyasi. Rim mifologiyasida ildiz otgan eponimlar guruhi ikkinchi o‘rinda turadi va bu atamalar zamonaviy tibbiy holatlar hisobotlarida kamroq uchraydi. Olimlarning aniqlashicha, natijaga tortilgan 100 dan ortiq eponimdan bor-yo‘g‘i 6 ta eponim Rim mifologiyasi qahramonlari ta’sirida paydo bo‘lgan. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

Venera – qadimgi Rimda bahor ma’budasi va bog‘dorchilik hamda poliz-sabzavotchilik homiysi. Uning nomi bilan bog‘liq eponimlar jamiyatning turli sohalarida uchraydi. Jumladan, *astronomiyada* «**Venera»** sayyorasi (Quyosh tizimining Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha ikkinchi sayyora), *texnikada* **«Venera»** apparati (Venera sayyorasi va kosmik fazoni o‘rganish uchun mo‘ljallangan sayyoralararo kosmik apparatlarning umumiy nomi, ularni uchirish dasturi) *farmatsevtikada* **«Venera kindigi»** (iliq va nam haroratda o‘suvchi, ko‘pgina shifobaxsh xususiyatlarga, xususan, yarani tez bitkazish, quloq og‘rig‘ini davolash xususiyatiga ega bo‘lgan suvli o‘simlik), *tibbiyotda* **«Venera ko‘prigi’** kabi eponimlar uchun asos bo‘lgan.

Rim mifologiyasida har qanday ishning boshi (shu jumladan, inson hayotining ham boshlanishi) hamda bitimlar va ittifoqlar xudosi **Yanus** hisoblangan. Yilning birinchi oyi – yanvar unga bag‘ishlangan va uning sharafiga bayram nishonlangan. Ayrim manbalarda esa u birinchi qurbonliklarni qabul qiluvchi sifatida tasvirlangan[4].

Anatomik terminologiyada **diniy manbalardagi terminlar**i ham mavjud. Sohada qilingan izlanishlar natijasida, onomastik tarkibiy qismlarga ega ikkita atama Injildan (jami 15 ta natija orasidan) olinganligi aniqlangan. Shulardan biri:

«Odam Atoning olmasi» qalqonsimon xaftaga deb ataladigan suyak xaftaga bo‘lagi bo‘lib, ayollarda ham, erkaklarda ham uchraydi. Odatda, o‘smirlik davrida, halqum kattalashganda va ovoz chuqurroq bo‘lganda paydo bo‘ladi. Shuning uchun erkaklar-

[1] O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. I jild. Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. –B. 421.

[2] https:/uz.wikipedia.org/wiki/Gigiyena

[3] Aliyev M.M. Bolalar xirurgiyasi. –Toshkent, 2018.

[4] https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title+Yanus&oldid=3728525

da nisbatan ko‘proq ajralib turadi. Bu nom Injildagi Odam Ato yutib yuborgan olma haqidagi afsonadan kelib chiqqan. Ko‘pincha, jarrohlik yo‘li bilan hajmini o‘zgartirish yoki butunlay olib tashlash ham mumkin. Chunki, odam ato olmasi hech qanday funksiya bajarmaydi.

Ko‘chiriq – baxshi (parihon) tomonidan kishilarni go‘yo turli kasalliklardan xalos qilish maqsadida o‘tkaziladigan g‘ayriilmiy amal. Ilgari ruhiy yoki asab kasalligi yovuz ruhlar – jin yoki parilarning kishiga yetkazgan zarari oqibati deb qaralgan. Ayrim kishilar jin yoki parilarni haydab chiqarish, tanadan ko‘chirib tashlash orqaligina bemorni davolash mumkin, deb hisoblaganlar. Ushbu marosim ko‘p hollarda kasal kishining xonadonida o‘tkaziladi. Marosim o‘tkaziladigan kuni ziyon yetkazgan ruhlarga atab qurbonlik (asosan, qo‘y-qo‘zi, echki, uloq, ba’zan tovuq) so‘yilgan. Baxshi hayvon qonidan bir piyola olib, kasalning peshonasiga, chakkasiga, ko‘kragiga, qorniga, tovonining yuqori qismiga surtgan. Ko‘chiriq va unga ishonish juda qadimiy odat bo‘lib, «Avesto»da ham tilga olingan va dunyodagi barcha xalqlarda turli shakllarda uchraydi. Islom dini ko‘chiriqni qattiq qoralaydi. Hozirda juda kam qo‘llaniladi.

«Ayyub» sindromi – irsiy kasallik bo‘lib, bu antikor darajasining pasayishiga emas, balki bittasini ishlab chiqarishning ko‘payish jarayonidir. Bu esa immunitet tizimining haddan tashqari qo‘zg‘alishiga olib keladi. Sindromga diniy manbalarda nomi zikr etilgan payg‘ambar nomi berilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan[1].

Adabiy eponimlar tibbiy terminologiyada o‘z o‘rniga ega. Bunday eponimlar o‘zining qulayligi va ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Deylik, dunyoga mashhur biron asar qahramoni nomi bilan atalgan eponimni dunyoning istalgan mintaqasidagi insonlar bir xilda tushunadilar. Xoh u Amerika mintaqasidan bo‘lsin, xoh Osiyo yoki Afrika o‘lkasidan, bu kasallik nomini va uning belgilarini anglashga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan, *«Alisa mo‘jizalar mamlakatida»* sindromini olaylik. Ushbu sindrom haqida eshitgan insonlar bu haqida maxsus bilimga ega bo‘lishlari shart emas. Birgina shu asarni va uning qahramonidagi o‘ziga xos xususiyatlarni esga olishning o‘zi kifoya.

XVIII-XX asrlarda yaratilgan romanlar va hikoyalarning adabiy qahramonlari nomlari bilan bog‘liq klinik sindromlar va kasallik alomatlari ham paydo bo‘lgan. Asar qahramonlari nomlarining tibbiyot sohasiga kirib kelishiga bir qancha sabablar mavjud. Tabiiyki, butun dunyoga mashhur asarlar va ularning qahramonlari insonlar uchun nihoyatda qiziqarli va ajoyibotlarga boydir. Bu esa tabiiyki, kishi e’tiborini o‘ziga tezda jalb etadi va xotirada yaxshi saqlanishiga ko‘mak beradi.

Verter sindromi – televideniya yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan yoki mashhur badiiy adabiyot yoki kinoda tasvirlangan o‘z joniga qasd qilishdan so‘ng sodir bo‘luvchi taqlid qilish natijasida kelib chiqadigan o‘z joniga qasd qilishning ommaviy to‘lqinidir. Mazkur effekt 1974-1975-yillarda sotsiolog Devid Fillips tomonidan aniqlangan. Olimning aniqlashicha, o‘z davri uchun mashhur Gyotening «*Yosh Verterning iztiroblari*» romanidan so‘ng ushbu hodisa kuzatilgan. Shu tufayli kasallik aynan shunday nom olgan.

Makbet sindromi – qo‘lni yuvishga mukkasidan ketish. Amerikalik ruhshunos Stenli Rahmonnning fikriga ko‘ra, qo‘lni yuvishga mukkasidan ketish emotsional jarohatlanish oqibatida kelib chiqadi. Inson psixologik jarohatga sabab bo‘lgan kishini yodga olishi bilan qo‘l yuvishga kirishib ketadi. Sindrom o‘z nomini Uilyam Shekspirning «**Makbet»** asaridan olgan. Asar bosh qahramoni Makbet xonim qirol Dunkanni o‘ldirganidan so‘ng qo‘l yuvishga mukkasidan ketadi.

«Edip» sindromi **(«Edip»** kompleksi) **–** Zigmund Freyd tomonidan asos solingan psixoanalitik nazariyaga ko‘ra, bolaning qarama-qarshi jinsdagi ota-onaga ega bo‘lishga intilishi va bir jinsdagi ota-onasini yo‘q qilish haqidagi his-tuyg‘ulari, fikrlari va fantaziyalarining yig‘indisidir. Bunda har bir bolaning birinchi sevgisi qarama-qarshi jinsdagi ota-onaga nisbatlangandir[2]. Qadimgi yunon mifologiyasida bolaning ota-onasiga bo‘lgan muhabbati va turmush qurishi yoqimsiz harakat va bu xudolar uchun mumkin bo‘lgan maxsus amaliyot ekanligi aytiladi. Freyd bu nazariyani Sofoklning «*Shoh Edip*» hikoyasi sharafiga nomlagan.

«Alisa mo‘jizalar mamlakatida»- sindromi juda kam uchraydigan g‘aydioddiy kasalliklardan biri bo‘lib, u haqiqatni idrok etishda muammolar bilan birga yuzaga keladi. Bunday bemorlarda kichik narsalar juda katta (makropiya), katta narsalar esa, aksincha, kichik (mikropiya) bo‘lib qolgandek tuyuladi. Ya’ni bemor tevarak-atrofidagi narsalarning o‘lchamlari va ular orasidagi masofani baholay olmaydi. Bunday alomatlar, ko‘pincha, miyasi shikastlanishi mavjud bo‘lgan 4 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar hamda o‘spirinlarda kuzatiladi[3].

Ushbu sindromning bunday nomlanishiga ingliz yozuvchisi Lyuis Keroll qalamiga mansub *«Alisa mo‘jizalar mamlakatida»* asari sabab bo‘lgan. Dunyoga mashhur asar asosida ko‘pgina filmlar va multifilmlar suratga olingan va asarning yanada mashhur

[1] https://uz.warbletoncouncil.org/enfermedades-sistema-457

[2] Remzi Kitabevi, Eylul. Insan ve Davranishi, 2006. –B. 413.

[3] https://telegra.ph/Alisa_mo’jizalar_mamlakatida

bo‘lishiga zamin yaratgan. Ushbu asar yoki filmlar voqealari bilan tanish bo‘lganlar bilishadiki, «tana va haqiqatning o‘zgarishi»dan kichkina qiz juda aziyat chekadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, yozuvchining o‘zi ham ma’lum muddat davomida shu xastalikdan aziyat chekkan. Va aynan shu hodisa asarning dunyoga kelishiga «ilhom» vazifasini bajargan.

XIX asrda ingliz yozuvchisi Samuel Teylor Kolerijning «*Qadimgi dengizchi haqidagi ertak»* nomli asari butun dunyoga mashhur bo‘ldi. Asar voqealaridan birida keksa dengizchi **albatros**ni – yaxshi xislatlarning nishoni hisoblangan muqaddas qushni o‘ldiradi va oliy kuchlarning og‘ir jazosiga hukm qilinadi. Ya’ni, dengizchi o‘z qilmishidan keyin doimo odamlarga bu haqida gapirib yurishga majbur etiladi.

Qadimgi dengizchi kabi «**Albatros sindromi»** bilan og‘rigan bemorlar ham doimiy ravishda shifokorlar qabuliga borib, o‘zlarining ahvollari «og‘ir» ekanligini, zudlik bilan jarrohlik amaliyotini o‘tkazish kerakligini talab qilaverishadi; turli dori-darmon vositalarini ko‘plab miqdorda iste’mol qilishadi. Eng diqqatli jihati shundaki, ularga kasallari unchalik jiddiy emasligi va hattoki muammo bartaraf etilganligi aytilganda ham ular xotirjam bo‘lishmaydi, aksincha, boshqa shifokor qabuliga uchrashib yana hammasini boshidan boshlashni ma’qul ko‘rishadi. Oxir-oqibat, psixik buzilish va dori-darmon vositalariga qaramlik oqibatida o‘lim bilan yakunlanishi ham mumkin.

Liliput – eng pakana odam. Ularni boshqa insonlardan ajratib turuvchi asosiy belgi – bo‘ylarining nihoyatda pastligidadir. Ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning *«Gulliverning sayohatlari»* asaridagi xayoliy Liliputiya mamlakatining fantastik darajadagi mitti odamlari nomidan olingan.

Xulosa. Umuman olganda, tibbiyot terminologiyasida mifologik va adabiy eponimlardan yetarli darajada foydalanish butun dunyo tibbiyot xodimlarining kasbiy muloqot jarayonining oson va qulay bo‘lishini ta’minlaydi, bir-birlari bilan o‘zaro fikr almashishning samarali usuli hisoblanadi. Zero, tibbiyot sohasiga aloqador bo‘lmagan shaxslar ham nazarda tutilayotgan kasallik yoki uning alomati xususida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘ladilar. Ular bunday imkoniyatga mashhur asar va uning xos qahramoni hamda uning o‘ziga xos belgilari bilan yaqindan tanish bo‘lish orqali erishadilar. Aytish mumkinki, ayni mana shu jihat mifologik va adabiy eponimlarning boshqa eponimlardan ustunligini ta’minlaydi.

Resume. Words characteristic of eponyms also have a mythonymic character. We can see that they are very common in the eponyms used in the oral and written speech of doctors, in particular, mythological and literary eponyms.

Резюме. Слова, характерные для эпонимов, также имеют мифонимический характер. Мы видим, что они очень распространены в эпонимах, употребляемых в устной и письменной речи врачей, в частности, в мифологических и литературных эпонимах.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИНИНГ СИНТАКТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Юлдашев Нормат Темирович,
Термиз давлат университети
ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти

Ижодкор поэтик маҳоратини белгилайдиган мезонлардан бири шеърий нутқнинг синтактик ташкилланиши билан белгиланади. «Шеърий нутқнинг ташкилланишида ўзига хос гап қурилишининг жуда катта хизмати борки, сираси, унинг мусиқий оҳангга эга бўлиши, эмоционал жиҳатдан тўйинтирилиши, таъсирдорлиги кўп жиҳатдан шеърий синтаксис ҳисобига таъминланади»[1]. Шеърий нутқда айниқса, гапларнинг ифодасини маълум бир тартибда тузиш, унда сўзларни танлаш ҳамда уларни шеърий нутқ қурилишида ўз ўрнида маҳорат билан қўллай олиш муҳим аҳамиятга эга. Шеърий нутқ синтаксиси асар тилига образлилик, таъсирчанлик ва жозибадорлик бағишлайди. Маълумки, синтактик даражадаги меъёрдан четга чиқиш асосан шеърий нутқ учун хос. Шу боис адабиётда шеърий ёки поэтик синтаксис деган махсус тушунчалар мавжуд.

«Поэтик синтаксис масалалари ўзбек адабиётшунослигида жуда заиф ўрганилган илмий соҳадир. Ҳолбуки, поэтик нутқ ва унинг шакллари, бадиий кечинманинг ифодаланишида ижодкорнинг маҳорати назарий поэтиканинг долзарб муаммоларини ташкил этади. Чунки бадиий сўз санъатида фавқулоддда поэтик фикр кашфиёти қанчалар муҳим бўлса, ана шу фикрни ўзига хос тарзда ифодалаш ҳам шунчалар аҳамиятли. Мана шу икки жиҳатнинг, бошқача айтганда, шакл ва мазмуннинг уйғунлиги азал-азалдан адабиёт назариясида етакчи мавзу саналиб келади»[2], – деб ёзганди профессор Б.Саримсоқов ўзбек халқининг улуғ шоири Алишер Навоий ҳақидаги мақоласида. Дарҳақиқат, поэтик синтаксис ҳар бир ижодкор асарларининг ўзига хос хусусиятларини намоён эттиради. Поэтик воситалар бадиий асарнинг нутқий қурилиш, ифода усули, грамматик қонун қоидалар асосида сўзларни турли кўринишлар лексик, фонетик, морфологик ва бошқа усуллар орқали янада бадиий таъсирчанлигини оширишдир. Адабиётшунос Т.Бобоев таъкидлаганидек: «Ҳар бир санъаткор асарлари поэтик синтаксисининг ўзига хос хусусиятлари бўлади. Чунки шоирнинг ижодий индивидуаллиги унинг асарлари поэтикасида чукур из қолдиради. Масалага шу нуктаи назардан қараганда Алишер Навоий, Заҳириддин Мухаммад Бобур, Муқимий, Фуркат, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Чўлпон, Фитрат, Усмон Носир, Ғафур Ғулом, Ҳамид Олимжон, Ойбек, Миртемир, Мақсуд Шайхзода, Зулфия, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов каби шоирлар асарларининг поэтик синтаксиси ўзига хослиги билан бир-бирларидан ажралиб туради»[3]. Чўлпон ижодий «янгилик қидириш»ини ҳаттоки, унинг сўзида, шеърий матн қурилишида, синтактик бўлакларнинг ўзига хос ифодалашида ҳам намоён бўлади. Шу боисдан Чўлпон поэтик нутқ синтактик сатҳини мазмун ва шакл жиҳатдан янгилаб ўзига хос шеърий шакллар яратди.

Чўлпон шеъриятида кучайтирувчи поэтик фигураларнинг фаоллиги кузатилиб, улар шоир шеърларида лирик қаҳрамон ҳис-туйғуларини кучайтириш, бўрттириш ва нутқий ўзгаришларнинг ошишига хизмат қилган. Маълумки, мустабид тузум даврида яшаган шоир бутун нафрати, дард-аламларини Сўзда ифодалар экан, ҳар бир шеърида миллатни уйғотиш, Истиқлол орзуси умидлари билан яшади. Шу боис унинг шеърияти Эркка ҳайқириқдан иборат. Унинг ушбу мақсади ҳар бир шеърида риторик сўроқ, риторик мурожаат каби поэтик фигураларни қўллаши билан намоён бўлди.

Кўнглимда йиғлаган малаклар кимлар,
Шарқнинг оналари, жувонларими?
Қаршимда инглаган бу жонлар кимлар,
Қуллар ўлкасининг инсонларими?

* * *

Нега мен сезмадим? Ўт эмасмиди?
Шул ўт ичидаги мен эмасмидим?

[1] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Universal – Ziyo, 2020. – 213 b.

[2] Саримсоқов Б. Алишер Навоий поэтик синтаксисидаги бир усул хусусида // ҳ-даврон.уз/кутуб.

[3] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 422.

Каъбамга осилган бут эмасмиди?
Бутни Тангри деган мен эмасмидим?

Ушбу шеърий парчаларда шоирнинг аламли сўроғи жавоб берилишини талаб қилмайди. «Амалнинг ўлими» деб номланган юқоридаги шеърнинг ҳар банди, яъни бошидан охиригача риторик сўроқ асосида тузилган. Таъкидлаш жоизки, Чўлпон шеъриятида такрор ва риторик сўроқ стилистик фигуралари поэтик параллелизм билан ёндош қўлланади. Юқорида келтирилган мисолларда ҳам айни шу ҳолат намоён бўлган. Биринчи парчада «Кўнглимда йиғлаган малаклар» билан «Қаршимда инглаган бу жонлар», иккинчи парчада «Ўт эмасмиди?» билан «Каъбамга осилган бут эмасмиди» ўзаро синтактик параллелизм ҳосил қилиб шеърий матнга маънодорлик, оҳангдорлик, таъсирчанлик бағишлайди.

Ҳар қайси шоир ўзи яшаб турган даврда жамиятда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларга шунчаки қараб турмайди. Файласуф шоир Абдулла Орипов айтганидек: «Қайга ҳам кетардим асримдан нари!». Бу илмий тилда тарихийлик принципи деб аталади. Чўлпон ҳам давридан узоқлашмади, унинг шеърлари эрк ва озодлик, тараққиёт истаётган, янгиланиш истаётган халқнинг овози бўлиб жаранглади. Унинг «Бузилган ўлкага», «Ёнғин», «Оғриганда», «Кўклам қайғиси» каби қатор шеърлари деярли риторик сўроқлардан иборат. Бизнингча, бу ҳам бевосита Чўлпон бадиий оламининг мазмун-моҳиятидан келиб чиқади. Чунки замонавий тараққиёт йўлига кирган халқнинг, унинг овози бўлган шоирнинг дунёга, одамларга, ўз халқига, ўзига айтадиганлари жуда кўп эди. Риторик сўроқ унинг таъкидлари, гиналари, ҳайқириқларини ифода этиш учун энг мақбул синтактик ифода шакли эди.

Айниқса, поэтик кўчим воситаларига асосланган «Бинафша» шеърида риторик сўроқ орқали шоир юрт бошига тушган кулфатларни, Ватан озодлиги ғояси ва ўзининг истиқлол орзусини ниҳоятда кучли таъкид оҳангида таъсирчан ифодалайди:

Бинафша, сенмисан, бинафша, сенми
Кўчада оқчага сотилган?
Бинафша менманми, бинафша, менми
Севгингга, қайгингга тутилган?
Бинафша, нимага бир озроқ очилмай,
Бир эркин кулмасдан узилдинг?
Бинафша, нимага ҳидларинг сочилмай
Ерларга эгилдинг, чўзилдинг?

Риторик сўроқ одатда шеърда «...нутқ безаги, эммоционал муносабатни кучайтириш, фикрни таъкидлаб ифодалаш каби мақсадларга хизмат қилади»[1]. Шу жиҳатдан юқоридаги шеърларда шоир ўзининг эрк ва истиқлол ғоялари ифодасини таъкидлаш, босқинчилар зулмига бутун нафратини кўрсатиш учун кучайтирув оҳангини риторик сўроқ воситасида берганини кўрамиз.

Шунингдек, Чўлпон шеъриятида риторик сўроқ билан бирга **риторик мурожаат**нинг фаоллиги ҳам кузатилади. Риторик мурожаат – бадиий ундалма. Жонли сўзлашувда ундалма нутқ қаратилган шахснинг муайян жавоб ҳаракатини (диққатини жалб этиш, гапирувчига қараш, яқинлашиш ва б.) талаб қилади. Яъни, худди риторик сўроқ жавоб талаб қилмагани каби, риторик мурожаат ҳам мос реакцияни талаб қилмайди, нутқни безаш, муайян кайфият ё ҳиссий муносабатни ифодалаш воситаси бўлибгина хизмат қилади[2]. Риторик сўроқ гапнинг баҳолаш оттенкаси бирмунча чегараланганлигини кузатиш мумкин. Унда муаллиф фақат берилган мазмунининг аксига қўшилади. Ўз фикрини шу тартибда тасдиқлайди. Риторик мурожаатда эса бунинг кенгроқ планда эканлиги сезилади. Чўлпон ўзи яшаб турган ижтимоий муҳитни, юртнинг аҳволини ёритиш мақсадида ушбу усулни қўллаб, айрим ижтимоий қатлам вакилларга мурожаат қилади:

Ҳой, оч камбағал!
Чиқ ертўладан!...
Ай тутқинлар, *ай эзилган,*
Ай қийналган йўқсил эллар,
Ай бевалар, *бечоралар,*
Ай боғланган кишанларга....
Ай! *Сен мени қул ўрнида ишлатгувчи афанди*
Титра, қўрқким, боглиқ қулинг бош кўтарган куч энди.

Асл мақсад мурожаат ҳам эмас, чунки шоир мурожаат қилаётган кишиларнинг ҳаммаси, охирги икки мисрани истисно қилганда, бир тоифадан – мустамлака эл одамлари. Шоир мурожаатлар қатори орқали аслида ўша элнинг зору ҳақир ҳолини баён қиляпти, ҳар тарафлама зулм кўрганини таъкидлаяпти, уларга ҳамдардлигини изҳор қиляпти. Бир элнинг очлиги, қийналгани, эзилгани, тутқинлиги, йўқсиллиги, аёлларнинг эрларидан ажралиб тул қолгани, бечоралиги, кишанларга боғланганига сабаб бўлган «қул ўрнида ишлатгувчи афанди»га нафрат сочяпти, зулм кўрган бечораларни унга қарши курашга чорлаяпти: «чиқ ертўладан!»

Ўзбек аёллари тақдири Чўлпон шеъриятидаги етакчи мавзулардан биридир. Ўз мурожаатида шоирнинг лирик қаҳрамони аёлларнинг тутқун-

[1] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 255.
[2] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 255.

ликдан озод бўлишини, уларнинг қадр қиммати ва эркинлик истаги топталмаслиги учун мурожаат қилади:

Эй денгизнинг сувларидан қудрат олган ботир қиз,
Кел, шундаги тутқун қизга ёлборайлик иккимиз.

Чўлпон шеъриятида фаол қўлланилган риторик сўроқ ва риторик мурожаатлар шоирнинг қалбидаги исён, миллатни уйғотишга қаратилган давъат сифатида ундаш, чақириш оҳангларига эга бўлиб бадиий матнда маънони таъкидлаш, таъсирчанликни оширишга хизмат қилувчи муҳим поэтик восита саналади.

Шоирнинг бундай риторик мурожаат қилиш усулига яқин синтактик шакл – **апострофа** (юн. apostrophe – бир томон оғиш) – жонивор, жонсиз нарса ёки ҳодисага худди жонли мавжудотга мурожаат қилган каби мурожаат этиш асосида юзага келувчи стилистик фигура[1] фаол қўлланилган. Айниқса, шоир табиат ҳодисаларига, макон ва вақтга жонли мавжудотга мурожаат қилгандек сўзлайди. Шоирнинг табиат унсурларидан булут, юлдуз, капалакка мурожаати кўп учрайди:

Кўзимда сен каби уйқу йўқ, ай булут,
Истайман ўлимдан умрли бир сукут!!!
Алвидо, эй кўчоққа сиғмас ер!
Алвидо, эй кўкатга кўкрак қир!..

* * *

Гўзал Туркистон, *сенга не бўлди?*
Саҳар вақтида гулларинг сўлди.
Чаманлар барбод, қушлар ҳам фарёд,
Ҳаммаси маҳзун, бўлмасми дил шод?
Билмам, не учун қушлар учмас боғчаларингда?....

Кучайтирувчи поэтик фигуралардан бири бўлган **градация** ((лот. gradatio – изчил кучаймоқ) – мазмунни изчил кучайтириб боришга асосланган стилистик фигура) шоир шеърларида ўзига хос тарзда қўлланилади. Шу жиҳатдан унинг «Табиатнинг жавоби» шеърида мазкур поэтик фигура маънони кучайтиришнинг кетма-кетлигига асосланади:

«Мен жилмайсам,
Ўрмонлар куладир,
Ўрмонлар кулганда,

Енгил жониворки бор, қаерда бўлса ҳам, қанотларини оёқ ясаб ўрмонларнинг қуюқ қучоқларига **югурадир,** юзини бокира япроқларга **ўгирадир»**.

Одатда, градация эркин шеърда, оқ шеърда, сочма шеърда кўпроқ учрайди[2]. Чўлпоннинг сочма шеърларида ҳам етакчи поэтик фигуралардан бири саналади.

– Ҳаво бузуқ!..
– Кўк юзида қоп-қора
– Кўмир каби қатор-қатор булутлар;

Чўлпоннинг ушбу сочма шеърида шоир воқеалар рўй бериш кетма-кетлигини кучайтириб тасвирлаш орқали инсон табиатнинг ажралмас бир бўлаги эканини, улар муносабатининг давомийлиги ҳақида ёзади. Шоир мазкур шеърда сўзларни даражама-даража тузади:

Ай эси ел,
Кўкраги сил,
Туйғуси сел шоир!..

Шоир мазкур шеърда климакс билан бир қаторда антиклимаксни ҳам қўллаган. Маълумки, градациянинг климакс турида тасвир кучайтириб берилиши, антимакс турида эса унинг сусайтириб борилишига асосланади.

Кўринган не – **туш,**
Жилмайган не – **алдаш,**
Чорлаган не – **сароб...**
Сароб деб ўрганган шоир!
Сезгинг – **вайрон,**
Тушунчанг – **хароб,**
Борлигинг «ваҳм» билан чириган!

Туш, алдаш, сароб ва вайрон, хароб сўзларини қўллашда лирик қаҳрамоннинг руҳиятидаги кечинмалар сусайиб, унинг эҳтиролари пасайтириб берилади.

Чўлпон ижодида пейзаж лирикаси етакчи бўлганлиги сабабли унинг градация усулига асосланган мисраларида табиат ҳодисалари юз бериши кетма-кет кучайтириш билан берилганини кўришимиз мумкин:

Кўк гуриллар, сел ёғар, дўллар қучар, тўфон босар,

Қум кўчар...Тоғлар қадар қумлар кўчар...йўлни тўсар.

Чўлпон шеърларида градация лирик қаҳрамон руҳиятини, ҳис-туйғуларини чуқурроқ очишга хизмат қилувчи поэтик фигуралардаан биридир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Чўлпон шеъриятининг тилини лингвопоэтик жиҳатдан тадқиқ этиш жараёнида кўриб ўтдикки, унинг троплар билан бирга поэтик фигураларни ўринли қўллаши, поэтик усул ва воситаларни яхши билиши ва ўз шеърларида улардан моҳирона фойдалана олишининг гувоҳи бўламиз. Таҳлил жараёнида шоир асарларида поэтик синтаксис воситаларининг кенг қамровлиги, бадиийликни таъминлашда етакчилиги маълум бўлди.

[1] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. — Б. 32.
[2] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 428.

Resume: The article discusses the syntactic and stylistic construction of Cholpon's poetry. In this, the function of stylistic figures such as rhetorical question, rhetorical appeal, asostrophe, and gradation in the organization of poetic speech is investigated.

Резюме: В статье рассматривается синтаксическое и стилистическое построение поэзии Чулпана. При этом исследуется функция таких стилистических фигур, как риторический вопрос, риторическое обращение, асострофа, градация в организации поэтической речи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY ASAR STRUKTURASIDA MIFLAR VA IJODKOR CHINGIZ AYTMATOVNING FALSAFIY-IJTIMOIY KONSEPSIYASI

Muxtorova Umida Tolib qizi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Badiiy asar tarkibiga kiritilgan mifologizmlar, afsona va rivoyatlar ijodkor g'oyaviy-estetik idealiga, u ilgari surayotgan ma'lum bir konsepsiyani asoslashga xizmat qiladi. Demak, aytish mumkinki, mifologik motivlar, miflarni interpretatsiya qilish har qanday davr ijtimoiy-tarixiy, maishiy hayotini majoziy holda chuqur tasvirlash imkonini oshirsa oshiradiki, aslo realizmdan chalg'itmaydi. Ch.Aytmatov professor Pirmat Shermuhammayedov bilan suhbatida «Rivoyatlar, afsonalar, miflar ulkan ijtimoiy- siyosiy «yuk» tashisagina asarning badiiy to'qimasidan o'rin olishi mumkin. Tomas Mann va Gabriel Markeslar ijodi buning yaqqol dalilidir»,[1] - deydi. Ma'lum bo'ladiki, ulug' turkiy adib mif va folklorning individual badiiy asar matnidan o'rin olishini xos usullardan biri sifatida qadrlaydi. Ammo uning asarning bosh leytmotivi, poetik g'oyasi bilan aloqasini muhim deb biladi.

Chingiz Aytmatov ijodi haqida o'zbek adabiyotshunoslari yoki ijodkorlari yaratgan ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarda u yoki bu darajada bo'lsin, ulkan donishmandlik nuri bilan bezangan va asarlari tarkibida mohirona kuylangan mifologik hodisotlar albatta o'zining munosib o'rnini egallagan bo'ladi. Masalan, Aytmatovning 90 yilligi munosabati bilan nashr etilgan «Chingiz Aytmatov va O'zbekiston» (Toshket, 2018) to'plamidan o'rin olgan Ibrohim G'ofurovning «Eski va yangi rivoyatlar» (55-61-b.), Qozoqboy Yo'ldoshevning «Manqurtlik ruhiy-estetik tushuncha sifatida» (180-192-b.), Abdulla Ulug'ovning «Afsonalar haqiqati» (238-254-b.) nomli maqolalari Aytmatov ijodi mifologizmi masalalarining turli qirralariga bag'ishlangan.

Chingiz Aytmatov asarlarida insoniy xarakterlarning kata turkumi yaratilgan. Shu bilan birga, bu adibning asarlari tarkibida qalamga olingan mifologik obrazlar ham o'z mavqei, ulug'vor ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ma'naviy masalalar talqinidagi ahamiyati bilan e'tiborni tortadi. Baymoq kampir, Xon («Oq kema»), Nayman ona, Jo'lomon («Asrga tatigulik kun») kabi kishilar bilan birga, hayvonot, parrandalar, o't-giyohlar, toshlar, haykallar kabi odamzotdan o'zga narsalarning jonlantirilgan timsollarini shu tizimda tasavvur etmoq mumkin. Adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov Aytmatov naql qilgan afsonalardagi voqealar hayotiyligi bilan diqqatni tortishini ta'kidlaydi. «Shoxdor ona bug'u, u ulg'aytirgan bola va qizaloq, Nayman ona, uning manqurt o'g'li Jo'lomon, Raymali og'a va Begimoy, Iso (a.s.) va Pontiy Pilat, Chingizxon, Erdene va Do'g'ulang, Cho'ri ayol Oltun, hasadgo'ylar fitnasi bois bir-biriga yetolmagan ovchi yigit va qiz obrazi juda ta'sirchan yaratilgan». Adabiyotshunosga ko'ra, aytmatov asarlarida afsonalar naql qilingan bo'lsada, qahramonlarning boshdan kechirganlari real hayotda bo'lgan kabi o'quchini o'yga toldiradi [2].

«Oq kema» qissasida rivoyat, real hayot – rivoyat konsepsiyasi asosiga qurilgan syujet va kompozitsi-

[1] Shermuhammedov P. E'tiqod – ma'naviyat mezoni (Chingiz Aytmatov huzurida) // «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 1987 yil, 1 yanvar, 1-son.

[2] Ulug'ov A. Afsonalar haqiqati. Chingiz Aytmatov va O'zbekiston. Xotira kitobi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018. – 254 b.

ya modeli zuhur etadi. Masalan, shoxdor Ona bug‘i haqidagi rivoyatning ming yillar avvalgi holati – ikki qirg‘iz bolasini dushmanlardan himoya qilib, olis Sibir bag‘ridagi Enasoy daryosi, Boyko‘l bo‘ylaridagi Issiqko‘lgacha olib kelgan voqeligi endi XX asr bag‘rida, Sho‘ro mustabid siyosati jarayonida davom etadi.

Olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda eng ko‘p o‘qiladigan Chingiz Aytmatov asarlari orasida «Oq kema» qissasining o‘rni va mashhurligi alohida ahamiyatga ega. Jumladan, bu allaqachon shakllangan o‘zbek aytmatovshunosligida yaratilgan maqolalar va risolalar misolida ham o‘z tasdig‘ini topadi[1].

Bunday ilmiy axborot shaklidagi ishlarda qissaning umummundarijasi, g‘oyaviy pafosi haqida fikr yuritiladi, Oq kema va shoxdor ona bug‘i bilan og‘liq mifologik hodisalar qayd qilinadi, ammo, adibning mifopoetik san’atkorligi haqida batafsil fikr yuritilmaydi.

To‘g‘ri, jahon adabiyotshunosligida, jumladan, Rossiya Federatsiyasi aytmatovshunosligida Ch.Aytmatov ijodi har tomonlama o‘rganilayotganligi, jumladan, «Oq kema» qissasini mifopoetik aspektda ilmiy tadqiq qilinayotganligini kuzatish mumkin[2].

«Oq kema» qissasining ikkinchi nomi ham bor: «Ertakdan so‘ng». Mana shu ikkinchi nomning o‘ziyoq asarning mifopoetika namunasi ekangia ishora qiladi. Asarning boshidayoq, bosh qahramon – Bolaning ikki ertagi bo‘lgani, birini bobosi so‘zlab bergani, ikkinchisi esa uning o‘z xayoloti mahsuli bo‘lib, boshqalar undan xabardor emasligi ta’kidlanadi. Aymatov asar boshidayoq o‘quvchini qiziqtirib «Keyin ertaklarning birortasi ham qolmadi. Gap shu haqda»[3] deydi. Demak, asar hayot va mifologik tasavvur to‘qnashuvi haqida.

Bu ikki ertakning biri – ona bug‘u haqida, uni bobo so‘zlab bergan. Oq kema haqidagi ikkinchisini esa bolaning o‘zi to‘qigan. Har ikki ertak bir-birini to‘ldiradi, bir-birining davomi kabi idrok etiladi. Yozuvchi shu tariqa zamonaviy odam hayoti haqidagi syujetga ikki mifni ustalik bilan uyg‘unlashtirib yuboradi.

Adabiyotshunos va adabiy tanqidchi L.Yakimenkoning yozishicha, ona bug‘u haqidagi afsona bug‘ularning qo‘riqxonaga qaytib kelishi va qaytadan qatl etilishi bilan davom etadi. Real voqelik va afsona shu tariqa chatishib ketadi. Yozuvchi g‘ayriinsoniy illatlar, tabiatga tajovuz kabi foje hodisalarni ana shu uyg‘unlikda o‘quchiga taqdim etadi [4].

Ch.Aytmatov asarlaridagi eng muhim g‘oyaviy motivlardan, badiiy-estetik uslublardan biri bola obrazi, bolakayning ma’naviy olami bilan bog‘liq talqinlar sifatida namoyon bo‘ladi. Adib «O‘zim haqida qaydlar» nomli tarjimayi holga oid maqolasida yozgan edi: «Bolalik nafaqat beg‘ubor va sharafli olam, balki bolalik - insoniy shaxsiyat kelajagining yadrosi, javharidir. Aynan bolalik davrida odamning ona tilisi haqidagi bilim-ko‘nikmalari, aynan shu davrda hech bir kishining uni o‘rab turgan muhitga, ota tabiatga, milliy madaniyatga munosabat va tushunchalari shakllanadi»[5]. «Oq kema» qissasida yetakchi qahramon bola timsoli orqali olamni idrok etish, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik muvozanatini anglash, bolalarcha tushunish masalasi yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, asardan o‘rin olgan rivoyatlar ishtirokchisi ham shu bolakaydir.

Bolakayning cheksiz beg‘ubor orzular olami adibga chin realistik uslubda shafqatsiz olam nohaqliklarini badiiy talqin etish imkonini bergan. Bunda bola barchaga zahar solib, o‘z aytganiga bo‘ysundirib yuradigan yovuz qiyofali O‘rozqul timsoli orqali o‘zining beg‘ubor nafratini to‘kib soladi. Bu yaramas kimsa – o‘rmon qorovuli degan oddiy, ammo, g‘oyat zug‘umli mansab egasi bo‘lgan O‘rozqulning qilg‘iliklari haqida idealidagi pokiza tuyg‘uni otasiga gapirib beradi.

Asarda mifologik talqin obyektlari o‘zaro bir-biri bilan aralash, sinkretik usulda namoyon bo‘ladi. Bola Oq kema xayoli bilan birga, olis tarixdagi qirg‘izlar hayoti bilan bog‘liq tarixiy-mifologik voqelikni ham aralash holda tasavvur qiladi. Navbatdagi qirg‘in-barot urushida dushman qirg‘iz elatini tamoman qirib tashlash kabi yovuzona niyat bilan bostirib keladi. Va qora niyatiga yetadiyam. Bolalar – biri o‘g‘il va biri qiz – ertalab o‘rmonga ketishgan, qirg‘in-barot urushdan xabarlari ham yo‘q edi. Dushmanlar nihoyatda

[1] Masalan, qarang: Salomov G‘. «Oq kema»ni o‘qib // «Sovet O‘zbekistoni» gazetasi. 1972 yil, 14 may; Salomov G‘. Ona bug‘i haqida qo‘shiq // «Toshkent oqshomi» gazetasi. 1972-yil, 18-aprel; Salomov G‘. Odamoxun bola haqida qissa // «Toshkent oqshomi» gazetasi. 1972-yil, 28-iyul; Shodiyev N. Assalom, oq paroxod // «Toshkent oqshomi» gazetasi. 1970 yil, 26 may; Rashidov A. «Oq kema»ning oydin so‘zi // «An’ana va zamonaviylik (ilmiy to‘plam). – Toshkent, 2007; Rashidov A. Sevgi...dan «Oq kema»gacha // «Sovet O‘zbekistoni» gazetasi. 1972, 2 son; Rashidov A.Hayot va nafosat ramzi // Rashidov A. So‘nmas yulduzlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – 230-240 b.; G‘aniyev I., Ibragimov R. «Oq kema» yoxud hayot va najot kemasi // G‘aniyev I., Ibragimov R. Chingiz Aytmatov va XXI asr. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 9-25 b.

[2] Masalan, qarang: Пу Сяо Лун. Авторская концепция национального характера в прозе Чингиза Айтматова. Автореферат на дисс... кан.фил.наук. – Москва, 1993; Пэн Мэй. Изучение творчество Чингиза Айтматова в Китае. Автореферат дисс... канд.фил.наук. – Бишкек, 1996; Линскина М. Фольклорно-мифологические мотивы в прозе Чингиза Айтматова: Автореферат дисс... канд.фил.наук. – Томск, 2003; Ву Цзя Мин. Поэтика мифологизма в творчестве Чингиза Айтматова: на материале «Белый пароход», «Песий пес, бегуший края моря», «И дольше веа длится день...»: Автореферат магистра гуман.наук. – Тайвань, Тайбэй, 2006.

[3] Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. – 192 b.

[4] Якименко Л. Поэтика современнқх романов. Журнал «Дружба народов». 1971, №6. – С. 137.

[5] Айтматов Ч. Эхо мира. Повести, рассказы, публицистика. – М.: Правда, 1985. – С. 446.

boy o‘lja olib qaytar ekanlar, o‘rmonga bir o‘g‘il va bir qiz – ikki bolaning qanday qilib kelganini hatto payqashmaydi. Bolalar o‘ynay-o‘ynay o‘rmonning chuqur ichkarisiga kirib qoladilar. Tezda orqaga qaytadilar va urush shovqin-suronini eshitadilar. Ammo na ota-ona, na aka-opa topiladi. Ikki bola ota-onadan, yaqinlaridan judo bo‘lganini anglab, to‘rt tarafga chopar, ammo hech kim yo‘q edi. Bolalar bir lahzada yetim bo‘lib qolishgandi.

Adib bunday ayanchli manzara bilan asrlar davomida O‘g‘uzxon bobosi ajdodlarining dushmanlar tomonidan naqadar talanganligini bolakaylar ko‘z oldida teran jonlantirib, Vatanga mehr, dushmanga nafrat tuyg‘ularini shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Qattol dushmanlar beg‘ubor bolalarning tilidan kim ekanliklarini darrov payqab qolishadi. G‘azab ila baqiradilar, ikki bolani omon qoldirish kerakmi yoki o‘ldirish kerakmi, yo hukmdorning oldiga olib borish kerakmi degan mazmunda bahs qilib ketadilar. Shu asno bir ayol bolalarga pishgan go‘sht beradi. Bolalarni xon huzuriga olib ketadilar. Bolalarni dahshatli xon o‘toviga olib borishadi. Tevarak-atrofga sirli ravishda paydo bo‘lgan qirg‘izlar haqidagi tashvishli xabar tarqalgan edi. Nimalar bo‘lyapti? Odamlar yumushini tashlab, o‘sha yoqqa otiladi. Xon oppoq namatda, asal va qimiz yeb-ichib, o‘zini madh etadigan ashulalarni eshitib maza qilib o‘tirardi. Odamlarni ko‘rib, hukmdorning g‘azabi qaynaydi, Cho‘tir baymoq kampirga bolalarni o‘ldirib, butun qirg‘iz qavmini yo‘qotib yuborishni buyuradi. Qirg‘iz nomi yer yuzidan butunlay o‘chishini istaydi u.

Rivoyat shunchaki ertak syujetlaridan iborat qiziqarli rakursi bilangina emas, balki adib Aytmatov Ona bug‘i haqidagi bu mumtoz rivoyat orqali g‘oyat dolzarb zamonaviy muammolar, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma’naviy masalalar haqida fikr yuritadi. Bu urushlarga, birovning yeri va boyligiga ko‘z olaytirish bilan bog‘liq bosqinchiliklarga nafrat ruhini shakllantirish, yosh avlod ko‘nglida o‘zaro do‘stlik, barcha xalqlar bilan hamnafas bo‘lish tuyg‘usini yuksaltirish maqsadi bilan bog‘liq niyatlardir.

Cho‘tir Baymoq kampir bolalarni o‘rmon narisidan oqib o‘tuvchi Enasoy daryosi bo‘yiga olib boradi. U daryoga nola qilib, bolalarni o‘z bag‘riga olishini so‘raydi. Yozuvchi bosqinchilardan, ularning yovuz xonidan shu shum kampirning ham nechog‘li insoniy ma’naviyatga ega ekanligini, bolaginalar ular qalbida rahm-shafqat uyg‘onganligini ta’kidlamoqchi. Odatda, shum ertaklar yoki rivoyatlarda yalmog‘iz kampirlar yovuzlik timsoli, yaxshi kishilar dushmani, ezgulik kushandasi sifatida tasvirlanadi. Yomonlik va munofiqlik timsolidagi kishilarni ham inson sifatida ko‘rishni buyuk gumanistik adabiy tamoyiliga aylantirgan Aytmatov bu o‘rinda yalmog‘izsifat Baymoq kampirni rahm-shafqatli ayol sifatida talqin etgan. Bolalarni jarga itarib, ularni bu g‘amg‘osh va yovuz dunyo azoblaridan xalos qilishga chog‘langan vaqt ularning yonida Ona bug‘i paydo bo‘lib qolib, bolaginalarni o‘limga mahkum etib, gunohga qolmasligini, ularning o‘ziga berishini aytadi.

Ona bug‘u bolalarni emizib boqadi. Bolalar kuch oladilar. Bug‘u ularni olis-olislarga - Issiqko‘l degan tiniq suvli ko‘l bo‘ylariga olib boradi. Aytmatov bu o‘rinda dunyo xalqlarining ko‘pchiligida shu xalqning kelib chiqishi ma’lum jonivor nomi bilan bog‘liqligini nazarda tutib, qirg‘izlarning Ona bug‘i avlodi ekanligini ta’kidlamoqchi. Umuman turkiy xalqu elatlar orasida asli ularning kelib chiqishi bo‘ri avlodi bilan bog‘liqligini ham nazarda tutish mumkin. Buni Aytmatov «Qiyomat» romanida tasvirlagan Oqbora va Toshchaynar otli bo‘rilar obrazi orqali ko‘rsatgan.

Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» nomli mo‘jaz hajmli romanida Aytmatov asarlariga g‘oyaviy, badiiy, mifologik va hatto, ilohiy motivlar ko‘lami jihatdan mushtarak tomonlarni kuzatish mumkin. Masalan, shulardan biri - barcha turkiy xalqlar, Turonzamin muzofotiga xos umumiy aziyatli tarix -bosqinchilar hujumi va ularga qarshi kurash, xarobaga aylantirilgan ona yerimiz, noyob osori-atiqalarimiz, oyoqosti qilingan ma’naviy va milliy-etnik qadriyatlarimiz bilan bog‘liq manzaralar talqini shulardan biri. Masalan, Enasoy daryosi bo‘ylaridagi qirg‘iz elatini talagan ham, I.Sulton romanidagi Shahri Haybar yer bilan yakson qilgan ham eroniylardan, greklardan, arablardan oldingi davrda o‘lkamizga son-sanoqsiz hujum qilgan Haydar kokilli qora xitoylar bo‘lgan. «Bu shahar chinlarning Xangzu (Changzu) qabilasining bosqini paytida g‘oyib bo‘lgan, degan taxmin bor. Biroq u mahallar shaharning nomi boshqa bo‘lgan. Haybar ismini unga arablar berganlar»[1].

«Shahri Haybar» yorlig‘i bilan ataladigan bunday asli obod bo‘lib, so‘ngra bosqinchilar tomonidan vayron etilgan makonlar Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham ko‘plab uchraydi. «Boqiy darbadar» romanidagi Shahri Haybar shulardan biri.

Enasoy bo‘ylaridagi qirg‘iz elining xarobalikka aylantirilgan makoni bilan madaniy hayot gullagan Shahri Haybarning oyoqosti qilingan va go‘yo abadiy tushkunlikka, yemirilishga yuz tutgan ahvoli o‘rtasida omonsiz bosqinlardan zada yurtlar ahvoli o‘zaro mushtarakdir.

«Oq kema» qissasida g‘aroyib bir qush enasoyliklar ustiga bostirib kelayotgan balo-qazodan xabar beradi. U odam ovoziga o‘xshash ayanchli ovoz bilan tinimsiz sayrar va hatto yig‘lardi. U katta baxtsizlik bo‘ladi, deya chirqirar va pirovardida o‘shanday qora kun keladi ham [2].

[1] Sulton I. Boqiy darbadar. Roman // «Sharq yulduzi» jurnali. 2010-yil, 6-son. – 33 b.

[2] Aytmatov Ch.Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. – 231 b.

«Boqiy darbadar» romanida yozuvchi maxsus urg‘u berib «Xitoydan kelgan»ligini ta’kidlaydigan qora chumchuqlar tasviri mavjud. Ular ham aziyat va qora taqdir darakchilari. «Etikdo‘z bugun azonda kulbasining yonidagi daraxt shoxlaridan qop-qora chumchuqlar to‘planib olganini ko‘rdi. Boshqa daraxtlarda chumchuqlar yo‘q edi. Bular esa aynan uning loysuvoq uyining yoniga to‘planishgan, na ovoz chiqarar, na don-dun terar, faqat sinchkov boqishar va nimanidir kutishardi»[1].

I.Sulton romanida voqealar aro ilohiy kuch-qudrati sezilib turadigan donishmand Hazrat obrazi bor. Uning bashoratlari hamisha to‘g‘ri chiqadi: «Hazrat degan ediki, oyning o‘n uchinchi kunida, Juma kuni uchib keladigan qora chumchuqlar aslida mudhish va qattol bir qag‘ishning yukini olib kelishadi»[2]. Boqiy darbadarlikka mahkum etilgan Etikdo‘z Allohning Muborak Kishisini itarib yuborgani, holsizlanib paxsa devoriga suyanib qolganda noinsoniy qiliqni sodir etganligi boshidan to qiyomatgacha itdek tentirab, darbadar izg‘ish kabi og‘ir taqdirga giriftor etilgan. Aytmatov asarlariga xos bu kabi adabiy yoki mifologik mushtarakliklar o‘zbek yozuvchilari ijodida ko‘plab uchraydi.

«Oq kema»da Ona bug‘i ikki bolakayni ustiga mindirib, olis Issiqko‘l bo‘ylariga tomon yelib ketadi. Enasoy orqada qolib boraveradi, Issiqko‘lgacha juda uzoq edi. Nihoyatda ko‘p yo‘l bosadilar. To‘rt fasl yo‘l yurib, cho‘llaru tog‘lardan, o‘rmonu daryolardan o‘tadilar. Izlaridan bo‘rilar galasi quvadi, ona bug‘u bolalarni undan qutqaradi. Ovchilar ularga o‘q otadilar va bug‘u odam bolasini o‘g‘irlab ketyapti, deb baqirgancha odamlarni hayvonni tutishga undaydilar. Ammo ona bug‘u bolalarni olib yugurgancha Issiqko‘lga keladi. Bu yerni ularga yangi vataningiz bo‘ladi, deb tanishtiradi. U shunday deydi: «mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutsizlar, mol-hol qilasizlar. Ming yillarcha tinch-totuv yashanglar. Ha, sizning avlodingiz yashaydi, ko‘payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutmaydi. Ularga o‘z ona tillarida so‘ylash va kuylash yoqimli bo‘ladi. Insonlarga qanday yashash lozim bo‘lsa, shunday yashanglar...»[3].

Ch.Aytmatov shu tariqa mifopoetik talqinlar asnosi asrlar osha inson va tabiat munosabatlari konsepsiyasi tizimidagi ekologik yemirilishlar, insonning qora nafsi taqozosi bilan hayvonot va nabotot olamini qora nafs qurboniga aylantirish masalasidagi dardli qarashlarini olg‘a suradi.

Ma’lumki, yangi o‘zbek nasri namunalarida qadimiy mumtoz adabiy an’analarni tiklash, hatto insoniyatning azaliy makoni bo‘lgan koinotga intilish g‘oyasi, qadim mif va asotirlarni zamonaviy kontekstda interpretatsiya qilish, folklorizmlar va folklor modelidan foydalanish, jahon adibllari tajribasidan o‘tgan ilg‘or tasvir usullarini milliy adabiyot bilan uyg‘unlashtirish ko‘zga tashlanadi.

Mumtoz o‘zbek adabiyoti va modern adabiy usullaridan sinkretik tarzda foydalanish borasida Xurshid Do‘stmuhammad izlanishlari e’tiborni tortadi. Uning «Panoh», «Nigoh», «Chayongul», «Hijronim mingdir mening», «Oromkursi», «So‘roq», «Men-sensiz, sen mensiz» «Kuzda...» kabi qissalari milliy nasrimizning o‘ziga xos betakror namunalari sifatida qabul qilindi. Ijodiy jarayonda ilohiy-diniy va mifologik motivlar imkoniyatidan unumli foydalanishda bu asarlar o‘ziga xos namuna maqomiga ega. Xurshid Do‘stmuhammad «Bozor» romanida Sharqu G‘arb adabiy rakurslariga xos jozibador xarakterdagi mifdan unumli foydalangan. Masalan, «Oqbo‘zot va Ko‘kbo‘zot» haqidagi «rivoyat» deb berilgan mif tarixiy asoslari jihatidan qadimgi turk mifologiyasi bilan aloqadordir. Bu ancha mufassal ravishda folklorshunoslikda munosib o‘rganilgan. «Bozor» romanida «Abadiy borliq qarshisida insonning umri qatradir», degan fikrni ta’kidlash, roman dramatizm va syujet dinamikasini kuchaytirish, ma’no-mazmunini teranlashtirish maqsadida muayyan shakllanish va takomillashish boschiqini o‘tagan afsonaga murojaat qilinadi.

Roman markaziy obrazlaridan biri Fozilbek nomi asar markaziy g‘oyaviy pafosini ifodalashi bilan alohida g‘oyaviy nagruzka tashiydi. Fozillik-olimlik, donishmandlik timsoli, qolaversa, ilmiy darajalarsiz jaydari donolik, ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalar tarafdori kabi harakat qiladi. Ch.Aytmatov «Oq kema» qissasining yetakchi qahramonlaridan Mo‘min bobo timsolida mushfiq, mutelik, bo‘ysunuvchanlik, ko‘nuvchanlik, beozorlik xususiyatlarini mujassamlashtirgan.

«Och bo‘rilarning qo‘sh baytalni quvib yetishi» bilan bog‘liq afsonaga ishora fantastik libosda bo‘lsada, tarixiy voqelik ifodasiga xizmat qildirilgan. Bu afsona «Birinchi muallim» qissasida tunda Duyshen mingan otni och bo‘rilar galasining quvib yetishi voqeasini eslatadi. X.Do‘stmuhammad bu kabi xarakteli voqelikdan Aytmatov kabi muhim ijtimoiy xulosa chiqarish usulidan foydalanadi. Izg‘irin tun, och va oriqat, Duyshenning Lenin partiyasiga kirishi, Oktabr to‘ntarishining zulmga asoslangan mafkurasi va uning kelajakda albatta halokatga uchrashini poetik ogohi bo‘lsa, «Bozor» romanidagi och bo‘rilar va qo‘sh baytal afsonasi ezgulik baribir yovuzlik ustidan g‘olib bo‘lishi ifodasidir. «Bozor» romanida ilohiy mazmundagi detallar o‘z shakl va mazmunini to‘la saqlagan holda, ba’zan esa ularning mazmuni orqali falsafiy fikr-o‘ylarni izohlash, to‘ldirish tarzida qo‘llangan. Bular adib ijodiy fantazasiyasini yanada boyitish, tahay-

[1] Sulton I. Boqiy darbadar. Roman // «Sharq yulduzi» jurnali, 2010-yil, 6-son. – 1-2 b.

[2] O‘sha manba, 2-bet.

[3] Aytmatov Ch.Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. Adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent, 1978. – 238 b.

yul ufqlariga turtki berish, aksariyat muammolarga teranroq javob topish imkonini bergan.

«Bozor» romanida bir «koinot» ostida hayot kechirayotgan Fozilbek, Qadriya, Solih ori, Zar bobo, Egam bobo, G‘ulomjon, Baxtish kabi personajlar taqdiri badiiy aks etganki, bularning jo‘shqin, tiniqsiz hatti-harakatlari oqibat va sadoqat, ilm va ma’rifatni qadrlash g‘oyalarini jonli va hayotiy ifodalash imkonini bergan.

X.Do‘stmuhammad asar sahifalarida ilk odamning paydo bo‘lishi, ilohiy qudrat bilan surat va ruh berilishi, o‘ziga munosib dardosh topgunicha ko‘ngli ravshan bo‘lmaganligi bilan bog‘liq talqinlarni yaratgan. Uning taqdiri a’moli azaldan loyi qorilgandayoq ma’lum bo‘lganligi, o‘zaro diydorlashmoq, qovushmoq, tug‘moq, tug‘ilmoq kabi taqdirlar ilohiy qudrat egasining qo‘lida ekanligi bilan bog‘liq hodisa tasvirida rivoyatlarga murojaat qiladi, mifologik motivlar bunday ilohiy-diniy talqinlar jozibadorligini oshirishga va asar g‘oyasining teranlik kasb etishiga yordamlashadi.

Masalan, «Bozor» asarida Odam Ato muhabbati, shafqati misolida Fozilbek va Qadriya ruhiy to‘lqinlari, harakat-intilishlari izohlanadi. Asarda dunyoni muhabbat va go‘zallik asrashi mumkin, inson o‘z fe’lidagi yovuzliklarni bartaraf qilishi lozim, degan g‘oya ifodalangan. Muhabbat va ishonch - yovuzlik kushandasi bo‘lishi mumkinligi mifologiya va ilohiy motiv asosida tasvirlangan.

Resume: In this article, the artistic synthesis of motifs and narratives in world and national literature was studied. Examples of Chingiz Aitmatov’s work are compared with Western sources with analytical and comparative evidence. Also, directions related to theological-religious motives and methods of using mythology in Uzbek and world literature are scientifically based.

Резюме: В данной статье исследован художественный синтез мотивов и повествований в мировой и национальной литературе. Примеры творчества Чингиза Айтматова сравниваются с западными источниками, имеющими аналитические и сравнительные данные. Также научно обоснованы направления, связанные с богословско-религиозными мотивами и методами использования мифологии в узбекской и мировой литературе.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALIY SAFIY HIRAVIY ILMIY-ADABIY MEROSI

Umurzoqov Bahriddin,
ORIENTAL universiteti
Shaq tillari kafedrasi professor v,b., filologiya fanlari doktori

Hasanova Shafoat,
ORIENTAL universiteti
Shaq tillari kafedrasi professor v,b., filologiya fanlari doktori

Yetuk manoqibnavis, «Xojagon tariqati naqshbandiyya-ahroriyya suluki tazkirachisi», deya ta’riflangan Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy (vaf. 939/1532-1533), haqiqatan, o‘z davrining nodir ijodkor adiblaridan biri hisoblanadi.

Aliy Safiy sermahsul ijodkordir. Quyidagi asarlar shu vaqtgacha Aliy Safiy qalamiga mansub asarlar deya e’tirof etilgan: «Rashahot aynu-l-hayot» («Hayot bulog‘idan tomchilar»), «Latoyifu-t-tavoyif» («Ajoyib lutf so‘zlar»), «Anisu-l-orifin» («Orif zotlarning hamrohi»), «Hirzu-l-amon min fitani-l-zamon» («Zamona fitnalaridan xalos bo‘lish uchun omonlik choralari»), «Farasnoma-i Safiy» («Safiyning ot haqidagi dostoni»), «Odobu-l-ashob» («Birodarlik odobi yoki Birodarlar uchun odobnoma kitobi»), «Lavoihu-l-qamar» («Oyning ko‘rinishlari»), «Manzuma-i

Mahmudu Ayoz» («Mahmud va Ayoz haqida she'riy doston»), «Asror-i Qosimiy»[1].

Tojikistonlik tadqiqotchi A. Saidmukarramga ko'ra, Aliy Safiyning quyidagi asarlari bor: 1) «Mahmud va Ayoz», 2) «Rashahot ayn al-hayot», 3) «Latoyif at-tavoyif», 4) «Anis al-orifin», 5) «Hirz al-amon min fitan az-zamon», 6) «Asror-i Qosimiy».

A. Saidmukarram o'z tadqiqotida Aliy Safiyning ana shu oltita asarini sanab o'tgan, xolos [2].

O'zR FA ShI asosiy fondida «Asror-i Qosimiy» («Qosimiyning sirlari») qo'lyozmasi mavjud. Biz bu asar bilan tanishib chiqdik va natijada ushbu asar Aliy Safiyga emas, balki ijodkorning otasi Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Tojikistonlik olim M. Ne'matov o'z tadqiqotida Ali Safiyning yana bir asari, ya'ni «Lug'at-i Aliy Safiy» («Aliy Safiyning so'zligi») haqida axborot bergan[3].

O'zR FA ShI fondida, va umuman, Toshkent qo'lyozma xazinalarida bu asarning, ya'ni «Lug'at-i Aliy Safiy» ning qo'lyozma va toshbosma, shuningdek, zamonaviy nashri mavjud emas. Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari katalogidagi ma'lumotga ko'ra, mazkur asar – «Lug'at-i Aliy Safiy» qo'lyozmasi Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanadi va u muallifning dastxat nusxasi bo'lishi ham mumkin. Shaxsiy arxivimizda Aliy Safiyning dastxati mavjud bo'lgani bois kelgusida biz bu asarni sinchiklab o'rganib, bu masalaga oydinlik kiritish umididamiz.

Yaqinda biz Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning shu kunga qadar noma'lum bo'lib kelgan yana ikkita yangi asari qo'lyozmasini va bir g'azalini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. To'g'ri, bu topilmalar kichik hajmli asarlar hisoblanadi. Ammo mazkur yangi topilmalarning shu vaqtgacha fanga noma'lum bo'lib kelgani va manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida umuman tadqiq etilmagani biz uchun muhim hisoblanadi.

Bu qo'lyozmalardan biri ijodkorning «Sharh-i Masnaviy» («Masnaviy»ning sharhi») asaridir.

Bu asarning to'liq nomi «Lubb-i lubob-i Masnaviy» (لب لباب مثنوی) dir. Tojikistonlik tadqiqotchi A. Saidmukarram bu asarni eronlik olim S.Nasifiy bergan ma'lumotga, aniqrog'i, «Lubb-i lubob» nomi bilan ushbu olim chop ettirgan Tehron nashriga asoslanib, «Lubb-i lubob» ni Husayn Voiz Koshifiyning asaridir», degan[4].

Ammo O'zR FA ShI asosiy fondi kartotekasi qaydlarida Husayn Voiz Koshifiyga yana bir asar – «Kitob-i Ma'naviy fiy intixob-i al-Masnaviy» (کتاب المعنوی فی انتخاب المثنوی) asari ham nisbat berilgan. Kartotekadagi ushbu qayd-ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, har ikki asar Mavlono Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub, bo'lib chiqmoqda.

Biz «Lubb-i lubob-i Masnaviy» (لب لباب مثنوی) ning O'zR FA ShI fondida mavjud o'nga yaqin qo'lyozma nusxalari bilan tanishib chiqdik. Natijada bu asarning kattagina qismi, haqiqatan, Mavlono Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub ekani, ammo asarning oxirgi qismi allomaning o'g'li Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy tomonidan yozilgani ma'lum bo'ldi. Taxminimizcha, muallif mazkur asarini tamomlay olmasdan vafot etgan, ushbu asarni keyinchalik uning o'g'li Aliy Safiy tugatib qo'ygan.

Biz bu xususda yanada chuqurroq tadqiq olib borish niyatidamiz. Chunki O'zR FA ShI kartotekasida «Masnaviy»ning sharhi hisoblangan «Javohiru-l-asror Kashfu-l-maorib» (کشف المآرب - کتاب جواهر الاسرار) nomli yana bir asar Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga nisbat berilgan. Holbuki, «Javohiru-l-asror»ning muqaddimasida shorih, ya'ni ushbu sharhni yozgan zot o'zini «Shayx Husayn ibn Hasan», deya tanishtirgan.

2.Aliy Safiy qalamiga mansub ikkinchi topilma esa «Tuhfatu-l-Xoniy» (تحفة الخانی – «Xoniyga tuhfa») nomli asar qo'lyozmasi bo'lib, bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi O'zR FA ShI prof.H.Sulaymonov qo'lyozmalar fondida № Q.2621/II. Inv. raqam bilan saqlanadi.

Mazkur asar «KATALOG fonda instituta rukopisey» («Qo'lyozmalar instituti fondi fihristi») da «Podarok xanu» (تحفة الخانی) deb qayd etilgan[5]. Agar diqqat qilsak, asar nomining tarjimasida xatolikka yo'l qo'yilgan. «Tuhfatu-l-Xoniy»ning o'girimi «Xonga tuhfa» emas, balki «Xoniyga tuhfa» bo'lishi lozim edi. Chunki, asar nomidagi «al-Xoniy» (الخانی) kalimasida «yo-i nisba» mavjud. Bu esa asarning ma'lum bir shaxs, ya'ni o'z davrining sultonlaridan biriga yozib hadya qilinganiga dalolat qiladi. Zero, ushbu asar muqaddimasida Aliy Safiy, haqiqatan, uni Sulton Mu-

[1] Latoyf at-tavoif. – Tehron, 1373 /1953. – Б. 14.

[2] Saidmukarram Abduqodirzoda. Husayn Voizi Koshifi va sunnati tafsirnigorii Qur'on ba zaboni forsii tochiki (asrhoi X –XI). Awtorefarati dissertasiya baroi daryofti darachai ilmii doktori ilmhoi filology az ro'yi ixtisosi 10.01.01. –Adabiyoti tochik. – Dushanbe, 2020. – b.13.

3 Nematov M. S. «Rashahotu aynil-hayot» Faxruddina Ali Safi i yego literaturno-misticheskoye znacheniye: 10.01.03. Awtoref. diss. kand.filolog.nauk. – Xudjand, 2009.

[4] Saidmukarram Abduqodirzoda. Husayn Voizi Koshifi va sunnati tafsirnigorii Qur'on ba zaboni forsii tochiki (asrhoi X –XI). Awtorefarati dissertasiya baroi daryofti darachai ilmii doktori ilmhoi filology az ro'yi ixtisosi 10.01.01. –Adabiyoti tochik. – Dushanbe, 2020. – b.13.

[5] KATALOG fonda instituta rukopisey. II Tom. – Toshkent, izd. Ins-ta rukopis. Im.X.S.Suleymanova AN UzSSR, 1988. s.118.

hammad Xoniyga bag‘ishlab yozganini va unga tuhfa aylaganini yozgan.

«Tuhfatu-l-Xoniy»ning muqaddimasida uning muallifi «Aliy ibn Muhsin (Husayn – B.U.) al-Voiz al-Koshifiy al-mushtahar bi-s-Safiy» (علي بن محسن الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى) ekani haqida ma’lumot-qayd mavjud.

«Tuhfatu-l-Xoniy» asari «Asror-i Qosimiy» bilan bir jildda qo‘qon qog‘oziga oddiy nasta’liq xatida 1253/1837y.da kitobat qilingan. Qo‘lyozma kolofonidagi qaydga ko‘ra, mazkur qo‘lyozmaning kotibi ar-Rojiy Muhammad Buxoriy Hijriy (محمد الراجى بخارى هجرى) hisoblanadi.

«Tuhfatu-l-Xoniy» asari jami 18 varaq (109a-127b vv.) dan tashkil topgan. Qo‘lyozmaning o‘lchovi 25x16sm.

Asar «Basmala»dan so‘ng quyidagicha boshlangan [Tuhfatu-l-Xoniy:109a-v]:

الحمد لوليه و الصلوة و السلام على نبيه و صحبه اما بعد جنين كويد فقير بى بضاعت و حقير خالى از استطاعت علي ابن محسن الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى أيده الله باللطف الخفى كه ---

(Tarjimasi: Hamd (maqtov va shukrlar) hamdning haqiqiy Egasiga, ya’ni Alloh ta’ologa bo‘lsin! Rahmat va salom Uning Payg‘ambari – Hazrat Muhammadga va ul zotning ashobiga bo‘lsin! Shundan so‘ng: Kuchsiz va zaif, solih amallari oz bo‘lgan, «Safiy» nomi bilan tanilgan Aliy ibn Muhsin al-Voiz al-Koshifiy – Alloh ta’olo uni O‘zining yashirin lutfi bilan qo‘llasin! – ayturki, ...)

Muallifning asar muqaddimasidagi bayoniga ko‘ra, Mavlono Muhsin (Husayn – B.U.) Voiz Koshifiy hijr. 910 sanada /1504-y.da «Asror-i Qosimiy» (اسرار قاسمى) nomli asarini yozib tugatgan. Ushbu asarning avtograf nusxasi oqqa ko‘chirilmasdan uning o‘g‘li Aliy Safiy qo‘lida bo‘lgan. U otasi vafotidan keyin asarning davomi sifatida yangi bir asar yozgan va unga «Tuhfatu-l-Xoniy» deb nom qo‘ygan.

«Tuhfatu-l-Xoniy» asari 20 bobdan iboratdir. Har bobda muallif turli ashyo, ularning xosiyatlari, foyda va zararlari, shifobaxsh narsalar, ulardan qanday malham tayyorlash hamda ulardan qanday foylalanish haqida so‘z yuritgan.

Asar ushbu jumlalar bilan tamomlangan [1]:

تمام شد رساله‌ء تحفة الخانى باذن الملك الوهاب ، كاتبه الراجى محمد بخارى هجرى والله اعلم بالصواب

(Tarjimasi: «Tuhfatu-l-Xoniy» risolasi al-Malik (Podshoh), al-Vahhob (Bandalariga ko‘p-ko‘p ne’matlar hadya qilguvchi Alloh ta’olo) ning izni ila nihoyasiga yetdi. Kotibi: ar-Rojiy Muhammad Buxoriy Hijriydir. To‘g‘risini biluvchi Alloh ta’olodir!)

Biz hozirda «Tuhfatu-l-Xoniy» asarining matn va tarjimasining ilmiy-izohli nashrini amalga oshirishga kirishganmiz.

Hirot shoirlari she’rlari asosida tuzilgan bayozlar to‘plamini tadqiqi asnosida Aliy Safiy qalamiga mansub bir g‘azalga duch kelindi.

3.№1023 inv. raqam ostida saqlanayotgan «Majmu’a-i bayoz» («Bayozlar to‘plami»)ning 140a-140b varaq hoshiyasida «G‘azal-i Mavlono Faxruddin Aliy mutaxallas ba-Safiy» (غزل مولانا فخر الدين علي متلخص بصفي) sarlavhasi ostida shoirning bir g‘azali keltirilgan bo‘lib, u quyidagi misralar bilan boshlangan:

الهى در ديار محنتم حشمت پناهى ده
ز درد داغ عشقم تاج تخت پادشاهى ده

G‘azal ushbu misralar bilan yakun topgan:

صفى را زير بار محنت مال هما مفكن
ز مشكين طرّه‌ء بحب سياهشر ختم شاهى ده

Mazkur g‘azal jami sakkiz bayt, ya’ni o‘n olti misradan iborat.

G‘azal matnining transkriptsiyasini to‘liq holda e’tiboringizga haqola qilamiz:

Iloho, dar diyor-i mehnatam hashmat panohiy deh,
Zi dardu dog‘-i ishqam toju taxt-i podishohiy deh!
Saholor kun dar mulk-i jonam zi sitam-i g‘am- ro,
Dar fash-i kovyon az dud-i oh sabuhgohiy deh!
Dil-i afsurda-am, shu’la-i shom tajalliy kun,
Charog‘-i murda-am, rahbar Tu, nur-i Ilohiy deh!
Ham ovoz-i xurus-i Arsh-i Ilohiy, be-navo yod kun,
Man hastam ham-zaboniy bo-kabutar, noy-i johiy deh!
Agar moyil-i surx-zard biyni tab’-i sho‘xam lol,
Sar-i shakk ba-man lutf kun, siymoy-i kohiy deh!
Man muhr-i xamush ba-ro‘yon az sharm-i isyonam,
Shikoyatho zi xud doram, zabon-i uzr xohiy deh!
Namedonam, chi xohad dilam, to az Tu dil xoham,
Ba-har chize-ki, doni «lo yaqum», xohiy, xohiy deh!
Makun sharmanda dar ruz-i Jazo az rahmat-i xushem,
Agar jurmam namebaxsham ba-umidam guvohiy deh!
Safiy-ro zer-i bor-i minnat-i mol hama mafkan,
Zi-mushkin tarra-i ba-hubb-i siyohshor xatm-i shohiy deh!

G‘azalda she’riy san’atlardan, shuningdek, balog‘at va fasohat uslubidan unumli foydalanilganini

[1] Tuhfatu-l-Xoni O‘zR FA SHI, Qo‘lyozma: №2621/ XI. – B. 126.

ko‘ramiz. Yuqoridagi baytlarning ma’no tarjimasi qisqacha quyidagichadir:

Iloho, mashaqqat diyorimda menga ulug‘vor omonlik ato qil,

Dardmand dilimdan dog‘lik ishqimga sultonlik toju taxtin-shon ato qil!

Jon mulkimdagi barcha g‘am-sitamlarimni yengil ayla,

Tong ohim nafhasi (ohi) dan menga bir yalov-najot ato qil.

Afsurda dilman (mahzun qalbman), shom shu’lasida tajalliy ayla,

So‘ngan chirog‘dirman, rahbar - Sen O‘zing, Ilohiy nur ehson qil!

Arsh jarchisi (Isrofil) ovozi (ila), Iloho, men benavoni yod et,

Men kabutarga tildosh (zikrdosh)dirman, umrboqiy nay ato qil!

Agar sho‘x ta’bim qizil-sariqqa moyil ko‘rsang, hayrat,

Taradduddadir boshim, menga o‘z lutfing-la ruxsor-i somon ato qil!

Isyonim sabab sharmandaman, boshim egik, bosh qoldirib boqolmasman,

O‘z (nafs)imdan shikoyatlarim bor, uzr so‘raguvchi zabon ato qil!

Bilmasman, qalbim Sendan nima xohlar, men Sendan Dil istarman,

Har narsani bilguvchi Zot faqat O‘zing, istasang xohish ato qil!

Mahshar Kuni sharmanda qilma, rahmating umidi ila xush (xotirjam) dirman,

Jurm(gunoh)im kechilmasa, holim nechuk bo‘lg‘ay, umidimga guvohlik ber!

Iloho! Safiyni g‘am yuki ostida ezik qoldirma, rahm ayla unga,

Mushkin (mushkli) ishqing hurmatidan Shohona Yorliq ato qil!

Bizning taxminimizga ko‘ra, ushbu manzuma Aliy Safiyning «Devon»idan olingan.

Mazkur g‘azal munojot usul-uslubida bitilgan bo‘lib, g‘oyat mazmundordir. G‘azalda tasavvufona ramziy ma’nolarga ham ishoralar mavjud.

Ushbu g‘azal Aliy Safiyning, haqiqatan, iste’dodli shoir bo‘lganiga dalolat qiladi. Zero, Alisher Navoiy «Majolis an-nafois» asarida Aliy Safiyning shoirlik iste’dodini e’tirof etgan va ijodkorning bir g‘azali matla’sini, ya’ni ilk baytini misol qilib keltirgan[1].

«Rashahot»da bayon qilinicha, Aliy Safiy quyidagi qit’ani Mavlono Abdurahmon Jomiy bilan boja bo‘lgani sharafiga bitgan:

Qit’a. *Du kavkab-i sharaf az burj-i Sa’d millatu din,*

Tulu’ kardu bar omad basoni durri sadaf.

Az-on yake ba-ziyo gasht bayt-i orif-i Jom,

Az-in haziz va bol-i Safiy shud avj-i sharaf.

(Mazmuni: Ikki sharaf yulduzi millat va dinning baxtiyorlik burjidan,

Dur sadafdan chiqqan kabi nur sochib chiqdi.

Ulardan biri Jom orifi uyining nuri bo‘ldi,

Bu nasibadan Safiyning qanoti sharaf cho‘qqisiga yetdi)[2].

Mazkur misralardan shoirning o‘z taqdiridan mamnun bo‘lgani va o‘z iqbolidan iftixor qilgani yaqqol seziladi.

Shu o‘rinda bir mulohaza: nahotki, Aliy Safiy o‘z manzumalaridan «Devon» tuzmagan bo‘lsa?! Axir, ijodkorning barcha asarlarida kelgan g‘azallari, qasidalari, ruboiylari, qit’alari, fardlari jamlansa, mukammal bir «Devon» bo‘ladiku! Haqiqatan, ojizona fikrimiz va taxminimizga ko‘ra, shunchalik ko‘p manzuma bitgan shoirning «Devon» tuzmasligi, ya’ni uning «Devon»i bo‘lmasligi mumkin emas.

Hozirgacha Aliy Safiyning «Devon»i topilgani yo‘q. Galdagi muhim vazifa ijodkorning ana o‘sha nodir «Devon»ini topishdan iborat bo‘lmoqda.

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning barcha ilmiy-adabiy merosi qatorida uning yangi topilgan «Sharh-i Masnaviy», «G‘azal-i Aliy Safiy», «Tuhfatu-l-Xoniy» asarlari ham badiiy-estetik talablarga to‘la javob beradigan badiiyatning yuksak namunalaridir. Bu asarlarning har birida ijodkor ma’lum bir adabiy, tasavvufiy-irfoniy tushunchalarni novatorona yondoshuv, ya’ni yangicha ma’no va mazmun-mohiyat bilan yorqin ochib berishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

Resume: In this article, in particular, the scientific and literary heritage of Fakhruddin Ali Safi Kashifi Khiravi (d. 939 / 1532-1533), the number of works written by the author, to distinguish between them not belonging to the pen of Ali Safi and to clarify the authorship of the works of father and son Kashifi devoted to the analysis of important issues in the field of textual and literary sources.

The article also provides information about the manuscripts of several new works by Fakhruddin Ali Safi, still unknown to science – «Sharh-i Masnavi», «Ghazal-i Ali Safi», «Tuhfatu-l-Khani». These rare manuscripts show that Fakhruddin Ali Safi’s works were not limited to five or six, and that he followed in the footsteps of his father, Mawlana Hussain Waiz Kashifi.

[1] Мажолис ун-нафоис. 12-жилд. – Тошкент, 1966. – Б.132.

[2] Hasani M., Umrzoq B. Rashahotu aynil-hayot. – Toshkent, Abu Ali ibn Sino, 2004. – Б. 212.

Резюме: В данной статье речь идёт о научно-литературное наследие Фахруддина Али Сафи Кашифи Хирави (ум. 939/1532-1533) и анализ важных вопросов в области текстовых и литературных их источников.

В статье также приводятся сведения о рукописях нескольких новых произведений Фахруддина Али Сафи, до сих пор неизвестных науке – «Шарх-и Маснави», «Газаль-и Али Сафи», «Тухфату-л-Хани». Эти редкие рукописи показывают, что количество работ Фахруддина Али Сафи не ограничивалось пятью или шестью, и что он пошел по стопам своего отца Мавланы Хусейна Ваиз Кашифи.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XX АСР БОШЛАРИ ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ЯНГИ ПАРАДИГМАЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ ХУСУСИДА

Очилов Озоджон Мардиевич,
Тошкент давлат шарқшунослик университети доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори

19-аср ўрталарида ҳозирги Ўзбекистон ва Хитой ҳудудларида юзага келган вазият кўп жиҳатдан бир-бирига жуда ўхшашдир. Иккала давлат ҳам феодал жамиятнинг сўнгги даврларини яшаб ўтишаётган эди. Бири Чор Россияси, яна бири эса Ғарб давлатлари томонидан ишғол этилди, ҳар иккиси ҳам инқилоблар ва миллий озодлик, маърифатчилик курашларини бошдан кечирди. Унга монанд равишда сиёсат, иқтисодиёт, жамият, маданият ва бошқа соҳаларда жиддий ўзгаришлар рўй бера бошлади. Адабиёт ижтимоий воқеликнинг инъикоси сифатида бундай ўзгаришларни тез пайқади ва у бадиий адабиётда ўз аксини топиб борди, бу эса адабий тафаккурда муқаррар эврилишларга олиб келди. Шу сабабдан асосан 19-аср охири ва 20 аср I чорагида яратилган икки халқ адабиётида мавзу кўлами, қўлланилган мотивлар, мавзу ва бадиий ғоя жиҳатидан кўплаб ўхшаш жиҳатларни кузатишимиз мумкин. Шу билан бирга ўша давр хитой ва ўзбек адабиётининг тараққиёт жараёнида замонавий миллий онгнинг юксалиши билан таъкидланган миллий ўзига хослик муқаррар равишда икки мамлакатнинг замонавий адабиёт тарихида бир қатор фарқларни ҳам келтириб чиқарди.

18-асрдаги саноат инқилоби Европадаги анъанавий ижтимоий тузумни ўзгартирди ва Европани биринчи бўлиб капиталистик жамиятга киришга ундади. Шу билан бирга, замонавий Европа ва Америка капиталистик мамлакатлари савдо-сотиқ мақсадида ғарбдан шарққа йўналган бир қатор мустамлакачилик сиёсатини амалга оширди. Унинг бир қисми сифатида инглиз империалистлари 1840 йилда Хитойга қарши афюн урушини бошладилар, бу узоқ йиллик феодал анъаналар асосида яшаб келаётган Хитойга жиддий таъсир кўрсатди ва Хитой эшикларини дунёга очган «Нанкин шартномаси» каби тенгсиз келишувларни имзолашга мажбур қилди.

1842 йилда Британия фойдасига тузилган бир нечта келишувлар эвазига Хитойда уруш тугади. Бунинг ортидан АҚШ, Франция ва Чор Россияси билан ҳам уларнинг манфаатларига хизмат қилувчи келишувлар имзоланди. Чор Росияси Чинг империяси билан 1847 йили имзоланган «Ининг битими» ортидан Марказий Осиёга тажоввузкор ҳужумларини давом эттиришда кучли рағбатга эга бўлди.[1] Ушбу тенгсиз шартномалар сериясининг имзоланиши туфайли Хитойнинг урушдан олдин мустақил бўлган тариф суверенитети, суд суверенитети ва ҳудудий денгиз суверенитети йўқ қилин-

1 徐凤晨, 赵矢元: 《中国近代史 》, 辽宁人民出版社,, 1982.第52页。

ди, бунинг оқибатида Хитой деформацияланган бутунлай янгича йўлга ўта бошлади.

Афюн урушигача бўлган даврда юзага келган қўзғолонлар ёки қаршилик ҳаракатларига эътибор берилса, улар асосан деҳқонлар ва ер эгалари ўртасида, яъни оддий халқнинг феодал бошқарув тизимидан норозиликлари туфайли рўй берганлигини кузатиш мумкин. Урушдан сўнг вазият кескин ўзгарди. Энди қўзғолон ва норозилик ҳаракатлари империализм ва хитой миллати, феодализм ва кенг кўламли халқ ўртасида пайдо бўла бошлад. [1] Шу тариқа Хитойда шаклан ҳам моҳиятан янги кўриниш олган миллий демократик инқилобнинг илк куртаклари кўрина бошлади. Шу сабадан бу давр кейинчалик Хитойда содир бўлган демократик инқилоблар ҳамда хитой халқининг империализм ва феодализмга қарши бўлган буржуа революциясининг бошланғич нуқтаси ҳисобланади.

Афюн уруши шубҳасиз, давр зиёлилари учун ҳам катта зарба бўлди. Дарҳақиқат, зиёлилар уруш бошланишидан анча аввал империяни олдинда кутаётган хавф-хатарлардан ўз ташвишларини билдиришаётган эди. Афюн урушидан кейин улар Ғарбдан янги кашфиётлар, янги ғояларни ўзлаштириш ва тарқатишда янада фаол ҳаракат қила бошлашди. Шу тариқа, Ғарб илм-фан ва техникаси, сиёсий тафаккури, фалсафаси, адабиёти ва ҳоказолар турли йўллар орқали Хитойга ёйилиб, айниқса зиёлилар ўртасида катта тебранишни юзага келтирди. Аммо бу даврда зиёлиларнинг ижтимоий ислоҳоти ва ватанпарварлик, маърифатпарварлик ҳаракати феодал тузумга хос урф-одатлар, анъаналар ва минглаб қудратли консерваторлар томонидан ҳужумга учраганлиги ёки аёвсиз тақиб остига олинганлиги сабабли тизимли ижтимоий ислоҳотлар ҳаракати ривожлана олмади, айниқса унинг халққа таъсири жуда заиф бўлди.

Темурийлар салтанатининг инқирозга учраши натижасида учга бўлиниб кетган хонликлар 19-аср ўрталарига келиб барча жабҳаларда турғун сиёсат юритиб, прогрессив жараёнлардан анча ортда қолган эди. Азамат Зиёнинг фикрига кўра, аждодларимиз кўпчилик мамлакатлардан орқада бўлмаган бўлсаларда, жаҳон тараққиётидаги фан ва техника асрида (XX) тараққиётнинг олдинги сафларида туришлари учун мавжуд имкониятларни бой берди.[2] Ҳ.Содиқов ҳамда Н.Жўраевлар бундай имкониятнинг юз беришига тўсқинлик қилган бир қатор омилларни санаб ўтишади[Sodiqov,Jo'rayev 2011:64][3]. Жумладан, хонликлар ўртасидаги тўхтовсиз урушлар, бошбошдоқлик, ички низолар, хон ва бекларнинг зўравонлиги, ноқонуний солиқ ва жарималар, эски усулдаги ер мулкчилик сиёсати, қолоқ саноат ва кончилик, эскича товар-пул муносабатлари, ҳамон айрибошлаш усули устун бўлган ҳамда жаҳон бозоридан узилиб қолган савдо муносабатлари, энг муҳими халқни ягона ғоя остида бирлаштира олувчи арбобнинг бўлмаганлиги ва ҳоказолар санаб ўтилган. Юқорида келтирилган омиллар қаторида ўша даврда ортодаксал жамиятнинг роли ноҳоятда кучайганлиги, бунинг ортидан диний хурофот, мутаасибликнинг авж олганлигини ҳам санаб ўтиш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз. Амир ва хонларнинг ўзларини дин ҳимоячиси деган обрўга зўр бериб интилиши ва бунинг натижасида Чор Россияси остонада қўр тўкиб турган бир вазиятда Амир Насруллохоннинг «диний адолат» ўрнатиш важида Қўқон хонлигига бостириб кириши ва катта қирғин уюштириши ўз даврида диний хурофотининг қанчалик аянчли ва шармандали ҳолатларни юзага келтирганидан далолат беради.

18-аср ўрталарига келиб Чор Россияси Буюк Британия билан мустамлакачилик масаласида рақобатга киришган эди. Олтин Ўрда ўрнидаги ерларни эгаллагач ўз мавқеини мустаҳкамлаб ва у ердаги бойликлар ҳисобига кучга тўлгач, турк дунёсининг марказий қисми бўлмиш ўзбек хонликларини ҳам босиб олиш ҳаракатига тушди.[4] Чор Россияси бу масалани 19-асрнинг иккинчи ярмида узил-кесил ўз ниҳоясига етказди. Бу воқеалар табиий равишда ўлканинг барча жабҳаларига улкан таъсир кўрсатди. Тарихчи Адиб Холид таъкидлаганидек, «Туркистон бошқа европалик мустамлакачи империялар билан олисдаги мустамлакалар учун аёвсиз рақобат шароитида, «маданиятсиз» халқлар устидан империял бошқарув тамаддунининг чўққисидир» дея ҳамон бонг урилган замонда босиб олинганди.[5] Шу тариқа ташқи дунёдан дярли узилиб қолган, барча жабҳаларда турғунликни бошидан кечираётган, на таълим на сиёсатда ислоҳот қилмаган, ўзаро мантиқсиз урушлар натижасида заифлашган ўзбек хонликлари бирин-кетин Чор империясининг мустамлакасига айланди. Бу вазият ҳам туркистонлик зиёлиларни сергак торттирди ва нажот фақат маърифатда, тўғри таълимда эканлигини кенг тарғиб қила бо-

[1] 陈振江：《简明中国近代史》-天津：天津人民出版社，1991，第34页。

[2] Azamat Ziyo. 0'zbek davlatchiligi tarixi. – T.:, Sharq, 2000. – B.298.

[3] Sodiqov H, Jo'rayev N. 0'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.64.

[4] Azamat Ziyo. 0'zbek davlatchiligi tarixi. – T.:, Sharq, 2000. – B.433.

[5] Adib Xolid: O'zbekiston tavalludi: Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. –Toshkent: Akademnashr, 2022. – B.33.

шлади. Бу учун энг қулай восита шеърият бўлиб, у ёрдамида илғор адабиёт вакиллари ўз ғояларини оддий халққа етказишга ҳракат қилдилар. Бундай шеърият содда, турли қатъий метрик қоидалардан ҳоли, ўзида реал воқеликни акс эттирувчи шеърият бўлиши лозим эди. Айнан мана шу омиллар шеъриятнинг том маънодаги эврилишини, янгиланишни бошлаб берди.

Юқоридагилардан хулоса шуки, бир пайтлар илм-фан тараққиётида муҳим рол ўйнаган ўзбек ва хитой халқлари уни анъанага айлантира олишмади, аксинча унинг ўрнини диний-мафкуравий хурофотга бўшатиб беришди, натижада илм-фан ривожини анъанага айлантира олган мамлакатлар томонидан босиб олинди. Оғир вазият ҳар икки ўлканинг ватанпарвар зиёлиларини бу ҳолатга тушишнинг сабабларини фаол қидиришга мажбур қилди. Сабаб сифатида маърифатсизлик, илмсизлик, билимсизлик эканлиги тан олинди. Халқни уйғотиш, унинг кўзини очиш ҳаракати бошланди ва бунда шеърият асосий қуроллардан бири сифатида майдонга келди. Шу аснода парадигмалар ўзгара бошлади, адабиёт, хусусан қарийб ярим аср давом этган шеърият эволюцияси юз берди.

Resume: In the middle of the 19th century, the situation that arose in the territories of present-day Uzbekistan and China was very similar in many ways. Both countries were living in the last period of feudal society. The historical situation of that time played an important role in the evolution of poetry.

Резюме: В середине XIX века ситуация, возникшая на территориях современных Узбекистана и Китая, во многом была очень схожей. Обе страны жили в последний период феодального общества. Историческая ситуация того времени сыграла важную роль в развитии поэзии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DETAL VA VOQEA-HODISALAR OBRAZIDA IJODKOR RUHIYATI TALQINI

(R.Uzoqova, Sh.R.Termiziy she’rlari misolida)

Xaitova Yulduz,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Insonning his-tuyg‘ulari asosan ikki narsaga bog‘liq, ulardan biri – qamrab olgan tabiat olami, ikkinchisi – uning o‘z faoliyati. U tabiat olamiga nazar tashlab, doim uning go‘zalliklarini, ko‘ngilni maftun qiladigan tomonlarini ko‘rishni istaydi.

She’riy asarda badiiy ma’no so‘z va gap mazmunidan tug‘ilmaydi. Asarda nima aytilishi va nima tasvirlanishi ushbu nima qanday taxlit va shakl-shamoyilda aytilishi va tasvirlanishi muhim. Bu ikki holat – nima va qanday o‘zaro jips bog‘liq hodisalardir. Detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati talqini ma’no va mazmunda aks etadi. Ma’no-mazmunning qanday va qay ko‘rinishda ifodalanishi badiiy asar strukturasini hosil qiladi. Detal obrazlar xususida adabiyotshunos B. Sarimsoqov fikr yuritadi. Narsa-buyumlar, portretlar, peyzaj kabi tasvirlar detal obrazlarni tashkil etadi. Muallif ayni shu detal obrazlar vositasida o‘z his-tuyg‘ularini, maqsad va fikrlarini ochib beradi. Ba’zan detal obrazlar ramziy ma’no-mazmunga ham ega bo‘ladi[1]. Detal obrazlar haqida adabiyotshunos Dilmurod Quronov o‘zining «Adabiyotshunoslikka kirish» asarida quyidagicha fikr-mulohazalarni bildiradi: «Detal obrazlar (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj) o‘zlarining

[1] Худоёрова Г. Абдулла Орипов шеъриятида лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги (хориж сафарларидаги асарлари мисолида).Ф.ф.б.ф.док.дисс. – Тошкент, 2022. –Б.83.

statik holatdaligi bilan farqlanadi. Detal obrazlarda badiiy reallikning ikkinchi qatlami – ichki yoki tashqi harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazi o‘sib chiqadi»[1]. Adabiyotshunos Gulruh Xudoyorova detal obrazlarni Abdulla Oripov lirikasi misolida quyidagicha tasnif qiladi:

umumiy detal obrazlar;

milliy mentalitetga xos detal obrazlar;

Bu tasnifda umumiy detal obrazlar butun insoniyat uchun tanish va bir xil vazifa bajaruvchi obrazlar bo‘lsa, milliy mentalitetga xos detal obrazlar faqat bizning xalq orasidagina qo‘llanuvchi, milliy g‘urur, iftixor timsollari vazifasini o‘tovchi predmetlar, peyzajlar, urf-odatlar obrazidir. Masalan, do‘ppi, belbog‘ kabi predmetlar choyxona va choyxo‘rlik tasviri kabi peyzajlar o‘zbek xalq mentalitetiga xos detal obrazlarni tashkil etadi[2]. Xuddi bunday tasnifni Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy lirikasidagi detal obrazlarda ko‘rishimiz mumkin. Ikki ijodkor she’riyatida milliylik xalqona voqea-hodisa, predmetlar vositasida poetik ifodalanar ekan, ularda yuqorida ta’kidlanganidek Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat aks etadi.

Detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati talqini nasrdagidan ko‘ra aniqroq va ko‘rimliroqdir. Chunki, misra, bayt va bandlar tayyor strukturaviy birlik, uzv vazifasini o‘taydi. Ular orasida kechadigan aloqa va munosabatlar badiiy asarning badiiy ma’no va badiiy konsepsiyasini vujudga keltiradi. Bu o‘rinda tadqiq etilayotgan lirik asarning qanday janrda ekani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Janr aksar hollarda nafaqat uning mazmun tomoni, balki poetik strukturasini ham tayin etadi.

Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodidagi yana bir mavsum marosim qo‘shig‘i «Surxon chechaklari» deb ataladi. Shoir qavs ichida qo‘shiq deb yozib qo‘yibdi. Xalqona ohangdagi mazkur qo‘shiq «sumalakjon sumalak»,- degan naqorat bilan yakunlanadi. Navro‘z sumalaksiz o‘tmaydi. Shuning uchun Navro‘zga bag‘ishlangan she’rning davomidan sumalakka bag‘ishlangan qo‘shiqning kelishi mantiqan to‘g‘ri. She’rning oxirgi bandi:

Oppoq gul – oppoq tilak,

Xizr ham sen, sen malak.

Hamma yuz navro‘z ko‘rsin,

Yuz bor totsin sumalak[3].

tarzida xuddi xalq qo‘shiqlari, xalq duolari kabi yorug‘ tilaklar bilan yakunlanadi. Insonning ezgu niyatlari ramzi bo‘lgan Qaqnus qushi ramzi ham ruhiy jarayon bilan bog‘liq hodisadir.

Qaqnus obrazi – mazkur obraz dastlab xalqimizning mifologik tafakkuriga borib bog‘lanadi. Folklor asarlarining asosiy qahramonlaridan biri bo‘lgan mazkur obraz mumtoz adabiyotga o‘tgan. So‘ng XX asr yangi davr adabiyotiga kirib keldi va hamon zamonaviy she’riyatimizda davom etib kelmoqda.

Shafoat Rahmatulla Termiziy bu obrazning go‘zal namunasini yaratgan. Uning «Qaqnus» she’riga nazar solamiz.

Qoralar ichida oqqush qaqnusim,

Galalar ichida toqqush qaqnusim,

Riyolar ichida haqqush qaqnusim,

Oqqushim, toqqushim, haqqush qaqnusim.

Jisming tilka-tilka ishqning tig‘ida,

Tiling sayroqda-yu qalbing yig‘ida,

Jahon joningda-yu jon bo‘g‘zingda-ya,

Oqqushim, toqqushim, haqqush qaqnusim.

She’rda \\ Oqqushim, toqqushim, haqqush qaqnusim\\ deya ong ichida har xil tuyg‘ular bilan sodir bo‘ladigan barcha psixologik jarayonlar sabab bilan tushuntirilishi mumkin. Ammo ongsizning beparvoligiga asoslangan ijodkorlik inson bilimlari uchun abadiy yopiq bo‘lib qoladi. U har doim faqat tashqi ko‘rinishlarida tasvirlanadi, taxmin qilinadi, ammo tushunarsiz bo‘ladi. She’rshunoslik va psixologiya bir-biriga bog‘liq bo‘ladi hamda bu fanlardan birining prinsipi boshqasining prinsipini bekor qila olmaydi. Hozirgidek Qaqnus obrazi fikr dalili uchun misol bo‘la oladi.

Subhu savtlaringdan chekilsin zulmat,

Naqshi peshravingdan surilsin illat,

Ey musiqiy davlat – ilohiy millat,

Oqqushim, toqqushim, haqqush qaqnusim.

To sensiz olamda tovush bo‘lmasin,

Bog‘larda bulbulu tovus bo‘lmasin.

Tovbai vasfingsiz to ishq bo‘lmasin,

Oqqushim, toqqushim, haqqush qaqnusim[4].

«Qaqnus obrazi zamirida shu nom bilan ataluvchi afsonaviy qush to‘g‘risidagi mifologik qarashlar o‘z ifodasini topgan. «Navoiy asarlari lug‘ati»da qaqnus so‘ziga «mavhum bir qush, afsonaga ko‘ra tumshug‘ida juda ko‘p teshikchalari bo‘lib, bu teshiklardan chiqqan ovozlardan go‘yo musiqa o‘ylab chiqarilgan emish», deb izoh berilgan. Psixologik jarayon hech qachon o‘zidan voz kechmasdan murakkab holatlarning natijasini o‘rganish va o‘rnatish da’vosidan voz kecha olmaydi. Ammo shunga qaramay, u hech qachon bu da’voning amalga oshishini kutmaydi. Chunki

[1] Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т:.Фан. 2007. –Б.72.

[2] Худоёрова Г. Абдулла Орипов шеъриятида лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги (хориж сафарларидаги асарлари мисолида).Ф.ф.б.ф.док.дисс. – Тошкент, 2022. –Б.85.

[3] Ш.Рахматулла Термизий. Озод сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. –Б. 78.

[4] Раҳматулло. Ш. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 94.

lirikada aniq namoyon bo‘lgan oqilona ijodkorlik oxir-oqibat uning barcha urinishlarini ratsionalizatsiya qiladi.

Berilgan psixologik materiali natijasi shartlardan kelib chiqadigan narsa sifatida taqdim etish; she’rshunoslik prinsipi ish yoki ijodkorlik haqidagi psixikani to‘g‘ridan-to‘g‘ri mavjud deb hisoblashi kerak. Ikkala tamoyil ham nisbiyligiga qaramay o‘z kuchini saqlab qoladi.

Shafoat Raxmatulla Termiziyning «Birinchi tushdagi dialoglar» turkum she’rida bu detal obrazining yorqin namunasini ko‘ramiz:

Oppoq bulutlarni belanchak qilsam,
Hilol ipagidan halinchak qilsam.
Bobotog‘ kelbatli kuyov bo‘lsamu,
Bahorni o‘zimga kelinchak qilsam[1].

She’rdagi ohang va Bobotog‘ obrazi o‘zining originalligi, o‘ziga xosligi bilan o‘quvchi diqqatini tortadi va shoirning badiiy mahorati ham shunda bilinadi. Bobotog‘ning viqori lirik qahramonni o‘ziga maftun etadi. Shuningdek shoirning ko‘plab she’rlarida Bobotog‘ hayotdan zavq olishni istagan lirik qahramon uchun o‘ziga xos bir surur va mardlarni sinovchi maydon sifatida keladi.

Buloqlardan qonib to‘yib kelayin,
Qoyalarga noming o‘yib kelayin.
Bobotog‘dan poyga qo‘yib kelayin,
Oq yo‘l tila, tog‘ sayriga, dilbarim.

Shoir «Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim» she’rida ham shu obraz va shu ruhni davom ettirib, Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim, Tovus xirom, oy yuz, o‘t nigoh. Oshiq bo‘lib ergashib yurdim, *Bir qiz bo‘lib imladi u goh*, tarzida Bobotog‘ obrazini yaratadiki, mazkur she’rda ham u oshiqni ma’shuqaga yetkazuvchi bir maskan sifatida tasviralanadi.

Tuyg‘u, ma’lumki, jism va jonda, ko‘ngilda kechmish ruhiy-jismoniy kechinmalar, ruhiy his-tuyg‘ular majmuidir. Detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyatida she’r tuyg‘uning so‘zdagi namoyoni, ifodasi ekan shu jihati bilan u musiqaga qondosh sohaga aylanadi. Ushbu she’r o‘qilishi jarayonida o‘ynoqi musiqa tinglagandek bo‘lasiz. Buyuk pedagog V.A. Suxomlinskiy yozganidek, «So‘z musiqaning borbud teranligini hargiz anglata olmaydi, lekin tuyg‘u anglatishning ushbu o‘ta inja jabhasiga so‘zsiz ham yaqinlashib bo‘lmaydi»[2]

Surxon vohasi ijodkorlari ham o‘zbek she’riyatining tarkibiy bir qismi sifatida unga ko‘plab yangi shakl va ohanglarni olib kirdi. XX asr o‘zbek she’riyati xazinasiga mazkur voha ijodkorlari qo‘shgan adabiy hissadan biri folklorizmlarni yozma adabiyotga muvaffaqiyat bilan olib kirganlaridir. Dastavval Surxon vohasi adabiy jarayoni ijodkorlari ijodida qo‘llangan alqov va qarg‘ishlar buning yorqin misolidir. Alqov va qarg‘ishlar oddiy folklorizm namunasidir. Xalq, vatan, elu yurt, farzand va xalq qahramonlari alqalgan alqov she’rlar bunga misol bo‘la oladi.

Shafoat Raxmatulla Termiziy yuqorida ham ta’kidlangan alqov she’rida ona yurtga, demak vatanga alqov bitayapti. «Ota tilagi» she’rida esa farzand kamolidan mamnun ota unga alqov aytadi. Bu alqov xuddi G‘.G‘ulomning she’rlari kabi qadahni tagigacha sipqorish bilan tugallanadi.

Alpomish kelbatli yigit bo‘larsan,
Sen birla bezalar qizlarning tushi.
Qo‘limda turgan shu billur qadahdan,
Hozir kelayapti «yor-yor» tovushi.
Sening baxting uchun ushbu qadahni
O‘g‘lim, tagigacha qo‘yay sipqorib.
Do‘stlarim aytishsin qolgan saboqni,
To‘ying boraversin tong kabi yorib[3].

Surxon vohasi ijodkorlari ijodida xalq og‘zaki ijodidagi obrazlar ko‘chib o‘tdi. Natijada adabiy muhit ijodkorlari ijodida obraz va ohang stilizatsiyasi yuzaga kelgan. Bu davr ijodkorlari maqol va matallarni o‘zlashtirib, uni yozma adabiyotga olib kirdilar.

O‘zbek millati uchun milliylik xos xususiyat. Har qanday umumbashariy g‘oyalar, dunyoviy ifodalar zamirida ham milliy jihatlar bir qadar o‘z ifodasini topadi. «Milliy o‘ziga xoslik milliy tematika, milliy xarakter va uni shakllantirish vositalarini o‘z ichiga oladi»[4]. Ra’no Uzoqova va Shafoat Raxmatulla Termiziy she’riyatida milliylik masalasi mavzu va xarakterda, qolaversa yana ko‘plab jihatlarda poetik ifodalanadi, ayni shu jihatlarni o‘rganish ijodkorlar ijodining tayanch ildizini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekona predmetlar vositasida obrazlarda milliy ruhning aks etishini Shafoat Raxmatulla Termiziyning 5 baytdan iborat «Do‘pping» radifli g‘azalida ham ko‘ramiz:

Qirq kokiling jilg‘alangan bir tog‘istondir do‘pping
Tundek soching uzra gohi oydin osmondir do‘pping[5].

She’r mazmunidan bilinadiki, g‘azal oshiqning yoriga ta’rifu tafsifi bilan boshlanadi. Shoir o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yadi. Yor suratining jozib tasviri uchun so‘z qidiradi. Shoirning o‘z yurti bilan bog‘liq urf-odat va an’analarni, predmetlarni, o‘z mentalitetiga xos tushunchalarni she’rga mohirona singdirib yuborishi jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ab-

[1] Шафоат Рахматулла Термизий. Озод сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. –Б 194.

[2] Кабалевский Дм. Воспитание ума и сердце. – М., 1984. – С. 173.

[3] Шафоат Рахматулла Термизий. Озод сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 58.

[4] Тўйчийев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. –Тошкент: Янги аср авлоди.– Б-450.

[5] Шафоат Рахматулла Термизий. Озод сўз. -Т.: Янги аср авлоди, 2003. -Б. 9.

dulla Oripov she'riyatida milliylik masalasi haqida adabiyotshunos Akram Hamdamov quyidagicha mulohaza bildiradi: «Abdulla Oripov she'riyati ona xalqi va Vataniga bo'lgan otashin muhabbatning yorqin ko'rinishidir. Ushbu jarayonda xalqona poetik tafakkur , milliylik ruhi badiiy -estetik pafos sifatida bo'y ko'rsatadi. Buning zamirida insonga muhabbat – insonparvarlik tuyg'ulari yotadi. [1]»

Shafoat Raxmatulla Termiziyning Xayyomona ruhda yozilgan «Piyola» to'rtligida quyidagi satrlarni o'qiymiz:

Choy ichib o'tirsam keldi bir nola,
«Ol, meni sharobga to'ldir, ey bola»
Choyu moy birmasmi desam ul dedi:
«Men Xayyom xokidan bo'lgan piyola» [2].

Yoki shoirning «Maysa» deb nomlangan to'rtligida maysa obrazi orqali jamiyatdagi insonlar qadr qimmati, odamlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning yuksaklikka ko'tarilishi yoki aksi poetik ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

Birov tiklab tetapoya etadi,
Birov oyog'ingdan chalib ketadi.
Bosilgan maysa yo qaddin tiklaydi,
Yoki tuproqda xor qolib ketadi[3].

Detal obrazlarning bir qanchasida o'zbek xalq mentalitetiga xos elementlar poetik ifodalanib, ijodkorlarning badiiy maqsadini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa shoirning o'z xalqi va Vataniga bo'lgan chuqur ehtiromi va mehr-muhabbati qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi. Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: «Ijtimoiy tafakkurdagi tadrijiy o'zgarishlar davrni yangilaydi, davrning o'zgarishlari esa ijtimoiy ongga yangi sifatlar baxsh etadi»[4].

Ra'no Uzoqovaning ikkinchi jahon urushi yillari yozilgan «Tankchi» she'rida urush yillarida mardonavor jang qilayotgan millat o'g'lonlari tilga olinib, Tank obrazi va voqea-hodisalar obrazi sifatida urush obrazi mahorat bilan poetik ifodalanadi:

Tog'lar oshib, yo'llar bosib po'lat ot keldi,
Arslon kabi na'ra tortib buyuk zot keldi.
Hamlasidan yaproq kabi titraydi tog'lar,
Tankni haydab mardi maydon sher avlod keldi[5].

Shoiraning voqea-hodisalar obrazi sifatida tasvirlangan urush (kurash) obrazi xalqona ohangda poetik ifodalangan «Kurash allasi» to'rtligida ham bir mu'tabar onaning dilbandiga aytgan allasi mahorat bilan tilga olinadi:

Sen tug'ilding kurash kunlari,
Yuksalganda faryod unlari.
Qonga to'la xanjar qinlar
O'qlar uchsa cho'chima, alla[6].

Milliy ohanglar shoir kechinmalarini ifodalash uchun eng yaxshi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu she'rda milliylikni ifodalovchi vosita faqatgina ohang emas, aksincha, shoirning o'zi hamdir. Ra'no Uzoqovaning «Ikki oy» nomli she'ri ham diqqatga sazovordir:

Sut bilan yuvilgan sehrli kecha,
Yashil yaproqlarni o'par *sarrin yel.*
Saylu tomoshada kezib shomgacha,
Orom *to'shagiga botgan butun el.*
Daraxtlar ostidan *mo'ralaganday,*
Ne xislat bog' ichra o'z aksin *ko'rdi.*
Bunda yo'q edi-ku daryo yoki soy,
Bu qanday hodisa, o'zi *ne erdi?*

Shoira ritorik so'roqlar orqali she'r jozibasini oshirgan. Bunda shoira oy chiqqan kechani peyzaj bilan o'ziga xos berib o'tgan. Xalqning esa «Orom to'shagiga botgan butun el» deya poetik tasvirini beradi.

Qaldirg'och qanotin o'g'irlab *qoshi,*
Zuhroni lol qilgan ko'zlarida o't.
Sarviqad, lablari yashnagan yoqut.
Kim ekan oy *yuzli,* oydin *kechada,*
O'z h*usnini* olamga *ko'z-ko'z qiluvchi?*
Oq *nafis libosda gavdalangan kim?*
Yo to'ydan arazlab qochgan *kelinmi?*
Izlamas kuyov ham, nega atrof *jim,*
Yoki bir alvasti, *sehrgar jinmi?*
Shudringga ko'milgan maysa ko'rpasi,
O'pardi oldimda *kichik* oyoqni,
Jo'shqin shaloladek bir qo'shiq sasi,
Uyqudan uyg'otar bu chaman-bog'ni.

Shoira bunda Oq *nafis libosda gavdalangan kim*?, deya oyga sha'ma qilyapti. Uning samoda yolg'iz muallaq turishini va *Yo to'ydan arazlab qochgan kelinmi*?, deydi. Yana *Uyqudan uyg'otar bu chaman-bog'ni*– deya o'ziga xos poetik ifoda bilan tasvirlaydi. Bu mavzuga mumtoz adabiyotda keng murojaat qilingan. Undagi, oy, gul, qalam kabi obrazlarga Alisher Navoiy qit'alarida ham keng ko'lamda o'z ifodasini topgan. Quyida bularning ayrimlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Muhammadi arabiy barmog'i ishorat ila,
Sipehr xonida oy qursin ul sifat oson.
Ikki oydirki, bir nonni xoni ichra Xalil
Aningdek ikki ushatmoq emasturur qon.

[1] Hamdamov A. Абдулла Орипов шеъриятида халқона поэтик тафаккур муаммоси. Ф.ф.н. дисс... –Тошкент, 2011. –Б.18.

[2] Шафоат Рахматулла Термизий. Кўринмай гулладим. -Тошкент: Муҳаррир, 2008. – Б. 6.

[3] Shu kitob. -Б.8

[4] Йўлдошев Қ. Эверест ва уммон. Ҳикмат жилвалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –Б.329.

[5] Раъно Узоқова. Бахт қўшиғи. –Т. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт ижодий матбаа уйи. 2016. – Б. 408.

[6] Shu kitob. – Б. 413.

Bu o‘rinda oy obrazi ikki ma’noda kelyapti. Biri ko‘kdagi oy ma’nosida qo‘llansa, yana birida oy timsoli orqali hazrati Muhammad (s.a.v.) ning siymosi aks etgan. Keyingi misralarda oy obrazining funksiyasi kengaytirilgan. Bunda Navoiy tashbeh san’atining ham go‘zal namunasidan foydalangan. Oyni nonga o‘xshatgan. Qarang payg‘ambarimizning kuchi tengsiz ekanligini shunday ifodalamoqda. Payg‘amdarimizning bir barmoq ishorati bilan oyni ikkiga bo‘lishi, nonni ikkiga bo‘lishidan ham oson ish ekanligini aytadi. Bu yerda so‘z oy o‘xshatilgan narsa haqida ketsa-da, o‘xshatilgan narsa ya’ni non tashbehning haqoniylik darajasini belgilaydi. Oy obrazi bundan boshqa ma’nolarni tashishga ham xizmat qiladi. Ularda ma’no keskin o‘zgarib ketmasa-da, ifoda uslubi va o‘xshatilgan narsalar yangilanadi xolos. Shoira Ra’no Uzoqova mazkur she’rida:

Qizning qo‘shig‘ida yangraydi visol,
Yuragida yashar bir yigit nomi.
Qo‘lida ishqiy xat, kular oyjamol,
Tugatmish ul bugun so‘nggi nomani.
Shirt etib uzarkan lola yaprog‘in
Bir o‘pib ohista soldi xatjildga.
Tabriklab to‘lin oy qiz vaqti chog‘in,
Daraxtlar ustidan boqardi tikka.

She’rda oy yorug‘ining visol onlari bilan parallel holati ham poetik ifodalanadi. Visol onlarida oy daraxtlar ustidan boqishi tasviri berilgan. Oy obrazi bilan bog‘liq Hazrati Navoiyning keyingi qit’asida:

Bizning shah bila beklar majmai bor.
Agar jolistururlar yo‘qsa rokib.
O‘zidur oy-u ravshanroq beklar,
Qamar davrida andoqkim kavokiblar.

Bunda oy obrazida shoh timsoli gavdalanadi. Yuqoridagi qit’ada ham bu qit’ada ham oy shaxsni ifodalab kelgan. Bu yerda ma’no rang-barangligi qayerida ifodalangan degan savol qo‘yilishi tabiiy. Birinchi qit’ada oy nonga qiyoslangan edi. Keyingisida oy atrofidagi yulduzlar aylanishi tasviri o‘ziga xos poetik ma’no kasb etgan. Bu qit’ada shoh va beklarning o‘zaro ittifoqi davlatning ravnaqiga xizmat qilishi aytilgan edi. Bu qit’aning qisqacha mazmuni shundayki, bizning shoh va uning atrofidagi o‘rab turgan beklar oy atrofidagi yulduzlarga o‘xshatilgan. Bu qit’ada tashxis san’atidan mohirlik bilan foydalanilgan.

Haqiqiy shoir lirikada qaysi davrni aks ettirmasin, obrazlarni qay tarzda tanlamasin, u yaratgan qahramonlar kitobxon dilida muhim va yangi his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Asarni o‘qigan har bir kishi qahramonni o‘zining doimiy sherigidek, hayot yo‘ldoshidek his qiladi. Og‘ir kunlarda u bilan maslahatlashgandek, xursandchilik paytlarida kitobiy yo‘ldoshini o‘zi bilan birga ko‘rayotgandek bo‘ladi. Lirik qahramonning hayot yo‘li kompas singari doim roviyga yo‘l ko‘rsatib turgandek bo‘ladi.

Umuman olganda, ikki ijodkor ham o‘zbekona predmetlar vositasida obrazlarda milliy ruhning aks etishida do‘ppi, piyola, maysa, tank kabi ko‘plab predmetlardan unumli foydalanib, o‘zbekona urf-odat, an’ana va xususiyatlar vositasida obrazlarda milliylikning aks etishida urf-odat va an’analardan foydalanib milliy ruh aks etgan lirik namunalarni yaratdi.

Resume: In this article, the details, events, and the psyche of the lyrical hero in the lyrics of Rano Uzokova and Shafoat Rakhmatullo Termizi are detailed. Also, in the lyrics of the creators, there is talk about the expression of folklore traditions, the author’s artistry and style.

Резюме: В данной статье подробно раскрыты детали, события и психика лирического героя в лирике Рано Узоковой и Шафоата Рахматулло Термизи. Также в текстах создателей идет речь о выражении фольклорных традиций, авторском артистизме и стиле.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK AVTOBIOGRAFIK ROMANLARIDA TARIXIYLIKNING BADIIY TALQINI (“KAFANSIZ KO‘MILGANLAR” ROMANI MISOLIDA)

Hamdamov Ulug‘bek Hasan o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti,
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: hamdamov_u95@mail.ru
+99899-057-09-50

Tarixiylik badiiy ijodda o‘tmish voqealari va davrlarning badiiy talqini orqali muayyan davr ruhi, ijtimoiy tafakkur va insoniy taqdirlarni aks ettirish jarayonidir. U klassik adabiyotda ham, modern va postmodern adabiy oqimlarda ham muhim estetik mezon hisoblangan. Badiiy adabiyotda tarixiylik va badiiylik o‘rtasidagi muvozanat asar sifatini belgilovchi asosiy tamoyil hisoblanadi. Tarixiylik – asardagi voqeliklarning haqiqiy tarixiy kontekst, hodisalar va shaxslar bilan mosligini ta’minlashdir[1].

Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” romanida sho‘rolarning qatag‘on siyosati oqibatida yozuvchining hibsga olinishi, tergov jarayonlari, qamalishi va uzoq Sibir o‘rmonlaridagi hayoti tasvirlangani bois, avtobiografik romanlar bilan bog‘liq tarixiylik tamoyili ana shu voqealar tafsiloti bilan chambarchas bog‘liq. Mixail Baxtin tarixiylikni “roman strukturasining vaqtga oid o‘zgaruvchanligi va tarixiy tafakkur dinamikasining markazi”[2] sifatida talqin qilgan. Unga ko‘ra, tarixiy-badiiy roman tarixni nafaqat aks ettiradi, balki uni qayta quradi, yangicha mazmun bilan boyitadi. Shu jihatdan, “Kafansiz ko‘milganlar”da keltirilgan har bir tarixiy dalil, arxiv hujjatlari yoki real voqelik badiiy asarni tarixiylik tamoyili nuqtayi nazaridan tekshirishda muhim sanaladi.

Yozuvchining tergov protokollaridagi bayonotlar, xususan, o‘z tarjimayi holiga oid epizodlar, avtobiografik diskursning sun’iy deformatsiyaga uchraganini ko‘rsatadi. Yozuvchining tergov hujjatlaridagi qaydlarga diqqat qiling: *“Bugungi tergovda go‘yo tug‘ilganimdan boshlab shu kungacha bo‘lgan qilmishlarimni eslatib, yodimga solmoqchi bo‘lgandek, tarjimayi holimni surishtirishdan boshladi. Tug‘ilgan yilimdan tortib to ota-onam kimligi, qachon tug‘ilib qachon o‘lgani-yu, qarindosh-urug‘larim kim bo‘lgan, qamalganmi-yo‘qmi, chet ellarda bo‘lganmi-bo‘lmaganligigacha hammasiga javob berdim. U esa nimalarnidir uzoq vaqt yozdi. Nihoyat yozganlarini o‘qib berib, qo‘l qo‘yishimni so‘radi. Qo‘l qo‘yishdan avval o‘qidim-u yoqa ushladim. Tug‘ilgan yilimdan boshqa deyarli hamma gaplar buzib, men aytmagan narsalar qo‘shib yozilgan edi. Otang kim, degan savolga otam ham, avlod-ajdodim ham emchilik kasbi bilan shug‘ullangan deb bergan javobim otam dindor, domla bo‘lgan, men o‘zim sovetlarga qarshi targ‘ibot bilan shug‘ullanganman, deb yozilibdi. Axir tarjimayi holimni buzib yozishdan maqsad nima? Bundan kuzatilgan birdan-bir maqsad, butun avlod-ajdodi bilan sovetlar dushmani, degan tavqi la’natni bo‘ynimga osish, xolos. U paytlarda, ayniqsa, dindormi, tamom – sovetga qarshi dushman, degan so‘z edi... Men qol qo‘yishdan bosh tortdim”*[3]. Yuqoridagi satrlarda muallif o‘zining shaxsiy hayot yo‘li, oilaviy kelib chiqishi, ijtimoiy mansubligi to‘g‘risida bergan izohlar qanday qilib tergovchilar tomonidan g‘oyaviy tamg‘a ostida qayta yozilganini ochib beradi. Mazkur parchada hujjatli faktlar muallif tasvirida badiiylashadi va ijtimoiy-siyosiy kontekstda o‘ziga xos poetik-falsafiy ohang kasb etadi.

Avvalo, tergovning tarjimayi hol surishtiruvidan boshlanishi sho‘ro totalitar tizimining shaxsiyatni to‘liq nazorat qilishga intilganini anglatadi. Yozuvchi tilga olganidek, tug‘ilgan sanasidan tortib, otasi kimligi, kasbi, hatto qarindosh-urug‘larining xorij bilan bo‘lgan-bo‘lmagan aloqalarigacha tergovga tortilgan. Bunday yondashuv shaxsiylik tushunchasining toptalishi, biografik faktlarning siyosiylashtirilishi va tarixiy haqiqatning soxtalashtirilishiga olib keladi. Tergovchi tomonidan tuzilgan protokol yozuvchining real hayotiy izohlariga zid tarzda, ya’ni mafkuraviy

[1] Karaxodjaeva M. Badiiy adabiyotlarda Alisher Navoiy obrazi talqini // Ilm vaqti ilmiy jurnali. Volume: 4, Issue: 1. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18380384

[2] Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986. – С.182.

[3] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 7.

buyurtma asosida talqin qilinadi: otasining emchilik (emlash) sohasidagi faoliyati “dindorlik”, muallifning o‘zi esa “sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borgan” shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Bu holat tarixiy haqiqatni o‘zgartirish orqali muayyan shaxsni siyosiy jinoyatchiga aylantirish mexanizmining mohiyatini ochib beradi. Bu esa o‘z navbatida yozuvchining o‘ziga xosligi va ijodkor sifatidagi pozitsiyasini so‘roq ostiga qo‘yadi. Yozuvchining “qo‘l qo‘yishdan bosh tortdim” degan so‘zlari badiiy qahramonning emas, balki tarixiy haqiqatni himoya qilayotgan muallif pozitsiyasining qat’iyatidan dalolat beradi. Bu yerda hujjat va badiiy matn oralig‘idagi chegara noaniqlashadi, muallif o‘z shaxsiy haqiqatini daliliy soxta matnga qarama-qarshi qo‘yadi. Ushbu epizod, ayni paytda, o‘zbek avtobiografik romanlarida hujjatlilik tamoyilining muhim unsurlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Shukrullo tomonidan ta’kidlangan faktlar – ziyolilar, pedagoglar, adiblar va san’at vakillarining sistematik tarzda qamalishi, surgun qilinishi yoki otib tashlanishi qatag‘on siyosatining madaniy qatlamga qaratilgan tahdidini ochib beradi. U *“Men bu gaplarni havodan olib aytayotganim yo‘q, tarixning sabog‘idan olib gapiryapman”*[1] deya, o‘z xotirasining ishonchliligini ta’minlash uchun tarixiylik mezonini alohida urg‘ulaydi. Demak, “Kafansiz ko‘milganlar”da faktik tarixiylik badiiy matnning muhim konstruktiv elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

KGB tergovi Shukrulloga tengdoshlaridan birining to‘yida Stalinning so‘zini masxaralab, kinoya bilan aytgansan, deb ayb qo‘yishadi: *“Kinoyami, yoki to‘g‘ri ko‘ngilda aytganmanmi, buni qayoqdan bilding! Kinoya qilib aytgan bo‘lsam ham to‘g‘ri aytganman. Chunki to‘y bo‘lishiga qara-masdan dasturxonda yeydigan narsa yo‘q edi. Axir, urush vaqtida, bitta ko‘ylagimiz ikkita bo‘lishi u yoqda tursin, hatto butun ko‘ylakning o‘zi bo‘lmagan. Axir men o‘zim biror uzoqroq joyga to‘y-tomoshaga borib, yotib qolgudek bo‘lsam chiroqni o‘chirmaslaridan yechinolmasdim. Chunki, garchand ko‘ylagimning yoqasi, galstugim bo‘lsa ham ko‘ylakning orqasi yo‘q edi...”*[2] Shukrullo-ning to‘yda Stalin haqidagi kinoyaviy iborasi oddiy ijtimoiy tanqiddan siyosiy jinoyatga aylantiriladi. *“Kinoya qilib aytgan bo‘lsam ham to‘g‘ri aytganman”* degan jumla muallif pozitsiyasining axloqiy ustunligini ko‘rsatadi. Aslida esa bu ibora estetik qarshilik ifodasidir: shaxs – ko‘ngildagi haqiqat orqali zo‘ravon mafkuraga qarshi chiqmoqda. Dasturxonda ovqat yo‘qligi, orqasi yo‘q ko‘ylak – bular moddiy qashshoqlik emas, balki ruhiy, axloqiy tanazzul metaforalari, nazarimizda. Demak, Shukrullo asarida tarixiy faktlar faqatgina shaxsiy hayot sahnasi sifatida emas, balki butun bir mafkuraviy zo‘ravonlik davrining tarixiy-adabiy aks-sadosi sifatida ishlatilgan.

“Kafansiz ko‘milganlar”da 1932–1933-yillarda ro‘y bergan ocharchilik fojiasi chuqur psixologik ta’sirga ega, ayni paytda tarixiy xotirani tiklovchi badiiy tasvir darajasida ifodalanadi: *“Agar yanglishmasam, 32–33-yillar yurtda ocharchilik edi. U vaqtda nonni zaborniy chiptasi bilan olardik. Talon bo‘lishiga qaramay, ba’zan bir-ikki kunlar do‘konga non kelmasdan tegishli nonni ham o‘z vaqtida ololmasdik. Kelgani ham hammaga yetmasdi. Xadradagi Tashtram do‘koni ishchilarga qarashli bo‘lgani uchun bu yerga non boshqa do‘konlarga qaraganda vaqtida kelardi. Shunga qaramasdan non olish oson bo‘lmasdi: hamisha ur-to‘polon, baqiriq-chaqiriq. Men yosh bola bo‘lganim uchun ba’zilar rahm qilib oldinga qo‘yib yuborardi. Ko‘pincha yarim kechadan navbat olishga to‘g‘ri kelardi. Oladigan nonimiz shunaqangi qop-qora, jirish bo‘lardiki, do‘konchi pichoqni suv solingan chelakka tiqib olmasdan buxankani kesa olmasdi. Odamlar shu jirishga ham zor edi. Qo‘limdagi nonni Xadradagi ochlar yulib ketmasliklari uchun ehtiyotlab xaltaga solib olib kelardim. O‘sha yillari Xadradagi Tashtram devorlarining tagida oyoq-qo‘llari ochlikdan shishib, yuzlari qoq suyak, eski uvadalarga o‘ralgan, bitlab ketgan erkak, yosh bolali ayollar qahraton qish sovug‘ida tizilishib, tilanchilik qilib o‘tirishardi. Ertalab nonga chiqqan paytlarimda kecha kechqurun tilanchilarning ayrimlari ochlik va sovuqdan qotib o‘lgan bo‘lib, jasadlarini xuddi sarjin ortgandek aravalarga tashlab olib ketardilar. U mahalda shahar aylanib, o‘lik yig‘adigan maxsus aravalar bo‘lardi”*[3]. Bu yillar sho‘ro siyosatining sun’iy iqtisodiy islohoti – xususan, kollektivlashtirish va majburiy don topshirish siyosati natijasida yuzaga kelgan milliy fojia bo‘lib, muallifning xotiralari orqali konkret ifodasini topgan. Yozuvchi bu davr manzarasini oddiy faktlar sanab o‘tish bilan emas, balki bolalik xotirasining nozik ko‘zgusi orqali ochadi. Navbatda turgan odamlarning ur-to‘poloni, qorong‘i tonglarda non kutib turganlar, qop-qora, pichoqsiz kesib bo‘lmaydigan non – bularning bari aniq detallarga asoslangan badiiy xotira mezonlariga mos keladi. Shukrulloning bolalik nigohi bilan berilgan manzaralar ayniqsa kuchli hissiy yuklamaga ega: u o‘zini yetim boladek emas, balki garchi yosh bo‘lsa-da, ijtimoiy fojianing to‘laqonli guvohi sifatida tasvirlaydi.

Tashtram devorlari tagida tilanchilik qilayotgan, qahraton sovuqda ochlikdan shishgan, qoq suyak odamlardan tortib, tongda o‘liklarni “sarjin ortgandek

[1] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 30.
[2] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 68.
[3] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 72-73.

aravalarga” solib olib ketish manzarasi esa kishini larzaga soladi. Eng muhim jihatlardan biri shuki, muallif ushbu fojiani faqat tarixiy dalil sifatida emas, balki madaniy xotira sifatida ham qayta tiklaydi. Tilanchilar, o‘lik yig‘uvchi aravalar kabi obrazlar orqali insoniyat shuurida o‘chirilgan tarixiy haqiqat qayta jonlanadi go‘yo. Demak, ocharchilik yillari tasviri Shukrulloning avtobiografik romanida nafaqat tarixiy haqiqatni, balki insoniy iztirob va ijtimoiy beparvolik o‘rtasidagi ziddiyatni estetik anglash orqali badiiy ifodalashga xizmat qiladi.

“Kafansiz ko‘milganlar” romanining eng og‘riqli sahnalaridan biri qamoqxona bilan bog‘liq haqiqatlar, ayniqsa, avaxtadagi inson sha’nini oyoq osti qiluvchi manzaralar tasviridir: *“O‘rdak laqabli nazoratchi xotin dam-badam temir eshikning darchasidan mo‘ralab: Parashda dog‘ qolmasin. Tezroq qimirlalaring, suvni ko‘p sarflama! – deb bir necha bor buyruq berib turardi. Xotin bo‘lsa ham nihoyatda qahri qattiq, rahmsiz edi. Ammo unga sen kimu, men kim deyaolasanmi? Bu huquq qayoqda! Ular senga inson deb qarashadimi? Mutlaqo!*

Bir oy, ikki oyda kameralarga kirib turadigan vrach yoki turma boshlig‘i ham atrofga nazar solib, kameraning qishda muzlab qolgani yoki yozning issig‘ida sasib, bijg‘ib ketganini emas, asosiy e’tiborni burchakda turgan mis tuvakning dog‘i bormi, yo‘qligiga qaratadi. Bundan maqsad senga g‘amxo‘rlik emas, aksincha, senlardan ko‘ra mana shu tuvak biz uchun e’tiborli, senlar shuni tozalashga loyiqsizlar, demoqchi bo‘lardi. Tuvakda biror dog‘ topsa, seni karserga tashlab jazolashni yoki uydan keladigan ozmi-ko‘pmi nasibadan mahrum qilishni mo‘ljallardi”[1].

Ushbu lavha badiiy xotiraning insoniy qadr-qimmatni qoralovchi, ma’naviy inqirozni fosh qiluvchi kuchli ijtimoiy-psixologik hujjatidir. Shukrullo qamoqdagi real holatni ichki monolog, naturalistik tasvir va tragik realizm uslublari orqali badiiy shakllantiradi.

Nazorat xodimining “Parashda dog‘ qolmasin!” deya doimiy nazorat ostidagi harakatlari inson erkinligi va shaxsiy daxlsizlik konsepsiyasining Shukrullo yashagan tarixiy davrda butkul inqirozga uchraganligini anglatadi. Avtoritar tuzumning “fojiaviy absurd”-ga asoslangan qatag‘on mexanizmi o‘z aksini bu yerdagi metonimik detallar – tuvak, dog‘, sasigan havo kabi predmetlar orqali topgan. Shuningdek, bu sahnada obrazli kontrast vositasi ham ustalik bilan qo‘llanilgan. “Xotin bo‘lsa ham nihoyatda qahri qattiq, rahmsiz edi” degan ibora zamirida insoniylikdan butkul yiroqlashgan, g‘ayriinsoniy tizim vakilining qiyofasi aks ettiriladi.

Romanda bir oyda bir keladigan vrach va turma boshlig‘i e’tiborini inson salomatligiga emas, balki tuvakdagi dog‘ga qaratishi ijtimoiy zo‘ravonlik shakli sifatida talqin qilinadi. Bu yerda yozuvchi qamoq nazorat tizimini fosh etadi: ya’ni qamoqxonadagi har bir harakat doimiy kuzatuv ostida bo‘lib, bu orqali shaxs ongi doimiy ruhiy tazyiq ostida saqlanadi. Tuvakda “dog‘” qolsa, karserga tashlash, uy-dan keladigan ozgina nasibadan mahrum qilish – jazolash orqali shaxsni irodasizlashtirish siyosatining badiiy ko‘rinishidir. Bu jarayon Shukrulloning individual xotirasida emas, balki xalq xotirasida muhrlangan bir dard sifatida ifodalanadi. Ya’ni Shukrullo xotirasini emas, o‘z avlodining, o‘zbek ziyolilari qatlamining milliy jarohatini badiiylashtirgan.

Rezyume. Tarixiylik tamoyili badiiy adabiyotda o‘tmishdagi voqelikni haqqoniy aks ettirish uchun juda muhimdir. Tarixiylik avtobiografik asarlarning badiiy qiymatini belgilovchi muhim tamoyillardan biridir. Ushbu maqolada Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” romani misolida o‘zbek avtobiografik romanlarida tarixiylik tamoyilining ahamiyati tahlil qilinadi.

Resume. The principle of historicity is very important for the truthful reflection of past reality in fiction. Historicity is one of the important principles that determine the artistic value of autobiographical works. This article analyzes the importance of the principle of historicity in Uzbek autobiographical novels using the example of Shukrullo‘s novel “Those Buried Without Shrouds”.

Резюме. Принцип историчности имеет огромное значение для правдивого отражения прошлой реальности в художественной литературе. Историчность – один из важных принципов, определяющих художественную ценность автобиографических произведений. В данной статье анализируется значение принципа историчности в узбекских автобиографических романах на примере романа Шукрулло “Похороненные без савана”.

[1] Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 80.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2023; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TALABA YOSHLARNI MA’NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Saidova Zarnigor Toshbobo qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, har tomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishilaridan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Bu ustuvor masala yuzasidan davlatimiz rahbariyati tomonidan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste’mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir.

«Talaba-yoshlarning ma’naviy – axloqiy rivojlanishi – bu tarbiya yordamida ideal xulq dasturini, uning hayotiy tajribasi, ma’naviy ehtiyojga mos keladigan real xatti – harakat elementiga aylantirishdir. Bunday hol faqat o‘quvchining ideali uning ma’naviy – axloqiy xatti – harakatlari andozasiga, me’yorlariga mos tushsagina, to‘g‘ri kelganidagina ro‘y berish mumkin»[1]. Shu bilan birga ma’naviy – axloqiy tarbiya rivojlanish elementlari faqat tashqi muhitning bevosita yoki bilvosita ta’siridagina sodir bo‘ladi va harakatga keladi. Talaba-yoshlarning va tashqi muhitning doimiy munosabatidagina uning ma’naviy – axloqiy rivojlanishi ta’minlanadi. Talabalarning ma’naviy – axloqiy tarbiyasi o‘ziga xos qarama – qarshiliklardan iboratligi aniqlangan. Ular:

1. Yoshlarning nasliy, anatomik – fiziologik imkoniyati bilan o‘zlashtirib olingan xulq – atvor o‘rtasidagi qarama – qarshilik. Masalan, asab tizimi harakatlanuvchan tipdagi o‘smirlar tengdoshlari, o‘rtoqlari bilan osongina muloqotga kirisha oladilar. Ammo, asab tizimi kuchsiz, sekin harakatga kiruvchi talabalar muloqotga sekin kirishadilar, o‘rtoqlaridan orqada qolmasliklari uchun kirishishga majbur bo‘ladilar.

2. Yoshlarning ma’naviy – axloqiy ideali bilan tabiiy imkoniyati o‘rtasidagi qarama – qarshilik.

3. Yoshlarning dastlabki ma’naviy-axloqiy tajribalari bilan yangi ma’naviy ehtiyojlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik.

«O‘zidan qoniqmaslik-oqilona hayot kechirish, va o‘z ustida tinmay ishlashning zarur sharti hisoblanadi», - deb yozgan edi rus pedagogi L.N.Tolstoy. O‘zidan qoniqmaslik – ertangi kun hayotga intilishning muhim omili (A.S.Makarenko). Talabada vujudga kelgan o‘z – o‘zidan qoniqmaslikni bartaraf etish, undan ta’lim tarbiya jarayonida samarali foydalanishda uch yo‘nalishda ishlash lozim.

- Talaba oldiga umidni qo‘ya olish;
- amaliy faoliyatning aniq rejalashtirish;
- erishilgan natija haqida axborot olish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi»da ham talabalarda ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

«Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra, inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘likligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi

[1] Мирзиёев Ш. М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир [Матн] : Маъруза / Шавкат Миромонович Мирзиёев. – Тошкент: Tasvir, 2021. – 36 б.

kabilardan iborat»[1]. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan bog'liq bo'lgan tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Bundan tashqari barcha ta'lim muassasasida talaba- yoshlarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarining eng muhim tamoyillardan biri – ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati talaba shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham yana bir eng qimmatli qadriyat- erkinlik hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida talaba shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

Talabalarning ehtiyojlarini oqilona boshqarish, rivojlantirish va qondirish ma'naviy – axloqiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining muhim qarama – qarshiliklaridan biri xarakterning tug'ma xususiyatlari bilan tarbiya jarayoni kelishmasligidir. Tarbiya jarayonida Talabalarning ongini, tarkib topgan xarakter hislatlarini qayta – qurish o'zgartirish, yangisiga moslashtirishning murakkabligi hammaga ayon. Bunday qarama – qarshilik – talaba ideali bilan hayot amaliyoti o'rtasida, axloqiy ehtiyoji bilan uni qondirish imkoniyat va usullari o'rtasidagi kelishmovchiliklar asosida vujudga kelishi mumkin. Tarbiya jarayonida talabalarning ma'naviy – axloqiy ehtiyojlarini qoniqtirishning turli usul va vositalari mavjud. Bular:

- talabalarning ma'naviy – axloqiy ehtiyojlarini kuchaytirish va qoniqtirishga e'tibor berish;

- ehtiyojlarni qoniqtirish «taqiqlash» yo'li bilan hal etish. – o'smir nima xohlasa, uni qilishga sharoit yaratish;

- o'smirning ehtiyojlarini oqilona bajarish o'zining xatti – harakati, intilishlarini taqdirlash. Talabalarning ma'naviy – axloqiy hislatlarini o'rganish jarayoni quyidagi pedagogik talablarga javob berishi lozim:

- ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini o'rganish, tahlil qilish tarbiya jarayoni tarkibiy qismi, o'quv – tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim;

- talabalarni ma'naviy – axloqiy hislatlarini doim o'zgarishda rivojlanishda deb o'rganish;

- tarbiyalanganlik me'yorlarini aniqlash va shu asosda tahlil qilish;

- talabalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganliklarini o'rganishda unga ta'sir etuvchi barcha omil, vositalarni hisobga olish;

- ularning ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajalarini alohida va jamoa bilan o'rganish lozim. Demak, talabalarning ma'naviy – axloqiy jihatdan rivojlanishida uning ichki va tashqi qarama – qarshiliklarini anglab olish, uni yengishda oqilona usul va uslublardan foydalanish, bu jarayonda tarbiyalanuvchilarning ongli faoliyatidan foydalanish yetarli samarani beradi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunga ega bo'lish nazarda tutiladi. «Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi»[2]. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xattiharakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan histuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. «Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi»[3]. Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir. Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

[1] Pedagogika. Munavvarov A.G'. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.

[2] Pedagogika. A.G'. Munavvarov umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.

[3] Almetov N.Sh. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Almata, 2001.

o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me’yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o‘z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

shaxsda o‘z idealiga intilishiga bo‘lgan his-tuyg‘ularini uyg‘otishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko‘nikmalarni tarbiyalash;

ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xattiharakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko‘p ma’naviy-axloqiy sifatlar – boshqlarga g‘amxo‘rlik qilish, odamlarning g‘amtashvishi, quvonchini tushuna olish, o‘z manfaatidan o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish, axloqiy me’yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to‘xtataolish, ma’lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a’zolarining fikri bilan o‘rtoqlashish, mas’uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya va ta’limni xech qachon bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi. Bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo‘lgan, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar talaba-yoshlarni yetishtirib beradi. Ma’naviyat – insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloqi hamda odobi, avlodlar tajribasi asosida pedagoglarimiz nazorati ostida shakllanib boradi. Shunday ekan biz pedagoglar ta’lim jarayonida tarbiyaning xam uzviyligini ta’minlagan xolda talaba yoshlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berisb borishimiz va ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olishimiz zarurdir.

Resume. Nowadays, educating young people as well-rounded people, progressive people of their country is one of the most important issues. Because the youth are the future of our country. This article talks about the content and essence of spiritual and moral education, spiritual and moral education of students and young people.

Резюме. Сегодня воспитание молодежи как всесторонне развитой личности, прогрессивного народа своей страны является одним из важнейших вопросов. Потому что молодежь – это будущее нашей страны. В данной статье говорится о содержании и сущности духовно-нравственного воспитания, духовно-нравственном воспитании студентов и молодежи.